

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSİYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
UNIVERSITETI**

**FIZIKA KAFEDRASI**

**FIZIKA FANIDAN  
AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN USLUBIY QO'LLANMA**

**1 – QISM  
MEXANIKA**

**Toshkent – 2020**

Mualliflar: H.M. Xolmedov, B. Ibragimov, X.N. Karimov  
“Mexanika” 1-qism. Fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. -Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU. 2020, 153 b.

Ushbu uslubiy qo‘llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining bakalavriatura 1-bosqichida o‘qitiladigan “Fizika” fanining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, unda masalalar yechish uchun zarur bo‘lgan asosiy qonun va formulalar, masalalar yechish namunalari hamda mavzular bo‘yicha mustaqil ishlashga mo‘ljallangan masalalarning variantlar taqsimoti keltirilgan. Talabalarning mustaqil tayyorlanishlari uchun har bir mavzu bo‘yicha nazariy savollar keltirilgan.

Uslubiy qo‘llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATUning bakalavriatura 1-bosqichida ta’lim olayotgan barcha ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

Uslubiy qo‘llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-uslubiy Kengashining qarori bilan chop etishga tavsiya etildi (2019 yil 23 maydagi 11(123)-sonli bayonnomasi).

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti, 2020 yil.

## KIRISH

Fizika qonunlarini bilish deganda, nafaqat ularni ta’rifini bilish, balki ularni aniq bir masalalarни yechishda qo’llay olishni bilmоq demakdir. Masala yechishni bilish, talabalarni mustaqil ijodiy ishlar bilan shug‘ullanishiga yordam beradi, o‘rganilayotgan hodisaning tahlil qilishga o‘rgatadi, ularni asosiy sabablarini (faktorlarni) ajratib olishga imkon beradi.

Masala yechish jarayoni mustaqil ravishda amalga oshirilganda uning samaradorligi yanada yuqoriq bo’ladi, ushbu uslubiy qo‘llanma buni amalga oshirishga qaratilgan.

Mustaqil ishslash uchun mo‘ljallangan masalalar variantlar bo‘yicha taqsimlangan bo‘lib, har bir variant o‘z ichiga to‘rtta masalani oladi. Har bir mavzu oldidan masala yechish bo‘yicha qisqacha uslubiy ko‘rsatmalar va tavsiyalar berilgan, har bir mavzu bo‘yicha turli tipdagи masalalarni yechish namunalari keltirilgan.

Masalalarni tushungan holda yechish faqat shunga tegishli nazariy materiallarni to‘liq o‘zlashtirgan holdagina mumkin. Buning uchun har bir mavzu bo‘yicha darsga tayyorlanish jarayonida talabalarning e’tiborini mavzu muammolarini tushunishga va ularni to‘g‘ri talqin qilishga imkon beruvchi nazorat savollar keltirilgan.

Ushbu qo‘llanmadan foydalangan holda talaba:

- Nazorat savollari va ko‘rsatilgan adabiyotlardan foydalanib berilgan bo‘limni maqsadli o‘rganishi kerak.
- O‘rganilgan nazariyaga, uslubiy ko‘rsatma va masala yechish namunalariga tayangan holda o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan variant bo‘yicha vazifalarini mustaqil bajarishi kerak.

## **Talabalarga masalalar yechishda quyidagi qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi:**

1. Masalalarni yechish maboynida masalalar shartini oqib, masalaning mazmunini tushinib olish zarur. Masalaning shartidan kelib chiqib chizma, grafiklar chizish kerak.
2. Masala shartini tushinib olgandan so‘ng qanday ob’ekt yoki jarayon haqida so‘z borayotganligini, qanday kattaliklar aniqlanayotganligini, ko‘rilayotgan hodisalar qanday fizik hodisalarga bo‘ysunishini aniqlab olish zarur.
3. Masalalar yechish davomida bir qancha usullardan eng maqbulini (optimal usulni) tanlab olib zarur.
4. Masalani yechish avval umumiy shaklda amalga oshirilishi kerak, shu bilan birga kerakli birliklar shartda ko‘rsatilgan birliklarlar bilan ifodalanishi kerak.
5. Berilgan kattaliklarni bir sistemaga keltirib olish kerak, masalan SI sistemada amalga oshirilishi kerak.
6. Masala yechish jarayoni oxirida o‘lchov birligini mosligi tekshirilishi zarur.
7. Mustaqil ish vazifasini tayyorlashda, ishlatilayotgan qonunlar va formulalar qisqa, ammo batafsil tushuntirilishi kerak.
8. Mustaqil ish vazifasini bajarishda ishlatiladigan qonunlar va formulalar qisqacha bayon qilinishi kerak, ammo to‘liq tushuntirilishi kerak.
9. Agar imkonи bo‘lsa olingan javobni son qiymatini to‘g‘riligini baholash lozim.

## **1-MAVZU**

### **ILGARILANMA HARAkat KINEMATIKASI VA DINAMIKASI**

#### **Nazorat savollari**

1. Ilgarilanma harakatning kinematik xarakteristikalari (ko‘chish, trayektoriya, yo‘l, tezlik, tezlanish)ga ta’rif bering.
2. O‘rtacha va oniy tezlik, tezlanishlar tushunchalari nima bilan farq qiladi?
3. Egri chiziqli harakatdagi tezlanishni qanday tashkil etuvchilarga ajratish mumkin? Ularning ma’nosi nima?
4. Ilgarilanma harakatning dinamik xarakteristikalari (kuch, massa, impuls)ga ta’rif bering.
5. Dinamikaning vazifasi nimadan iborat? Nyutonning uchta qonunini ta’riflang. Ular qanday sanoq sistemalarida o‘rinli?
6. Erkin tushush tezlanish qaysi kattalikka bog’liq.
7. Gorizontal otilgan jismning harakat traektoriyasi paraboladan iborat ekanligini isbotlang?
8. Gravitatsion doimiyning son qiymatini qanday aniqlash mumkin:  
1) tajribaga asoslanib; 2) nazariy jihatdan?
9. Galileyning nisbiylik prinsipi nimani anglatadi? Klassik mexanikani qo‘llanish chegarasi qanday?
10. Qaysi qiymatlar barcha inersial sanoq tizimlarida bir xil qo‘llaniladi va ularning invariantligini isbotlang.

## **Masalalar yechish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar**

Kinematika masalalarida harakat qonunini, ya’ni birorta sistemada jism koordinatasini vaqt funksiyasi sifatida aniqlab, bu harakat qonunini harakatning boshqa kinematik xarakteristikalari (tezlik va tezlanish) bilan bog‘lash zarur.

Egri chiziqli harakatga doir masala yechishda bu harakat doimo tezlanuvchan ekanligini esda saqlash kerak, chunki tezlik vektorini moduli o‘zgarmagan holda ham, uning yo‘nalishi o‘zgarishini, chiziqli tezlik o‘zgarmagani bilan doimo markazga intilma tezlanish mavjud bo‘lishini hisobga olish zarur.

Egri chiziqli harakatni o‘rganishda ikki o‘qli to‘g’ri burchakli koordinatalar sistemasidan foydalanish qulay. Bunda o‘qlarning birini tezlanishga parallel ravishda, ikkinchisini esa unga perpendikulyar ravishda yo‘naltiriladi.

Dinamika masalalarida ko‘rilayotgan sistemadagi har bir jismning qanday o‘zaro ta’sirlarda qatnashayotganligini aniqlash, ya’ni kuchlarning tabiatini, kattaligi va yo‘nalishini e’tiborga olish kerak. Chunki kuch vector kattalik bo‘lib u son qiymati bilan bir vaqtda yo‘nalishi bilan ham ifodalanadi. Har bir jism uchun harakat tenglamasini alohida yozish kerak. Nyuton qonunining vektor ko‘rinishdagi tezlanish va ta’sir etuvchi kuchlarning koordinatalar o‘qlariga proyeksiyalarini bog‘lovchi skalar ko‘rinishdagi tenglamalarga o‘tish zarur.

## Asosiy formulalar

Moddiy nuqtaning o‘rtacha va oniy tezliklari

$$\langle \vec{v} \rangle = \frac{\Delta \vec{r}}{\Delta t}, \quad \vec{v} = \frac{d\vec{r}}{dt}.$$

Moddiy nuqtaning o‘rtacha va oniy tezlanishlari

$$\langle \vec{a} \rangle = \frac{\Delta \vec{\vartheta}}{\Delta t}, \quad \langle \vec{a} \rangle = \frac{d\vec{\vartheta}}{dt}$$

Tezlanishning tangensial normal tashkil etuvchilari

$$a_{\tau} = \frac{d\vec{\vartheta}}{dt} \quad a_n = \frac{\vartheta^2}{R}$$

bu yerda  $R$  – trayektoriyaning berilgan nuqtasidagi egrilik radiusi.

Egri chiziqli harakatda to‘liq tezlanish

$$a = a_{\tau} + a_n, \quad a = \sqrt{a_{\tau}^2 + a_n^2}$$

Moddiy nuqtaning tekis harakati kinematik tenglamasi

$$x = x_0 + \vartheta t$$

bu yerda  $x_0$  – boshlang’ich koordinata,  $t$  - vaqt.

Tekis harakat uchun yo‘l va tezlik

$$S = \vartheta_0 \pm \frac{at^2}{2} \quad \vartheta = \vartheta_0 + at$$

Moddiy nuqtaning  $t_1$  dan  $t_2$  gacha bo‘lgan vaqt oralig‘idagi bosib o‘tgan yo‘li

$$S = \int_{t_1}^{t_2} \vartheta(t) dt$$

Erkin tushishayotgan jismning tushush balandligi

$$h = \frac{gt^2}{2}$$

Bu yerda  $g$  — erkin tushish tezlanishi;

Jismning ixtiyoriy  $t$  vaqtdagi tezligi

$$\vec{\vartheta} = \vec{g}t$$

Jismning  $h$  balandlikdan tushgandagi tezligining moduli

$$\vartheta = \sqrt{2gh}$$

Jismning  $h$  balandlikdan tushish vaqtı

$$t = \sqrt{\frac{2h}{g}}$$

*Yuqoriga tik otilgan jismning harakati:* yuqoriga  $\vartheta_0$  boshlang'ich tezlik bilan tik otilgan jism harakati uchun ko'tarilish vaqtı va balandligi

$$t = \frac{\vartheta_0}{g} \quad h = \frac{\vartheta_0^2}{2g}$$

Jismning yerga tushgandagi oxirgi tezligi uning otilgandagi boshlang'ich tezligiga teng bo'ladi:

$$\vartheta'_t = \vartheta_0 \quad \vartheta'_t = 0 + gt$$

bunda tushish vaqtı ko'tarilish vaqtiga tengdir:

$$t' = \frac{\vartheta'_t}{g} = \frac{\vartheta_0}{g} = t$$

Biror  $h$  balandlikdan  $\vec{\vartheta}_0$  boshlang'ich tezlik bilan gorizontal otilgan jismning harakati ikkita harakatlarning kombinatsiyasi sifatida qaraladi:

$\vec{\vartheta}_0$  tezlik bilan gorizontal tekis;

$g$  tezlanish bilan vertikal tekis tezlanuvchan;

$$x = \vartheta_0 t, \quad y = \frac{gt^2}{2}.$$

Jism trayektoriyasi paraboladan iborat bo'lib, uning tenglamasi

$$y = \frac{g}{2\vartheta_0} x^2$$

ko'rnishga ega bo'ladi.

Gorizontal uchish uzoqligi;

$$S = \vartheta_0 t = \vartheta_0 \sqrt{\frac{2h}{g}}$$

Traektoriyaning barcha nuqtalaridagi oniy tezlik va uning moduli

$$\vec{v} = \vec{\vartheta}_0 + \vec{gt}, \quad v = \sqrt{\vartheta_0^2 + g^2 t^2}.$$

Gorizontga nisbatan  $\alpha$  burchak ostida  $\vartheta_0$  boshlang'ich tezlik bilan otilgan jism harakati quyidagi ikkita harakatlarning kombinatsiyasi sifatida qaraladi:

$\vec{\vartheta}_x$  tezlik bilan gorizontal tekis harakat;

Yuqoriga  $\vec{\vartheta}_y$ ; tezlik bilan vertikal otilgan jismning harakati.

Jism ko'tarilishidagi trayektoriyaning ixtiyoriy nuqtasidagi tezlik proeksiyasi

$$\vartheta_x = \vartheta_0 \cos \alpha, \quad \vartheta_y = \vartheta_0 \sin \alpha - gt.$$

Jism ko'tarilishidagi traektoriyaning barcha nuqtalaridagi oniy tezlik moduli

$$\vartheta_k = \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2} = \sqrt{(\vartheta_0 \cos \alpha)^2 + (\vartheta_0 \sin \alpha - gt)^2},$$

Jism tushishidagi traektoriyaning barcha nuqtalaridagi oniy tezlik moduli

$$\vartheta_t = \sqrt{\vartheta_{0x}^2 + (gt)^2} = \sqrt{\vartheta_0^2 \cos^2 \alpha + g^2 t^2}$$

Jismning ko'tarilish vaqtி

$$t_k = \frac{\vartheta_0 \sin \alpha}{g}$$

Jismning uchish vaqtி

$$t_{um} = \frac{2\vartheta_0 \sin \alpha}{g}$$

Bunda ham tushish vaqtி ko'tarilish vaqtiga teng bo'ladi.

Jismning uchish uzoqligi

$$S = \frac{\vartheta_0 \sin 2 \alpha}{g}$$

$$\text{Maksimal ko'tarilish balandligi} \quad h_{max} = \frac{\vartheta_0^2 \sin^2 \alpha}{2g}$$

$$\text{Moddiy nuqtaning impulsi} \quad \vec{p} = m\vec{\vartheta}$$

bu yerda  $m$ - moddiy nuqtaning massasi;  $\vec{\vartheta}$  - uning tezligi.

Nyutonning ikkinchi qonuni

$$\vec{a} = \frac{\vec{F}}{m} \quad \vec{F} = m\vec{a} = m \frac{d\vec{\vartheta}}{dt} = \frac{d\vec{p}}{dt}$$

Nyutonning uchinchi qonuni

$$\vec{F}_{1,2} = -\vec{F}_{2,1}$$

bu yerda  $F_{12}$ -birinchi moddiy nuqtaga ikkinchisi tomonidan ta'sir etayotgan kuch;  $F_{21}$ - ikkinchi moddiy nuqtaga birinchisi tomonidan ta'sir etayotgan kuch.

$$\text{Tinchlikdagi ishqalanish kuchi} \quad F_{ish}=kN$$

bu yerda  $k$  - tinchlikdagi ishqalanish koeffisienti.

$$\text{Sirpanish ishqalanish kuchi} \quad F_{ish}=kN$$

Markazga intilma kuch

$$F_{mi} = \frac{m\vartheta^2}{r}$$

bu yerda  $m$  - jism massasi;  $\vartheta$  - uning tezligi;  $r$  - aylana radiusi.

$$\text{O'g'irlilik kuchi} \quad F = mg$$

bu yerda  $m$  - jism massasi;  $g$  - erkin tushish tezlanishi.

$$\text{Jism og'irligi} \quad P = m(g \pm a)$$

bu yerda  $m$  - jism massasi;  $g$  - erkin tushish tezlanishi;  $a$  - jism tezlanishi.

$$\text{Butun olam tortishish qonuni} \quad F=G\frac{m_1m_2}{r^2}$$

bu yerda  $F$  -  $m_1$  va  $m_2$  massali moddiy nuqtalar orasidagi tortishish kuchi;  $r$ -nuqtalar orasidagi masofa;  $G$ -gravitatsion doimiy.

## Masala yechish namunalari

### 1-masala

Avtomobil yo‘lning birinchi yarmini  $\vartheta_1 = 80 \text{ km/soat}$  tezlik bilan, yo‘lning qolgan qismini esa  $\vartheta_2 = 40 \text{ km/soat}$  tezlik bilan bosib o‘tgan. Avtomobil harakatining o‘rtacha tezligi  $\bar{\vartheta}$  topilsin.

#### Yechish:

O‘rtacha tezlik quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:  $\bar{\vartheta} = \frac{s}{t}$  (1),  
bu yerda  $t = t_1 + t_2; S_1 = S_2 = \frac{s}{2}$ .

Unda  $t_1 = \frac{s}{2\vartheta_1}; t_2 = \frac{s}{2\vartheta_2}$ ,  
Bundan  $t = \frac{s(\vartheta_1 + \vartheta_2)}{2\vartheta_1 \vartheta_2}$  (2).

(2)-ni (1)-ga qo‘yib

$$\bar{\vartheta} = \frac{s \cdot 2\vartheta_1 \vartheta_2}{s(\vartheta_1 + \vartheta_2)} = \frac{2\vartheta_1 \vartheta_2}{\vartheta_1 + \vartheta_2} \quad \bar{\vartheta} = \frac{2 \cdot 80 \cdot 40}{80 + 40} \approx 53,3 \frac{\text{km}}{\text{h}}$$

ni olamiz.

### 2-masala

Moddiy nuqtaning to‘g‘ri chiziqli ( $x$  o‘qi bo‘ylab) harakati kinematik tenglamasining ko‘rinishi quyidagicha  $x = A + Bt + Ct^3$ , bu yerda,  $A=4 \text{ m}$ ,  $B=2 \text{ m/s}$ ,  $C = -0.5 \text{ m/s}^3$ . Vaqtning  $t_1=2 \text{ s}$  momenti uchun oniy tezlik  $\vartheta_1$  va oniy tezlanish  $a_1$  larni toping?

#### Yechish:

a) Harakat qonunini bilgan holda, koordinata  $x$  ni vaqt bo‘yicha differensiallab vaqtning istalgan momenti uchun oniy tezlikni aniqlash mumkin:

$$\vartheta = \frac{dx}{dt} = B + 3Ct^2,$$

Bu holda vaqtning berilgan momenti  $t_1$  da oniy tezlik quyidagicha aniqlanadi:

$$\vartheta_1 = B + 3Ct_1^2,$$

Bu ifodaga  $B, C, t_1$  larni qiymatlarini qo‘yib  $v_1$  ni hisoblab topamiz:

$$\vartheta_1 = 2 + 3 \cdot (-0,5) \cdot 4 = -4 \text{ m/s}.$$

Manfiy ishora vaqtning  $t_1 = 2$  s momentida nuqta  $x$  o‘qini manfiy yo‘nalishi bo‘ylab harakatlanayo‘tganini ko‘rsatadi.

b) Vaqtning istalgan momentidagi oniy tezlanishni  $x$  koordinatadan vaqt bo‘yicha ikkinchi tartibli hosila olib topish mumkin:

$$a = \frac{d^2x}{dt^2} = \frac{dv}{dt} = 6Ct.$$

Vaqtning  $t_1$  momentidagi oniy tezlanish:

$$a_1 = 6Ct_1$$


ga teng. Bu ifodaga C va  $t_1$  larni qiymatlarini qo‘yib hisoblaymiz:

$$a_1 = 6 \cdot (-0,5) \cdot 2 = -6 \frac{m}{s^2}$$

Manfiy ishora tezlanish vektorini yo‘nalishi koordinata o‘qining manfiy yonalishi bilan mos kelishini ko‘rsatadi.

### 3-masala

Massasi  $m=10 \text{ kg}$  bo‘lgan prujinali tarozi liftga mahkamlangan. Lift  $a=2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanmoqda. Agar liftning tezlanishi vertikal yuqori tomon yo‘nalgan bo‘lsa, tarozini ko‘rsatishini aniqlang?



1-rasm

### Yechish:

Bizga ma’lumki tarozini ko‘rsatgichi jismning og’irligiga teng, ya’ni jismni prujinaga ta’sir etuvchi kuchini aniqlash kerak (1-rasm). Lekin bu kuch Nyutonning uchinchi qonuniga binoan elastiklik kuchi (tayanchni reaksiya kuchi)  $\vec{N}$  ga absolut qiymati jihatidan teng va unga qarama-qarshi yo‘nalgan, ya’ni  $G = -N$  yoki  $G = N$ . Demak, tarozini ko‘rsatishni aniqlash masalasi bu tayanch reaksiyasini kuchi N ni aniqlash demakdir.

Jismga ikkita kuch ta'sir etadi: og'irlik kuchi  $\vec{P}$  va tayanchining reaksiya kuchi  $\vec{N}$ . Nyutonning ikkinchi qonuni tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$m\vec{a} = \vec{P} + \vec{N}$$

$x$  o'qini vertikal yo'naltirib, unga jismga ta'sir etayotgan hamma kuchlarni proeksiyalaymiz. Jismga ta'sir etuvchi ikki kuch ham  $x$  o'qiga parallel bo'lgani sababli, ularni kattaligi bilan ularni proeksiyalari kattaligi bir-biriga tengdir. Proeksiyalarni ishorasini e'tiborga olgan holda skalyar tenglama quyidagicha yoziladi:

$$ma = N - P \quad \text{bundan} \quad N = P + ma = m(g + a),$$

$$G = N \quad \text{bo'lgani uchun,} \quad G = m(g + a),$$

Bu ifodaga  $m$ ,  $g$  va  $a$  larni qiymatlarini qo'yib hisoblaymiz:


$$G = 10 \text{ kg} \cdot (10 \frac{N}{kg} + 2 \frac{N}{kg}) = 120 \text{ N}$$

Qayd etish zarurki, lift tezligining kattaligi va yo'nalishi tarozining ko'rsatishiga ta'sir etmaydi. Bu yerda faqat tezlanishning qiymati va yo'nalishi ahamiyatga ega.

#### 4-masala

Vertikal yuqoriga otilgan otilgan jism  $t = 3 \text{ s}$  dan keyin yerga qaytib tushdi. Jismning boshlang'ich tezligi qanday bo'lgan va u qanday balandlikka ko'tarilgan? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

#### Yechish:



Toshni kinematik tenglamasini yozamiz (2-rasm) :

$$y(t) = \vartheta_o t - \frac{gt^2}{2} \quad \text{va} \quad \vartheta(t) = \vartheta_o - gt.$$

Eng yo'qori ko'tarilish nuqtasida  $y(t_l) = h$ ;  $\vartheta(t_l) = 0$  bo'ladi,

$$\text{ya'ni } h = \vartheta_o t_l - gt_l^2/2 \quad \text{va} \quad 0 = \vartheta_o - gt_l,$$

bu yerda  $t_1 = \frac{t}{2}$  – ko‘tarilish balandligi.

$$\text{Bundan } \vartheta_0 = gt_1, \vartheta_0 = \frac{gt}{2}, h = gt_1^2 - \frac{gt_1^2}{2} = \frac{gt_1^2}{2}; h = \frac{gt^2}{8}.$$

Berilgan son qiymatlarni qo‘ysak:  $\vartheta_0 = 14,7 \text{ m/s}$ ;  $h = 11 \text{ m}$ .

## 5-masala

Jismning bosib o‘tgan yo‘li  $S$  ning  $t$  ga bog’liqligi quyidagi  $S = A + Bt + Ct^2 + Dt^3$  tenglama orqali berilgan, bunda  $C = 0,14 \text{ m/s}^2$  va  $D = 0,01 \text{ m/s}^3$ . Harakat boshlangandan qancha  $t$  vaqt o‘tgandan keyin jismning tezlanishi  $a = 1 \text{ m/s}^2$  ga teng bo‘ladi? Jismning shu vaqt oralig’idagi o‘rtacha tezlanishini toping.

**Yechish:**

$$\text{Oniy tezlik} \quad \vartheta = \frac{ds}{dt}.$$

$$\text{Tezlanish} \quad a = \frac{d^2s}{dt^2}.$$

Tezlik va tezlanish uchun

$$\vartheta = \frac{ds}{dt} = B + 2Ct + 3Dt^2; \quad a = \frac{d^2s}{dt^2} = 2C + 6Dt \quad \text{larni olamiz.}$$

$$\text{Bundan} \quad t = a - 2C / 6D; t = 12 \text{ s.}$$

O‘rtacha tezlanish  $\bar{a} = \Delta \vartheta / \Delta t$ .

$$\text{Tezlik} \quad \vartheta = B + 2Ct + 3Dt^2,$$

$$\text{tezlik o‘zgarishini topsak} \quad \Delta \vartheta = \vartheta_I - \vartheta_0; \Delta t = t_I - t_0,$$

$$\text{bu yerda } t_I = 12 \text{ s, } t_0 = 0. \quad \vartheta_0 = B + 2Ct_0 + 3Dt_0^2; \quad \vartheta_I = B + 2Ct_I + 3Dt_I^2,$$

$$\text{bundan} \quad \Delta \vartheta = 2C(t_I - t_0) + 3D(t_I^2 + t_0^2);$$

$$\bar{a} = \frac{2C \cdot (t_I - t_0) + 3D \cdot (t_I^2 + t_0^2)}{t_I - t_0};$$

$$\bar{a} = 2C + 3D(t_I - t_0);$$

$$\bar{a} = 0,64 \text{ m/s}^2.$$

## 6-masala

Balandligi  $h = 25 \text{ m}$  bo‘lgan minoradan tosh  $\vartheta_x = 15 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal otilgan. Toshni qancha  $t$  vaqt harakatlanadi? Minora asosidan qancha  $l$  masofada yerga tushadi? Yerga qanday  $\vartheta$  tezlik bilan tushadi? Yerga tushish nuqtasida uning traektoriyasi bilan gorizont orasidagi  $\phi$  burchak qanday bo‘ladi? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

**Yechish:**

Toshni vertikal yo‘nalishdagi ko‘chishi (3-rasm)

$$S_y = h = gt^2/2 \quad (1), \text{ gorizont bo‘ylab } S_x = l = \vartheta_x t \quad (2).$$

$$(1) \text{ tenglamadan: } t = \sqrt{\frac{2h}{g}}; t = 2,26 \text{ s.}$$

$$(2) \text{ tenglamadan: } l = \vartheta_x t; l = 33,9 \text{ m.}$$

$$\text{Toshning tezligi } \vartheta = \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2}.$$

$$\text{Tezlikni vertikal tashkil etuvchisi } \vartheta_y = gt.$$

Demak

$$\vartheta = \sqrt{\vartheta_x^2 + (gt)^2}.$$


Qidirilayotgan burchak  $\varphi - \vartheta$  tezlik yo‘nalishi bilan uning gorizontal tashkil etuvchisi  $\vartheta_x$  yo‘nalishi orasidagi burchakdir. 3-rasmdan ko‘rinadiki

$$\cos\varphi = \vartheta_x / \vartheta; \cos\varphi = \frac{\vartheta_x}{\sqrt{\vartheta_x^2 + (gt)^2}}; \cos\varphi = 0,56; \varphi \approx 56^\circ.$$

## 7-masala

Tosh gorizontal yo‘nalishda  $\vartheta_x = 15 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgandan  $t=1 \text{ s}$  o‘tgach uning  $a_n$  normal va  $a_\tau$  tangensial tezlanishlari topilsin.

Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.




## Yechish:

Toshning to‘liq tezlanishi

$$a = g; \quad a = \sqrt{a_n^2 + a_\tau^2}.$$

$$\text{To‘liq tezligi} \quad \vartheta = \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2}.$$



$$\text{4-rasmdan ko‘rinadiki} \quad \cos\alpha = \vartheta_x / \vartheta = a_n/g;$$

$$\sin\alpha = \vartheta_y / \vartheta = a_\tau / g$$


$$\text{Unda} \quad a_n = g \vartheta_x / \vartheta = g \vartheta_x / \sqrt{\vartheta_x^2 + (gt)^2}; \quad a_\tau = g \vartheta_y / \vartheta = g^2 t / \sqrt{\vartheta_x^2 + (gt)^2};$$

$$a_n \approx 8,2 \text{ m/s}^2, \quad a_\tau \approx 5,4 \text{ m/s}^2.$$

## 8-masala

Koptok gorizontga nisbatan  $\alpha = 40^\circ$  burchak ostida  $\vartheta_0 = 10 \text{ m/s}$  boshlang’ich tezlik bilan otilgan. Koptok qanday  $h$  balandlikka ko‘tariladi? Koptok otilgan joyidan qanday  $l$  masofaga borib yerga tushadi? Koptok qancha  $t$  vaqt harakatlanadi? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

## Yechish:



Koptokni vertikal yo‘nalishdagi ko‘chishi (5-rasm)

$$S_y = (\vartheta_0 \sin\alpha) \cdot t - gt^2 / 2 \quad (1).$$

Tezlikni vertikal tashkil etuvchisi

$$\vartheta_y = \vartheta_0 \sin\alpha - gt \quad (2).$$

$$\text{Koptokni gorizontal yo‘nalishdagi ko‘chishi} \quad S_x = (\vartheta_0 \cos\alpha) t \quad (3).$$

$$\text{Vaqtni } t = t_1 \text{ qiymatida } S_y = h, \vartheta_y = 0, \text{ natijada (2) dan } \vartheta_0 \sin\alpha = gt_1 \quad (4),$$

$$(1) \text{ dan:} \quad h = (\vartheta_0 \sin\alpha) \cdot t_1 - gt_1^2 / 2 \quad (5).$$

(4) dan qiymatini topib, (5) ga qo‘ysak:

$$t_1 = \frac{\vartheta_0 \sin \alpha}{g}; h = \frac{\vartheta_0^2 \sin^2 \alpha}{g} - \frac{g \vartheta_0^2 \sin^2 \alpha}{2g^2} = \frac{\vartheta_0^2 \sin^2 \alpha}{2g}; \quad h \approx 2 \text{ m}.$$

Vaqtni  $t = 2t_1$  qiyamatida  $S_x = l$  bo‘ladi.

Unda koptokni to‘liq uchush vaqtini  $t = \frac{2\vartheta_0 \sin \alpha}{g}$  bo‘ladi.


Bundan  $t \approx 1,3$  s chiqadi.

(3) tenglamadan  $l = (\vartheta_0 \cos \alpha) \cdot t$  va  $l \approx 10$  m bo‘ladi.

## 9-masala

Jism gorizontga nisbatan  $\alpha = 45^\circ$  burchak ostida  $\vartheta_0 = 10 \text{ m/s}$  boshlang’ich tezlik bilan otilgandan  $t=1 \text{ s}$  o‘tgach, jism traektoriyasining egrilik radius  $R$  topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

**Yechish:**



6-rasm.

Jismni traektoriyaning eng yo‘qari nuqtasiga ko‘tarilish vaqtini topamiz (6-rasm). Uning tezligini vertikal tashkil etuvchisi

$$\vartheta_y = \vartheta_0 \sin \alpha - gt_1.$$

Traektoriyaning yuqori nuqtasida  $\vartheta_y = 0$ , natijada  $\vartheta_0 \sin \alpha = gt_1$ ,

bundan  $t_1 = \frac{\vartheta_0 \sin \alpha}{g}$ ;  $t_1 = 0,7 \text{ s}$ , ya’ni  $t = 1 \text{ s}$  bo‘lganda jism tushayotgan

bo‘ladi.

Shunga asosan jismni  $\vartheta_x = \vartheta_0 \cos \alpha$  tezlik bilan gorizontal otildan deb qarash mumkin. Jismni normal tezlanishi  $a_n = \frac{\vartheta^2}{R}$ ,

bu yerda  $\vartheta = \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2}$ .

Ma’lumki

$$a_n = g \sin \varphi; \sin \varphi = \frac{\vartheta_x}{\sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2}}.$$

Unda  $a_n = g \frac{\vartheta_x}{\sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2}}$  va  $R = \frac{\vartheta^2}{a_n} = \frac{(\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2) \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2}}{\vartheta_x g}$ .

$\vartheta_x$  va  $\vartheta_y$  larni alohida-alohida hisoblaymiz:

$$\vartheta = \vartheta_0 \cos \alpha = 5\sqrt{2} \text{ m/s}; \quad \vartheta_y = g(t - t_1) = 3 \text{ m/s}.$$


Tezliklarni topilgan son qiymatlarini qo‘yib R ni qiymatini topamiz

$$R \approx 6,3 \text{ m.}$$

## 10-masala

Balandligi  $h_o = 25 \text{ m}$  bolgan minoradan gorizontga  $\alpha = 30^\circ$  burchak ostida  $\vartheta_0 = 15 \text{ m/s}$  tezlik bilan tosh otilgan(7-rasm). Tosh qancha vaqt harakatda bo‘ladi? U minora asosidan qancha uzoqlikda yerga tushadi? U qanday tezlik bilan yerga tushadi? Toshni yerga tushish nuqtasida uning traektoriyasi gorizont bilan qanday burchak hosil qiladi? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

**Yechish:**



7-rasm.

Biror  $h_o$  balandlikdan gorizontga  $\alpha$  burchak ostida otilgan jismning harakatini(7-rasm) ikki etapga bo‘lish mumkin: jismni eng yo‘qari A nuqtagacha harakati va jismni A nuqtadan gorizontal yo‘nalishda  $\vartheta_x = \vartheta_0 \cos \alpha$  tezlik bilan otilgan harakati.

Jismni ko‘tarilish balandligi  $S_y = AC = h_o + h = h_o + \frac{(\vartheta_0 \sin \alpha)^2}{2g}$ .

Toshni umumiylar harakat vaqtini  $t = t_1 + t_2$ , bu yerda  $t_1 = \frac{(\vartheta_0 \sin \alpha)}{g}$  – toshni  $h$

balandlikka ko‘tarilish vaqtি va  $t_2 = \sqrt{\frac{2s_y}{g}}$  - toshni tushish vaqtি. Masala shartida berilgan kattaliklarnи qo‘yib  $S_y=27,9\text{ m}$ ,  $t_1 = 0,77\text{ s}$ ,  $t_2 = 2,39\text{ s}$ ;  $t=3,16\text{ s}$  larni olamiz.

Minora asosidan toshni yerga tushgan joygacha bo‘lgan masofа

$$l=OD=OC+CD,$$

bu yerda  $OC = \frac{OE}{2} = \frac{(\vartheta_o^2 \sin 2\alpha)}{2g} \approx 10\text{ m}$ ,  $CD = \vartheta_x t_2 = \vartheta_o t_2 \cos \alpha = 31,1\text{ m}$ ;

Bundan  $l = OC+CD=41,1\text{ m}$ .

Tezlik  $\vartheta = \sqrt{\vartheta_x^2 + \vartheta_y^2}$ , bu yerda  $\vartheta_x = \vartheta_o \cos \alpha = 13\text{ m/s}$ ,  $\vartheta_y = gt_2 = 23,4\text{ m/s}$ ; bundan  $\vartheta = 26,7\text{ m/s}$ .

Toshni yerga tushish nuqtasida uning traektoriyasi gorizont bilan hosil qilgan burchagi  $\varphi$ ,  $\vartheta_y = \vartheta_x \tan \varphi$  formuladan topiladi,

Bundan  $\tan \varphi = \frac{\vartheta_y}{\vartheta_x} = 1.8$  va  $\varphi = 61^\circ$ .

## 11-masala

Avtomobilning massasi  $m = 1t$ . Avtomobil harakatlanayotganda unga o‘z og’irligi ( $mg$ ) ning 0,1 qismiga teng bo‘lgan  $F_{ish}$  ishqalanish kuchi ta’sir qiladi. Avtomobil a) tekis; b)  $a = 2\text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanganda motorning tortish kuchi qancha bo‘lishi kerak?

### Yechish:

- a) Tekis harakatda  $a = 0$ , hatijada Nyutonning ikkinch qonuniga asosan harakat tenglamasini yozamiz:  $F - F_{ish} = 0$ ,  
bundan  $F - F_{ish} = 0,1mg$ ;  $F = 980N$ .
- b) Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan:  $F - F_{mp} = ma$ ,  
bundan  $F = ma + F_{ish} = m \cdot (a + 0,1g)$ ;  $F = 2,98kN$ .

## 12-masala

Massasi  $m = 500 \text{ t}$  bo‘lgan poezd tekis sekinlanuvchan harakat qilib,  $t = 1 \text{ min}$  davomida tezligini  $\vartheta_1 = 40 \text{ km/h}$  dan  $\vartheta_2 = 28 \text{ km/h}$  gacha kamaytirdi. Tormozlash kuchi  $F$  topilsin.

**Yechish:**

Nyutonning ikkinchi qonunini quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz:  $\vec{F} = \frac{\Delta \vec{p}}{\Delta t}$ , bundan  $\Delta \vec{p} = \vec{F} \Delta t$  yoki  $m \Delta \vec{\vartheta} = \vec{F} \Delta t$ . Oxirgi tenglamani harakat yo‘nalishiga proeksiyalab quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin

$$m(\vartheta_2 - \vartheta_1) = -F \Delta t.$$

Bundan  $\Delta t = t$  deb olsak  $F = \frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{t}$  bo‘ladi. Bunga berilgan son qiymatlarni qo‘yib F ni qiymatini topamiz:  $F = 27,5 \cdot 10^3 \text{ N}$ .


## 13-masala

Massalari  $m_1 = 2 \text{ kg}$  va  $m_2 = 1 \text{ kg}$  bo‘lgan toshlar bir-biriga ip bilan bog’lanib, vaznsiz blokka osilgan. Toshlarni harakat tezlanishi va ipni taranglik kuchi topilsin. Blokka bo‘lgan ishqalanish hisobga olinmasin.

**Yechish:**

Ipni cho‘zilmas va vaznsiz deb olamiz.

Ipning  $\Delta m$  elementini tanlaymiz va harakat tenglamasini y o‘qiga proeksiyasini yozib olamiz(8-rasm):  $\Delta m a = T - T_x$ . Ma’lumki  $\Delta m = 0$ , unda  $T = T_x$ , ya’ni ipning taranglik kuchi barcha nuqtalarda bir xil bo‘ladi.



8-rasm.

Yuklarni harakat tezlanishlari ham bir xil bo‘ladi, chunki ipni cho‘zilamas deb olsak bir xil vaqtda yuklar bir xil masofaga ko‘chadi, ya’ni  $S_1 = \frac{a_1 t^2}{2}$ ;  $S_2 = \frac{a_2 t^2}{2}$ ; Bundan ko‘rinadiki  $S_1 = S_2$ , shu sababli

$a_1=a_2$ , ammo  $a_1$  va  $a_2$  tezlanishlar qarama-qarshi yo‘nalgan. Birinchi va ikkinchi yuklar uchun Nyutonning ikkinchi qonunini y o‘qqa proeksiyalarini yozib olamiz:

$$m_1g - T = m_1a \quad (1);$$

$$m_2g - T = -m_2a \quad (2).$$

(2) ni (1) dan ayiramiz:  $a(m_1 + m_2) = g(m_1 - m_2)$ ,

bundan  $a = \frac{g(m_1 - m_2)}{m_1 + m_2}$  (3).

(3) ni (1) ga qo‘yamiz  $\frac{m_1g(m_1 - m_2)}{m_1 + m_2} = m_1g - T$ ,

natijada  $T = m_1g \cdot \left(1 - \frac{m_1 - m_2}{m_1 + m_2}\right)$ ;  $T = m_1g \cdot \left(\frac{m_1 + m_2 - m_1 + m_2}{m_1 + m_2}\right)$ ;

$T = m_1g \cdot \left(\frac{2m_2}{m_1 + m_2}\right) = \left(\frac{2gm_1m_2}{m_1 + m_2}\right)$  ni olamiz.

Son qiymatlarini qo‘yib  $T = 13 N$ ;  $a = 3,27 m/s$  larni olamiz .

## 14-masala


Vaznsiz blok stolning qirrasiga mahkamlangan. Massalari  $m_1=m_2=1kg$  dan bo‘lgan 1 va 2 toshlar bir-biriga ip bilan birlashtirilib, blokka osilgan. 2 toshni stolga ishqalanish koeffisienti  $\mu = 0,1$  ga teng. Toshlarning harakat tezlanishi  $a$  hamda ipning taranglik kuchi  $T$  topilsin. Blokdagi ishqalanish hisobga olinmasin.

### Yechish:

Jismlarning har ikkalasi uchun ham Nyutonning ikkinchi qonunini ularning harakat yo‘nalishlariga proeksiyalarini yozib olamiz(9-rasm):

$$m_1g - T_1 = m_1a \quad (1)$$

$$T_2 - F_{ish} = m_2a \quad (2)$$



9-rasm.

$T_1 = T_2 = T$  ekanligini bilamiz.

$F_{ish} = \mu m_2 g$  ni hisobga olib (1) va (2) larni qo'shamiz:

$$m_1 g - \mu m_2 g = a(m_1 + m_2),$$

bundan  $a = g \frac{m_1 g - \mu m_2 g}{m_1 + m_2}$  (3);

$$a = 4,4 \text{ m/s.} \quad (3) \text{ va (1) lardan:}$$

$$T = m_1(g - a); \quad T = m_1\left(g - g \frac{m_1 - \mu m_2}{m_1 + m_2}\right);$$

$$T = m_1 g \left(1 - \frac{m_1 - \mu m_2}{m_1 + m_2}\right);$$

$$T = m_1 g \left(\frac{m_1 + m_2 - m_1 + \mu m_2}{m_1 + m_2}\right);$$

$$T_1 = m_1 g \frac{m_2 (1 + \mu)}{m_1 + m_2}; \quad T_2 = g \frac{m_1 m_2 (1 + \mu)}{m_1 + m_2}.$$


son qiymatlarini qo'shib, quyidagini olamiz:

$$T_1 = T_2 = g \frac{m_1 m_2 (1 + \mu)}{m_1 + m_2} = 5,4 N.$$

## 15-masala

Ipga osilgan  $m = 1 \text{ kg}$  massali yuk  $\alpha = 30^\circ$  burchakka og'dirildi. Ipnинг yuk muvozanat vaziyatdan o'tayotgan paytdagi taranglik kuchi topilsin.

**Yechish:**



10-rasm.

Jism muvozonat vaziyatdan o'tayotgan paytda (10-rasm) Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan

$$ma_n = T - mg \text{ yoki } m \frac{\vartheta^2}{l} = T - mg, \text{ bundan}$$

$$T = mg + \frac{m\vartheta^2}{l}, \text{ bu yerda } l \text{ — ipning uzunligi.}$$

$$\text{Bundan tashqari, } mgh = \frac{m\vartheta^2}{2}, \text{ bundan } \vartheta = \sqrt{2gh}.$$

Rasmdan  $h = l - l \cos \alpha = l(1 - \cos \alpha)$ .

Unda  $\vartheta = \sqrt{2gl(1 - \cos \alpha)}$ ,


va  $\frac{m\vartheta^2}{l} = \frac{m}{l} 2gh = \frac{m}{l} 2gl(1 - \cos \alpha) = 2mg(1 - \cos \alpha)$

taranglik kuchi  $T = mg(1 + 2(l - \cos \alpha)) = 12,4 N$ .

## 16-masala

Uzunligi  $l = 25 cm$  bo‘lgan ipga bog’langan  $m = 50 g$  massali toshcha gorizontal tekislikda aylana chizadi. Toshchaning aylanish chastotasi  $n = 2 \text{ ayl/s}$  ga teng. Ipning taranglik kuchi T topilsin.

**Yechish:**



Gorizontal tekislikda toshchaga  $F = Tsina$  kuch ta’sir etadi (11-rasm). Unda Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan  $Tsina = ma_n$ , bu yerda  $\sin \alpha = \frac{R}{l}$ .  
 $a_n = \omega^2 R = (2\pi n)^2 R$  ekanligini hisobga olib yozamiz:  $m(2\pi n)^2 R = T \frac{R}{l}$ , bundan  $T = ml(2\pi n)^2$ ;  $T = 1,96 N$ .

11-rasm.

## Variantlar jadvali

<b>Variant raqami</b>	<b>Masalalar raqami</b>					<b>Variant raqami</b>	<b>Masalalar raqami</b>			
<b>1</b>	4	53	101	151	<b>26</b>	21	76	117	153	
<b>2</b>	3	52	102	152	<b>27</b>	22	77	118	155	
<b>3</b>	2	51	103	154	<b>28</b>	23	78	119	156	
<b>4</b>	1	54	104	158	<b>29</b>	24	79	120	157	
<b>5</b>	7	55	105	159	<b>30</b>	34	80	127	161	
<b>6</b>	5	68	106	160	<b>31</b>	35	81	128	162	
<b>7</b>	6	69	107	169	<b>32</b>	36	82	129	163	
<b>8</b>	10	67	108	170	<b>33</b>	37	83	130	164	
<b>9</b>	8	66	109	173	<b>34</b>	31	84	131	165	
<b>10</b>	9	65	110	176	<b>35</b>	32	85	132	166	
<b>11</b>	13	56	111	179	<b>36</b>	33	86	133	167	
<b>12</b>	11	57	112	180	<b>37</b>	30	87	134	168	
<b>13</b>	12	58	113	183	<b>38</b>	44	89	135	171	
<b>14</b>	15	59	114	184	<b>39</b>	45	88	136	172	
<b>15</b>	14	60	115	185	<b>40</b>	47	98	137	174	
<b>16</b>	20	61	116	188	<b>41</b>	48	94	138	175	
<b>17</b>	19	62	121	193	<b>42</b>	49	95	142	177	
<b>18</b>	16	63	122	195	<b>43</b>	22	96	143	178	
<b>19</b>	17	64	123	196	<b>44</b>	40	90	144	181	
<b>20</b>	18	72	124	150	<b>45</b>	39	91	145	182	
<b>21</b>	25	71	125	196	<b>46</b>	38	92	146	186	
<b>22</b>	26	70	156	198	<b>47</b>	41	97	147	187	
<b>23</b>	27	73	139	197	<b>48</b>	42	98	148	189	
<b>24</b>	28	74	140	194	<b>49</b>	43	99	143	190	
<b>25</b>	29	75	141	192	<b>50</b>	45	50	100	191	

## **Mustaqil ishlash uchun masalalar**

1. Reaktiv samolyot 10 soniya davomida  $540$  dan  $900 \text{ km/h}$  gacha tezlikni oshirdi. Bu vaqt ichida samolyot qanday tezlanish bilan ( $\text{m/s}^2$ ) harakatlangan?
2. Jism  $x = 2t^2 + 3t + 10$  (m) tenglamaga muvofiq harakat qiladi.  $t = 2$  sekund bo‘lgan vaqt momentida jismning tezligi (m/s) qanday?
3. Harakatlanayotgan moddiy nuqta koordinatasining tenglamasi  $x = -20 + 5t - 0,2t^2$  ko‘rinishda. Tezlik tenglamasini ko‘rsating.
4. Jism  $x = 5t - 0,25t^2$  qonunga muvofiq harakat qiladi. Dastlabki  $4$  s ichida jism bosgan yo‘lni (m) aniqlang?
5. Nuqta to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakatlanganda uning koordinatalari  $x = 9t + 0,09t^3$  qonun bo‘yicha o‘zgaradi. Nuqta harakatining  $5$  s dagi o‘rtacha tezligini toping?
6. Ikkita poezd  $54$  va  $36 \text{ km/h}$  tezliklarda bir-biriga yaqinlashmoqda. Birinchi poezddagi yo‘lovchi ikkinchi poezdni uning yonidan  $10$  s davomida o‘tishini aniqladi. Ikkinchi poezdning uzunligi(m) qancha?
7. Nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakati  $x = 2t + 0,5t^2$  tenglama asosida yuz beradi. Nuqtaning harakatini 1-sekunddan 3-sekundgacha bo‘lgan vaqt intervalida o‘rtacha tezligi toping?
8.  $\tau$  vaqt ichida jismning tezligi  $\vartheta = at^2 + bt$  ( $0 \leq t \leq \tau$ ) qonun bo‘yicha o‘zgargan.  $\tau$  vaqt oralig‘ida jismning o‘rtacha tezligini toping?
9. Moddiy nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakati  $x = 6t + 0,126t^3$  tenglama bilan ifodalanadi. Jismning 2-sekunddan 6-sekundgacha bo‘lgan vaqt oralig‘idagi o‘rtacha tezligini toping?

- 10.** Nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakat tenglamasi  $x = -1 + 3t^2 - 2t$  ko‘rinishda. Nuqta to‘xtaguncha ketgan vaqt ichidagi o‘rtacha tezligini toping?
- 11.** Nuqta  $15\text{ s}$  davomida  $5\text{ m/s}$  tezlik bilan,  $10\text{ s}$  davomida  $8\text{ m/s}$  tezlik bilan va  $6\text{ s}$  davomida  $20\text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlandi. Nuqtaning o‘rtacha harakat tezligini toping?
- 12.** Nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakatida uning koordinatasi  $x = 9t + 0,09t^3$  qonuni bilan o‘zgaradi. Harakatning birinchi  $4\text{ s}$  davomidagi o‘rtacha tezlanishini toping?
- 13.** Jism balkondan  $10\text{ m/s}$  tezlik bilan vertikal ravishda yuqoriga otildi. Balkonning yer sirtidan balandligi  $12,5\text{ m}$ . Jismni harakat tenglamasini yozing va uning otilgan momentdan to yerga tushgunga qadar o‘rtacha tezligini toping?
- 14.** Moddiy nuqtaning harakat tenglamasi  $x = 3t + 0,06t^3$  ko‘rinishga ega. Harakatning birinchi  $3\text{ s}$  davomidagi o‘rtacha tezlik va tezlanishni toping?
- 15.** Jism to‘g‘ri chiziq bo‘ylab  $S = 6 - 3t + 2t^3$  tenglama asosida harakat qiladi. Jism harakatini 1-sekundidan 4-sekundigacha o‘rtacha tezlanishni toping?
- 16.** Bir joydan ikki jism bir yo‘nalishda tekis tezlanuvchan harakatlana boshladi. Ikkinci jism o‘z harakatini birinchiga qaraganda  $2\text{ s}$  kech boshladi. Birinci jism  $1\text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlik bilan va  $2\text{ m/s}^2$  tezlanish bilan, ikkinchi nuqta esa  $10\text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlik va  $1\text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakat qilsa. Qancha vaqtdan so‘ng ikkinchi jism birinchisini quvib yetadi?

- 17.** Bir vaqtning o‘zida, bir nuqtadan ikkita jism bir yo‘nalishda harakat boshladi. Biri  $980 \text{ m/s}$  tezlik bilan tekis, ikkinchisi esa boshlang‘ich tezliksiz  $9,8 \text{ cm/s}^2$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakat qiladi. Qancha vaqtdan so‘ng ikkinchi jism birinchisini quvib o‘tadi?
- 18.** A jism  $v'_o$  boshlangich tezlik bilan harakat boshlab,  $a_1$  tezlanish bilan harakatlanmoqda. A jism bilan bir vaqtning o‘zida  $v$  jism ham  $v''_o$  boshlangich tezlik bilan va  $a_2$  manfiy tezlanish bilan harakat boshlaydi. Harakat boshlangandan qancha vaqt o‘tgach ikkala jism ham bir xil tezlikka erishadi?
- 19.** Bir punktdan bir vaqtda, bir xil yo‘nalishga to‘g‘ri chiziq bo‘ylab ikkita avtomashina harakatlana boshlaydi. Avtomobillarni vaqtga bog‘liq ravishda bosib o‘tgan yo‘llari  $S_1 = at + bt^2$  va  $S_2 = ct + dt^2 + rt^3$  tenglamalar bilan ifodalanadi. Avtomobillarning nisbiy tezliklarini toping?
- 20.** Uzunligi  $120 \text{ m}$  bo‘lgan poezd parallel yo‘lda  $9 \text{ km/h}$  tezlik bilan ketayotgan velosipedchini  $6 \text{ s}$  da quvib o‘tgan bo‘lsa, poyezning tezligi qanday?
- 21.** Jismning to‘gri chiziqli harakat tezligini vaqtga bog‘liqligi  $\vartheta = 2 - 6t + 12t^2$  tenglama bilan berilgan. Agar boshlang‘ich momentda koordinatalar boshida bo‘lgan bo‘lsa, jism bosib o‘tgan yo‘lni vaqtga bog‘liqligi topilsin?
- 22.** Jism bosib o‘tgan yo‘lni vaqtga bog‘liqligi  $S = 2t - 3t^2 + 4t^3$  tenglama bilan berilgan. Tezlikni vaqtga bog‘liqligi va harakat boshlangandan so‘ng  $2 \text{ s}$  o‘tgach uning qiymati aniqlansin?

- 23.** Moddiy nuqta tezligining vaqtga bog‘liqligi  $\vartheta=6t$  tenglama bilan berilgan. Agar boshlangich momentda harakatlanuvchi nuqta koordinatlar boshida bo‘lgan bo‘lsa,  $x = f(t)$  bog‘lanishni yozing?
- 24.** To‘gri chiziqli harakat  $x = -1 + 3t^2 - 2t^3$  tenglama bilan ifodalanadi (SI birliklarda). Tezlik va tezlanish tenglamalari yozilsin?
- 25.** Moddiy nuqtaning harakat qonuni  $S = 2t + 0,04t^3$  ko‘rinishga ega. Nuqtaning boshlangich momentidagi tezlik va tezlanishi topilsin?
- 26.** Nuqtaning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakati  $x = 2t - 0,5t^2$  tenglama bilan berilgan. Harakat boshlangandan qancha vaqtdan so‘ng nuqta to‘xtaydi?
- 27.** Jismning bosib o‘tgan yo‘lining vaqtga bog‘liqligi tenglamasi  $S = A + Bt + Ct^2 + Dt^3$  bilan beriladi, bu yerda  $C=0.14 \text{ m/s}^2$  va  $D=0.01\text{m/s}^3$ . Harakat boshlangandan qancha vaqtdan so‘ng jismning tezlanishi  $1 \text{ m/s}^2$  ga teng bo‘ladi?
- 28.** Ikki moddiy nuqtalar harakati tenglamalari  $x_1 = 20 + 2t - 4t^2$  va  $x_2 = 2 + 2t + 0,5t^3$  bilan ifodalanadi (uzunlik - metrlarda, vaqt - sekundlarda). Vaqtning qanday momentida bu nuqtalarning tezliklari tenglashadi?
- 29.** Liftning harakat tenglamasi  $S = 15t + 2t^2$  ga asosan, uning tezligini vaqtga bog‘lanishini toping?
- 30.** Jismni to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakat qonuni  $x = 8t - 2t^3$  tenglama bilan berilgan. Vaqtning qanday momentida jismning tezligi nolga tenglashadi?
- 31.** Jismni to‘gri chiziq bo‘ylab harakat qonuni  $x = 2t - 3t^2 + 4t^3$  formula ko‘rinishida yoziladi. Tezlanishni vaqtga bog‘lanishi va uning harakat boshidan 2 s o‘tgach qiymati topilsin?

- 32.** Nuqtaning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakati  $x = 4t - 0,05t^2$  tenglama bilan berilgan. Vaqtini qanday momentida nuqta tezligi nolga teng bo‘ladi?
- 33.** Moddiy nuqtaning harakati  $x = (4t - 0,05t^2)cm$  tenglama bilan berilgan. Nuqtaning tezligi nolga teng bo‘lgan momentda, uning koordinatasi topilsin?
- 34.** Ikki moddiy nuqtalar  $x_1 = 10 + 32t - 3t^2$  va  $x_2 = 2 + 5t^2$  tenglamalar bilan harakathlanmoqda. Vaqtning qaysi momentida ularning tezligi tenglashadi?
- 35.** Nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakati  $x = -1 + 3t^2 - 2t^3$  tenglama bilan ifodalanadi. Nuqta to‘xtagunga qadar qancha vaqt harakat qiladi?
- 36.** Ikki jismni to‘g‘ri chiziqli harakati  $x_1 = 4t + 8t^2 - 16t^3$  va  $x_2 = 2t - 4t^2 + t^3$  tenglamalarga binoan bo‘lmoqda. Vaqtning qanday momentida bu jismlarni tezlanishlari tenglashadi?
- 37.** Ikki moddiy nuqtalarning tezliklari  $\vartheta_1 = 2 + 4t$  va  $\vartheta_2 = 2t + 2t^2$  qonun asosida o‘zgaryapti. Harakat boshlangandan qancha vaqtdan so‘ng nuqtalarning tezlanishi tenglashadi?
- 38.** Moddiyy nuqtaning harakat tenglamasi  $x = 8t + 0,06t^3$  ko‘rinishga ega. Harakat boshlangandan so‘ng qanday vaqt oralig‘ida nuqtaning o‘rtacha tezlanishi  $0,54 m/s^2$  ga teng bo‘ladi?
- 39.** Jismni bosib o‘tgan yo‘lining vaqtga bog‘lanishi  $S = A + Bt + Ct^2 - 2Dt^3$  tenglama bilan berilgan, bu yerda  $C = 0,14 m/s$  va  $D = 0,01 m/s^3$ . Harakat boshlangandan qancha vaqtdan so‘ng jismning tezlanishi  $1 m/s^2$  ga teng bo‘ladi?

- 40.** Nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakati  $S = 2t^3 - 10t^2 + 8$  tenglama bilan ifodalanadi. Vaqtning  $t=4$  s momentdagи jismni tezlik va tezlanishi topilsin?
- 41.** Jismning harakati  $S = At^4 + Bt^2 + 72$  tenglama bilan ifodalanadi. Agar  $A=0,25 \text{ m/s}^4$  va  $B=3 \text{ m/s}^2$  bo‘lsa, jismning maksimal tezligi topilsin?
- 42.** Nuqta  $x = 7 + 4t$ ;  $y = 2 + 3t$  tenglamalar asosida harakatlanmoqda. Nuqtaning harakat tezligi qanday?
- 43.** Nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakati  $S = 4t^4 + 2t^2 + t$  tenglama bilan ifodalanadi. Vaqtning  $t=2$  s momentdagи nuqtani tezlik va tezlanishini hamda harakatning birinchi  $2$  s dagi o‘rtacha tezligi topilsin?
- 44.** Jismning bosib o‘tgan yo‘li  $S = 4 + 2t + 5t^2$  tenglama bilan berilgan. Uning birinchi  $3$  s dagi tezlikning vaqtga boglanish grafigini chizing.
- 45.** Nuqtaning egri chiziq bo‘ylab harakati  $x = t^3$  va  $y = 2t$  tenglamalar bilan berilgan. Nuqta trayektoriyasining tenglamasi topilsin?
- 46.** Moddiy nuqtaning harakati  $y = 1 + 2t$ ;  $x = 2 + t$  tenglamalar bilan berilgan. Trayektoriyani  $y = y(x)$  tengamasini tuzing va trayektoriyani  $XOY$  tekislikda chizing.  $t=0$  dagi nuqtaning o‘rni, yo‘nalishi va harakat tezligi ko‘rsatilsin?
- 47.** Tosh  $h=1200 \text{ m}$  balandlikdan erkin tushdi. Tosh harakatining oxirgi sekundida bosib o‘tgan yo‘lini topining?
- 48.** Jism  $h=45 \text{ m}$  balandlikdan boshlangich teziksiz tushadi. Yo‘lining ikkinchi yarmidagi o‘rtacha tezligini toping?

- 49.** Jism biror balandlikdan  $\vartheta_0=30$   $m/s$  boshlang‘ich tezlik bilan tik ravishda yuqoriga otilgan.  $t=10$   $s$  o‘tgach jismning koordinatasi  $h$  va tezligi  $v$ , hamda shu vaqt oralig’ida bosib o‘tilgan yo‘li topilsin?
- 50.** Tik ravishda yuqoriga otilgan jism  $h=8,6$   $m$  balandlikda  $\Delta t=3$   $s$  vaqt oralab ikki marta bo‘lgan. Havoning qarshiligini hisobga olmasdan, otilgan jismning boshlang‘ich tezligi topilsin?
- 51.** Jism balkondan tik ravishda  $\vartheta_0=20$   $m/s$  tezlik bilan otilgan. Balkonning yer sirtidan balandligi  $h=12,5$   $m$ . Harakat tenglamasi yozilsin va otilgan momentdan to yerga tushgunga qadar o‘rtacha tezligi aniqlansin?
- 52.** Jism qiya tekislikdan ishqalanishsiz sirpanib tushadi. Agar jismning birinchi  $0,5$   $s$  dagi o‘rtacha tezligi  $1,5$   $s$  dagidan  $2,45$   $m/s$  ga kichik bo‘lsa, qiyalik burchagi qanchaga teng?
- 53.** Jism gorizontga nisbatan  $\alpha_0$  burchak ostida  $\vartheta_0$  tezlik bilan otilgan. Koordinatalarning vaqtga bog‘lanish va trayektoriyaning tenglamasi topilsin?
- 54.** Jism gorizontga nisbatan biror  $\alpha_0$  burchak ostida otilgan. Agar jismning gorizontal yo‘nalishda uchib o‘tgan yo‘li  $S$ , uning trayektoriyasini maksimal balandligi  $h$  dan to‘rt marta kichik bo‘lsa, shu burchakning kattaligi topilsin?
- 55.** Nuqta aylana bo‘ylab  $S=4t^2$  tenglamaga asosan harakatlanmoqda. Harakat boshlangandan so‘ng  $0,5$   $s$  vaqt o‘tgach, harakatning tangensial tezlanish normal tezlanishga teng bo‘ldi. Aylananing radiusi topilsin?
- 56.** Minoradan gorizontal yo‘nalishda  $15$   $m/s$  tezlik bilan tosh otilgan. Tangensial va normal tezlanishlar teng bo‘lgan momentda trayektoriyani egrilik radiusi topilsin?

- 57.** Jism gorizontal yo‘nalishda  $12 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan. Jismning tezligi  $20 \text{ m/s}$  bo‘lgan momentda trayektoriyaning egrilik radiusi topilsin?
- 58.** Nuqtaning egri chiziq bo‘ylab harakati  $S = 2 - 4t^2 + t^3$  qonun bilan ifodalanadi. Harakatning 4-sekundida agar normal tezlanish  $a_n = 6 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$  ga teng bo‘lsa, shu momentdagi trayektoriyani egrilik radiusi topilsin?
- 59.** Nuqta radiusi  $10 \text{ m}$  bo‘lgan aylananing yoyi bo‘ylab harakatlanmoqda. Vaqtning biror momentida nuqtani normal tezlanishi  $4 \text{ m/s}^2$  ga teng. Shu momentda to‘liq tezlanish vektori normal tezlanish vektori bilan  $60^\circ$  burchak hosil qiladi. Nuqtaning tezligi va tangensial tezlanishi topilsin?
- 60.** Nuqta egri chiziq bo‘ylab  $a_\tau = 0,5 \text{ m/s}^2$  ga teng bo‘lgan o‘zgarmas tangensial tezlanish bilan harakatlanmoqda. Agar nuqtaning egri chizig‘i radiusi  $3 \text{ m}$  bo‘lgan uchastkasida tezligi  $2 \text{ m/s}$  bo‘lgan bo‘lsa, uning shu uchastkadagi to‘liq tezlanishi topilsin?
- 61.** Minoradan gorizontal yo‘nalishda  $14 \text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlik bilan tosh otilgan. Necha sekunddan so‘ng toshni tangentsial tezlanishi  $0,6 \text{ m/s}^2$  ga teng bo‘ladi? Havoning qarshiligi e’tiborga olinmasin?
- 62.** Jism gorizontga nisbatan  $\alpha_o$  burchak ostida  $\vartheta_o$  tezlik bilan otilgan. Agar trayektoriyani eng yuqori nuqtasida egrilik radiusi  $5 \text{ m}$  bo‘lsa, jismni qanday burchak ostida otilganligi aniqlansin?
- 63.** Jism gorizontga nisbatan burchak ostida  $14 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan. Trektoriyani eng yuqori nuqtasida uni egrilik radiusi aniqlansin? Havoning qarshiligi e’tiborga olinmasin.

- 64.** Jism gorizontga nisbatan  $60^\circ$  burchak ostida  $14 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan trayektoriyani eng yuqori nuqtasida uni egrilik radiusi aniqlansin? Havoning qarshiligi e'tiborga olinmasin.
- 65.** Jism gorizontga nisbatan  $45^\circ$  burchak ostida  $10 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan. Harakat boshlanishidan  $1 \text{ s}$  o'tgach traektoriyani egrilik radiusi topilsin?
- 66.** Jismni maksimal ko'tarilish balandligi uchish masofasiga teng bo'lishi uchun u gorizontga nisbatan qanday burchak ostida otilishi kerak?
- 67.** Jism gorizontga nisbatan  $\alpha_0$  burchak ostida  $\vartheta_0$  tezlik bilan otilgan. Tezlik vektorini gorizont bilan hosil qiluvchi  $\beta$  burchakni vaqtga bog'lanishi topilsin?
- 68.** Jism gorizont bo'ylab  $15 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan. Harakat boshlinishidan  $1 \text{ s}$  o'tgach jismning normal va tangensial tezlanishlari topilsin?
- 69.** Tosh gorizontal yo'nalishda otilgan. Harakat boshlanishidan  $0,5 \text{ s}$  o'tgach tosh tezligini qiymati uni boshlang'ich tezligiga nisbatan  $1,5$  marta katta bo'lган. Toshning boshlang'ich tezligi topilsin? Havoning qarshiligi e'tiborga olinmasin.
- 70.** Tog'dan gorizontal yo'nalishda  $15 \text{ m/s}$  tezlik bilan tosh otilgan. Qancha vaqtdan so'ng uning tezligi gorizont bilan  $45^\circ$  burchak hosil qiladi?
- 71.** Minoradan gorizontal yo'nalishda  $20 \text{ m/s}$  tezlik bilan jism otilgan. Agar u minoraning balandligi  $h$  dan ikki barobar katta masofada (minora asosidan) yerga tushgan bo'lsa, minoraning balandligi topilsin?

- 72.** Gorizontga nisbatan  $60^\circ$  burchak ostida  $\vartheta_o = 20 \text{ m/s}$  tezlik bilan jism otilgan. Qancha vaqtdan so‘ng gorizontga nisbatan jism  $\beta = 45^\circ$  burchak ostida harakatlanadi?
- 73.** Minoradan gorizontal yo‘nalishda  $15 \text{ m/s}$  tezlik bilan tosh otilgan. Qancha vaqtdan so‘ng tangensial va normal tezlanishlar tenglashadi? Havoning qarshiligi e’tiborga olinmasin.
- 74.** Nuqta radiusi  $4 \text{ m}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab harakatlanmoqda. Uning harakat qonuni  $S = 8 - 2t^2$  ( $S$ -metrlarda,  $t$ -sekundlarda) bilan ifodalanadi. Vaqtning qanday momentida uning normal tezlanishi  $a_n = 9 \text{ m/s}^2$  ga teng bo‘ladi?
- 75.** Nuqtaning aylana bo‘ylab harakati  $S = 10 - 2t + t^2$  tenglama bilan berilgan. Harakat boshlanishidan  $2\text{s}$  o‘tgach nuqtaning normal tezlanishi  $1 \text{ m/s}^2$  ga teng bo‘lgan bo‘lsa, aylananing radiusi topilsin?
- 76.** Nuqta radiusi  $2 \text{ m}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab harakatlanmoqda. Harakat tenglamasi  $S = 2t^3$ . Vaqtning qaysi momentida uning normal tezlanishi tangensial tezlanishiga teng bo‘ladi?
- 77.** Nuqtaning radiusi  $4 \text{ m}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab harakat tenglamasi  $S = 10 - 2t + t^2$  bilan berilgan. Nuqtaning  $2$  sekunddan keyingi normal va tangensial tezlanishlari topilsin?
- 78.** Jism radiusi  $10 \text{ m}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab  $S = 4 - 2t^2 + t^4$  qonun asosida aylanmoqda. Vaqtning qaysi momentida uning tangensial tezlanishi  $44 \text{ m/s}^2$  ga teng bo‘ladi?
- 79.** Moddiy nuqtaning radiusi  $R$  bo‘lgan aylana bo‘ylab harakat tenglamasi  $S = 8t - 0,2t^3$  ko‘rinishga ega. Nuqtaning 3-sekunddagi normal va tangensial tezlanishlari topilsin?

- 80.** Minoradan gorizontal yo‘nalishda  $20 \text{ m/s}$  tezlik bilan tosh otilgan. Harakat boshlanishidan  $2 \text{ s}$  o‘tgach toshning tezligi, normal va tangensial tezlanishlari aniqlansin.
- 81.** Gorizontga nisbatan burchak ostida  $20 \text{ m/s}$  tezlik bilan tosh otilgan. Harakat boshlanishidan  $2 \text{ s}$  o‘tgach toshning tezligi, normal va tangensial tezlanishlari aniqlansin?
- 82.** Balandligi  $49 \text{ m}$  bo‘lgan minoradan gorizontal yo‘nalishda  $5 \text{ m/s}$  tezlik bilan jism otilgan. Tushish vaqtining yarimiga teng bo‘lgan momentdagi nuqtada jismni tangensial va normal tezlanishlari aniqlansin. Minoradan qanday masofada u yerga tushadi?
- 83.** Balandligi  $24,5 \text{ m}$  bo‘lgan qoyadan gorizontal yo‘nalishda biror boshlang‘ich tezlik bilan koptok otilgan. Koptok yerda qoyadan  $30 \text{ m}$  uzoqlikda joylashgan nishonga tegadi. Koptok qanday boshlang‘ich tezlik bilan otilgan va u nishonga tegib qanday tezlikka ega bo‘ladi?
- 84.**  $5 \text{ m}$  balandlikdan gorizontga nisbatan  $30^\circ$  burchak ostida otilgan koptok yerga tushdi. Agar uning boshlang‘ich tezligi  $22 \text{ m/s}$  bo‘lsa, koptokning oxirgi tezligini va uchish masofasini toping?
- 85.** Tezligi  $20 \text{ m/s}$  bo‘lgan jismning uchish masofasi uning ko‘tarilish balandligidan  $4$  marta katta bo‘lishi uchun u gorizontga nisbatan qanday burchak ostida otlishi kerak? Trayektoriyaning eng baland nuqasida egrilik radiusi topilsin?
- 86.** Tezligi  $15 \text{ m/s}$  bo‘lgan koptok gorizontal sirtga urilib, undan huddi shu tezlik bilan qaytdi. Koptokning tushish burchagi  $60^\circ$ . Koptokning ko‘tarilish balandligini, uchish masofasini va trayektoriyani eng yuqori nuqtasida egrilik radiusini aniqlang?

**87.** Harakat boshidan  $1,5$  s o‘tgach maxovik gardishida yotgan nuqtaning to‘liq tezlanishi vektori maxovik radiusi bilan qanday burchakni tashkil etadi? Maxovikni burchakli tezlanishi  $0,77 \text{ m/s}^2$  ga teng .

**88.** Radiusi  $R=20 \text{ cm}$  bo‘lgan disk  $\varphi = A + Bt + Ct^3$  tenglamaga asosan aylanadi bunda,  $A = 3 \text{ rad}$ ,  $B = -1 \text{ rad/s}$ ,  $C = 0,1 \text{ rad/s}^3$ . Vaqtning  $t=10 \text{ s}$  momenti uchun disk aylanasida yotgan nuqtalarni tangensial  $a_t$ , normal  $a_n$  va to‘liq  $a$  tezlanishi aniqlansin?

**89.** Nuqtaning aylana bo‘ylab tekis tezlanuvchan harakati uchun  $t_2/t_1$  aniqlansin, agarda  $\frac{a_{n1}}{a_{n2}}=5$  bo‘lsa, vaqt harakat boshlanish momentidan hisoblanadi.

**90.**  $t = 6 \text{ s}$  vaqt davomida radiusi  $R = 0,8 \text{ m}$  aylana uzunligini yarmiga teng bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Shu vaqt ichidagi o‘rtacha yo‘l, tezligi va o‘rtacha tezlik vektorini moduli topilsin?

**91.** Nuqtaning egri chiziq bo‘ylab harakati  $x = a_1 t^3$  va  $y = a_2 t$  tenglamalar bilan ifodalanadi. Bu yerda  $a_1 = 1 \text{ m/s}^3$  va  $a_2 = 1 \text{ m/s}$ . Nuqtaning harakat trayektoriyasining tenglamasi,  $t=0,3 \text{ s}$  vaqt momenti uchun uning tezligi va tezlanishi aniqlansin?

**92.** Nuqtaning egri chiziq bo‘ylab harakati  $x = 2t^2$  va  $y = t^4$  tenglamalar bilan berilgan. Nuqta trayektoriyasini tenglamasi topilsin?

**93.** Jism gorizontga nisbatan  $30^\circ$  burchak ostida otilgan. Harakatning boshlang‘ich momentidagi normal va tangensial tezlanishlar topilsin?

**94.** Gorizontga nisbatan  $30^\circ$  burchak ostida quroldan chiqqan snarad  $t_1=10 \text{ s}$  va  $t_2=50 \text{ s}$  vaqt o‘tgach ikki marta biror bir balandlikda bo‘lgan. Boshlang‘ich tezlik va shu balandlik topilsin?

- 95.** Vaqtning qanday momentida gorizontal ravishda  $\vartheta_o=19,6 \text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlik bilan otilgan jismni tangensial tezlanishi normal tezlanishga teng bo‘ladi?
- 96.** Koptok  $\vartheta_o=9,8 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorzontal ravishda otilgan. Qancha vaqtdan so‘ng koptokning normal tezlanishi tangensial tezlanishdan 2 marta katta bo‘ladi?
- 97.** Tik jar chetidan  $\vartheta_o=20 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal yo‘nalishda koptok otilgan. Trayektoriyani shunday nuqtasi topilsinki, undagi egrilik radiusi eng yuqori nuqtadagi egrilik radiusiga nisbatan 8 marta ortiq bo‘lsin.
- 98.** Jism gorizontal ravishda otilgan. Otilgandan so‘ng  $5 \text{ s}$  vaqt o‘tgach uning to‘liq tezligi va to‘liq tezlanishi yo‘nalishlari orasidagi burchak  $\beta=45^\circ$  ga teng bo‘ldi. Shu momentdagi jismni to‘liq tezligi  $v$  topilsin?
- 99.** Futbol koptogi  $\vartheta_o=10,7 \text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlik bilan gorizontga nisbatan  $\alpha = 30^\circ$  burchak ostida otildi. Koptok, otilgan nuqtadan  $S = 6 \text{ m}$  masofada joylashgan vertikal devorga elastik uriladi. Koptok otilgan nuqtadan yerga tushish nuqtagacha bo‘lgan masofa topilsin?
- 100.** Jism gorizontga nisbatan burchak ostida  $\vartheta_o=10 \text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlik bilan otilgan. Jismni  $h = 3 \text{ m}$  balanda bo‘lgan momentdagi tezligi topilsin?
- 101.** Pilotajning biror bir shaklini bajarishda samolyot harakat yo‘lining to‘g‘ri chiziqli uchastkasidagi trayektoriyasi  $x = bt + ct^2$  tenglama bilan ifodalanadi, bunda  $b=250 \text{ m/s}$ ,  $c=5 \text{ m/s}^2$ . shaklini bajarish boshlanganidan  $5 \text{ s}$  o‘tgach samolyotni chiziqli tezligi va tangensial tezlanish topilsin?

**102.** Minoradan gorizontga nisbatan  $\alpha=30^\circ$  burchak ostida  $\vartheta_o=10 \text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlik bilan tosh otilgan. Otilgandan so‘ng 4 s o‘tgach tosh egallagan nuqta bilan u otilgan nuqta orasidagi eng qisqa masofa topilsin?

**103.** 1 m balandlikdan po‘lat plitaga 100 g massali sharcha erkin tushadi va 0,5 m balandlikka sakraydi. Plita tomonidan sharchaga qanday kuch impulsi uzatilganligini aniqlang?

**104.** 1,77 m balandlikdan 1000 kg massali bolg‘a tushdi. Urilish vaqtı 0,01 s bo‘lsa, urilish kuchining o‘rtacha qiymati topilsin?

**105.** Massasi 0,5 kg bo‘lgan jism shunday harakatlanmoqdaki, uning bosib o‘tgan yo‘li  $S$  ning vaqt  $t$  ga bog‘liqligi  $S = 5\sin\pi t$  tenglama bilan beriladi. Harakat boshlangandan so‘ng  $t = 1/6 \text{ s}$  vaqt o‘tgach, jismga ta’sir etuvchi kuch topilsin?

**106.** Massasi 2 kg bo‘lgan jismga qandaydir o‘zgaruvchan kuch ta’sir etmoqda. Bu kuch ta’sirida jism  $x = A + Bt + Ct^2 + Dt^3$  tenglamaga muvofiq harakatlanmoqda, bunda  $C=1 \text{ m/s}$ ,  $D=-0,2 \text{ m/s}^3$ . Vaqtning qaysi momentida jismga ta’sir etuvchi kuch nolga teng bo‘ladi?

**107.** 10 N ga teng bo‘lgan o‘zgarmas kuch ta’sirida jism shunday harakat qiladiki, uning bosib o‘tgan yo‘lini vaqtga bog‘lanishini ifodalaydigan tenglama  $S = -Bt + Ct^2$  ko‘rinishga ega. Agar  $C=1 \text{ m/s}^2$  bo‘lsa, jismning massasi topilsin?

**108.** O‘zgarmas massali jism tormozlangunga qadar tekis harakatlangan. To‘xtash momentida tormozlovchi kuch  $F_I=40 \text{ N}$  ga tenglashadi. Agar tormozlovchi kuch ta’sir qilgandan keyin bosib o‘tilgan yo‘lni vaqtga boglanishi  $S = 196t - t^3$  qonun bilan o‘zgargan bo‘lsa, tormozlanish boshlangandan so‘ng 3 s o‘tgach tormozlovchi kuchni toping?

**109.** Massasi  $200 \text{ kg}$  chana gorizontal yo‘nalishda tezlanuvchan harakat qilmoqda. Ta’sir etuvchi kuch  $1000 \text{ N}$  ga teng bo‘lib, gorizontga nisbatan  $30^\circ$  burchak hosil qiladi. Ishqalanaish koeffisiyenti  $0,05$  bo‘lsa, chananing tezlanishi topilsin?

**110.** Massasi  $5 \text{ kg}$  bolgan chananing  $5 \text{ s}$  davomida gorizontal yo‘nalishda  $20 \text{ N}$  kuch bilan tortishdi. Yo‘l va chana orasidagi ishqalanish koeffisiyenti  $0,3$ . Harakat boshlanishidan, to to‘xtagunga qadar chana qancha yo‘l bosadi?

**111.** Shnur bilan bog‘langan va massalari  $1 \text{ kg}$  va  $4 \text{ kg}$  bo‘lgan ikki brusok stol ustida yotadi. Agar birinchi brusokka gorizontal yo‘nalgan  $10 \text{ N}$  kuch bilan ta’sir etilsa, brusoklar qanday tezlanish bilan harakatlanadi? Ishqalanishni e’tiborga olmang.

**112.** Liftning passajirlar bilan og‘irligi  $8 \cdot 10^3 \text{ N}$ . Agar lift osilgan trosni tarangligi  $1,2 \cdot 10^4 \text{ N}$  ga teng bo‘lsa, liftning tezlanishi va harakat yo‘nalishini toping?

**113.** Liftning passajirlar bilan og‘irligi  $10^4 \text{ N}$ . Agar lift osilgan trosni tarangligi  $1,2 \cdot 10^4 \text{ N}$  ga teng bo‘lsa. liftning tezlanishi va harakat yo‘nalishni toping.

**114.** Agar havoning qarshiligi tezlikka bog‘liq bo‘lmay o‘rtacha og‘irlik kuchining  $1/7$  ga teng bo‘lsa, tik yuqoriga  $44,8 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan jism necha sekunddan keyin yerga tushadi?

**115.** Prujinali taroziga blok osilib, undan shnur o‘tkazilgan. Shnur uchlariga massasi  $1,5 \text{ kg}$  va  $3 \text{ kg}$  bo‘lgan yuklar osilgan. Yuklarning harakati paytida tarozini ko‘rsatishi qanday bo‘ladi? Blok va shnur massalari e’tiborga olinmasin.

**116.** Blok orqali o‘tkazilgan vaznsiz ipga massalari  $220\ g$  va  $270\ g$  bo‘lgan yuklar osilgan. Sistemaning tezlanishi aniqlansin? Blokning massasi va undagi ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**117.** Qo‘zg‘almas blok orqali o‘tkazilgan ip uchlariga osilgan jismlarning har birining massasi  $240\ g$ . Jismlar  $4\ s$  davomida  $160\ cm$  yo‘l o‘tishi uchun ularning biriga qo‘yilgan qo‘sishimcha yukning massasi qancha bo‘lishi kerak?

**118.** Massasi  $0,4\ kg$  bo‘lgan jism tik yuqoriga  $30\ m/s$  boshlang‘ich tezlik bilan otilgan. U ko‘tarilishni eng yuqori nuqtasiga  $2,5\ s$  da yetdi. Ko‘tarilish paytida jismga ta’sir etuvchi havoning qarshilik kuchining o‘rtacha qiymati qanday?

**119.** Tekis tushayotgan aerostatdan qanday massali ballastni tashlansa, u xuddi shu tezlik bilan tekis ko‘tarila boshlaydi? Aerostatni ballast bilan masasi  $1600\ kg$ , ayrostatni ko‘tarish kuchi  $12000\ N$ . Havo qarshiligi ko‘taralishda va tushishda bir deb qaralsin.

**120.** Massasi ballast bilan  $m$  bo‘lgan aerostat o‘zgarmas  $a$  tezlanish bilan pastga tushmoqda. Aerostatdan qancha ballastni tashlab yuborilsa, u avvalgi, lekin tik yuqoriga yo‘nalgan tezlanish bilan ko‘tarila boshlaydi? Ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**121.** Ipga tosh osilgan. Agar bu toshni  $a_1 = 3\ m/s^2$  tezlanish bilan ko‘tarilsa, u holda ipning taranglikligi u uzilishi mumkin bo‘lgan taranglikdan ikki marta kichik bo‘ladi. Bu toshni qanday tezlinish bilan ko‘tarilsa uziladi?

**122.** Dinamometr, unga osilgan yuk bilan avval tik yuqoriga ko‘tarilgan, so‘ngra esa pastga tushirilgan. Ikki holda ham harakat

musbat tezlanish bilan bo‘lib, u  $6 \text{ m/s}^2$  ga teng bo‘lgan. Dinamometr ko‘rsatishlarining farqi  $29,4 \text{ N}$  bo‘lsa, yukni massasi qancha edi?

**123.** Biror diametrli po‘lat sim  $4400 \text{ N}$  taranglik kuchiga chidash beradi. Shu simga osilgan massasi  $400 \text{ kg}$  yukni qanday tezlanish bilan ko‘tarish mumkinki? Bunda sim uzilib ketmasin.

**124.** Massasi  $2,5 \text{ kg}$  bo‘lgan jism  $19,6 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan pastga tik ravishda tushmoqda. Tushish vaqtida jismga og‘irlik kuchi bilan birgalikda ta’sir etuvchi kuchni kattaligi topilsin?

**125.** Gorizontal taxtada yuk yotibdi. Yuk bilan taxta orasidagi ishqalanish koeffisiyentini  $0,1$  deb olamiz. Taxtaga gorizontal yo‘nalishda qanday tezlanish berilganda undagi yuk sirpanib tushadi?

**126.** Massalari  $1 \text{ kg}$  va  $4 \text{ kg}$  bo‘lgan, o‘zaro shnur bilan bog‘langan ikki brusok stol ustida yotibdi. Agar birinchi brusokka gorizontal yo‘nalishda  $10 \text{ N}$  kuch bilan ta’sir etilsa, shnurning taranglik kuchi qanday bo‘ladi?

**127.** Relsda turgan vagonga qanday kuch bilan ta’sir etilsa u tekis tezlanuvchan harakat qila boshlab  $30 \text{ s}$  vaqt ichida  $11 \text{ m}$  yo‘l bosadi. Vagonning massasi  $16\,000 \text{ kg}$ . Harakat paytida vagonga uning og‘rilik kuchining  $0,05 \text{ ga}$  teng bo‘lgan ishqalanish kuchi ta’sir etadi.

**128.** Massalari  $1 \text{ kg}$  va  $4 \text{ kg}$  bo‘lgan, o‘zaro shnur bilan bog‘langan ikki brusok stol ustida yotibdi. Agar ikkinchi brusokka gorizontal yo‘nalishda  $10 \text{ N}$  ga teng bo‘lgan kuch bilan ta’sir etilsa, brusoklar qanday tezlanish bilan harakat qiladilar? Ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**129.** Silliq stol ustida  $4 \text{ kg}$  massali brusok yotibdi. Brusokka ikkita shnur bog‘langan va ular stolni qarama-qarshi chekkalariga

mahkamlangan ikkita qo‘zg‘almas va vaznsiz bloklar orqali o‘tkazilgan. Shnurlar uchiga massalari  $1 \text{ kg}$  va  $2 \text{ kg}$  bo‘lgan yuk osilgan. Har bir shnurni taranglik kuchi topilsin?


**130.** Jism gorizontga nisbatan  $\alpha$  burchak hosil qiluvchi  $F$  kuch ta’sirida gorizontal tekislik bo‘ylab harakatlanmoqda. Jism massasi  $m$ , jism bilan tekislik orasidagi ishqalanish koeffisiyenti  $k$ . Qanday kuch ta’sirida harakat tekis bo‘ladi?

**131.** Vaznsiz ip bilan bog‘langan bir-biriga, ikkita jism silliq stol ustida turibdi (12-rasm).  $m_1$  massali jismga tekislik bo‘ylab yo‘nalgan  $F_1$  kuch qo‘yilgan, massasi  $m_2$  bo‘lgan jismga  $F_2 > F_1$  kuch qarama-qarshi yo‘nalishda ta’sir etmoqda.  $m_1$  va  $m_2$  massali jismlar orasidagi ipning taranglik kuchi topilsin?



12-rasm.


**132.** Bir-biri bilan bog‘langan va har birini massasi  $m$  bo‘lgan to‘rtta brusok silliq stol ustiga qo‘yilgan (13-rasm). Birinchi brusokka gorizontal yo‘nalgan  $F$  kuchi ta’sir etmoqda. Hamma iplarning taranglik kuchlari topilsin? Brusoklar va stol orasidagi ishqalanish kuchlari e’tiborga olinmasin.



13-rasm.


**133.** Massasi  $m$  bo‘lgan jism vertikal devor bo‘ylab yuqoriga qarab, vertikal bilan  $\alpha$  burchak hosil qiluvchi  $F$  kuch ta’sirida harakatlanmoqda

(14-rasm). Jism va devor orasidagi ishqalanish kuchi  $k$ . Jismning tezlanishi topilsin?




14-rasm.

**134.** Cho‘zilmas ip bilan bog‘langan va massalari  $m_1$  va  $m_2$  bo‘lgan ikkita brusok gorizontal tekislikda joylashgan. Ularga gorizont bilan  $\alpha$  va  $\beta$  burchak hosil qiluvchi  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar qo‘yilgan (15-rasm). Brusoklar bilan tekislik orasidagi ishqalanish koeffisiyenti  $k$ .  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar brusoklar og‘irligidan kichik. Sistema chapga tomon harakatlanmoqda. Sistemaning tezlanishi topilsin.




15-rasm.

**135.** Stol ustida  $20\text{ kg}$  massali jism turibdi. Jismga qo‘zg‘almas va vaznsiz blok orqali o‘tgan ip bog‘angan. Ipning ikkinchi uchiga  $10\text{ kg}$  massali jism osilgan (16-rasm). Jismlar qanday tezlanish bilan harakat qiladilar? Ishqalanish koeffisiyenti 0,2. Blokdagi ishqalanish e’tiborga olinmasin.



16-rasm.

**136.** 17-rasmida tasvirlangan sistemada  $m_1 = 3,5 \text{ kg}$ ,  $m_2 = 1,5 \text{ kg}$ . M massaning qanday qiymatida bu massali jism tezlanish olmaydi? Bloklar massasi va ishqalanish kuchi e'tiborga olinmasin.




17-rasm.

**137.** Silliq stol ustida  $4 \text{ kg}$  massali brusok turibdi. Stolni ikki qaramaqarshi chekkasiga mahkamlangan qo'zg'almas bloklar orqali o'tkazilgan ikki shnur brusokka bog'langan. Shnurlar uchiga massalari  $1 \text{ kg}$  va  $2 \text{ kg}$  yuk osilgan. Brusokning harakat tezlanishi topilsin? Blok massasi va ishqalanish kuchi e'tiborga olinmasin.

**138.** Jism gorizont bilan  $45^\circ$  burchak tashkil etuvchi qiya tekislik bo'ylab sirpanmoqda. Jismni vaqtga bog'liq ravishda bosgan yo'li  $S=1,73 \text{ } t^2$  tenglama bilan berilgan. Jismni tekislikka ishqalanish koefisiyenti topilsin.

**139.** Vaznsiz blok gorizont bilan  $30^\circ$  burchak tashkil etuvchi qiya tekislik uchiga mahkamlangan(18-rasm). Teng og'irlikka ega bo'lgan va har biri  $10 \text{ N}$  ga teng ikki jism ip bilan bog'lanib blok orqali o'tkazilgan. Ipning tarangligi topilsin? Ishqalanish kuchlari e'tiborga olinmasin.




18-rasm.

**140.** Agar jismni qiya tekislikda tinch bo‘lish chekli burchagi  $30^\circ$  ga teng bo‘lsa, balandligi  $2\ m$  va qiyalik burchagi  $45^\circ$  bo‘lgan qiya tekislik uchidan og‘ir jism qancha vaqt ichida pastga tushadi?

**141.** Og‘irligi  $10^4\ N$  bo‘lgan avtomobil yo‘lni har  $25\ m$  masofasida balandlik  $1\ m$  ga o‘zgaradigan tog‘ga o‘zgarmas tezlik bilan chiqayotgan bo‘lsa, motorining tortish kuchini toping? Harakat paytida avtomobilga uning og‘irligini  $0.1$  qismiga teng bo‘lgan ishqalanish kuchi ta’sir etadi.

**142.** Qiya tekislikdagi  $50\ kg$  massali jismga  $294\ N$  kuch gorizontal yo‘unashda ta’sir etmoqda. Jism qiya tekislikka qanday kuch bilan bosadi? Qiya tekislik gorizont bilan  $30^\circ$  burchak tashkil etadi. Ishqalanish e’tiborga olinmasin (19-rasm).



19-rasm.

**143.** Massasi  $100\ kg$  bo‘lgan jism qiyalik burchagi  $20^\circ$  bo‘lgan qiyalik tekislik bo‘ylab qiyalik tekislikka parallel va  $1000\ N$  ga teng bo‘lgan kuch ta’sirida ko‘tarilmoqda. Ishqalanish koeffisiyenti  $0,1$ . Jism qanday tezlanish bilan harakatlanadi?


**144.**  $100\ kg$  massali jism qiya tekislik bo‘ylab  $2\ m/s^2$  tezlanish bilan ko‘tarilmoqda. Jismni ko‘tarish uchun qiya tekislikka normal bo‘lgan qanday kuch ta’sir etishi kerak? Ishqalanish koeffitsiyenti  $0,2$ . Qiyalik burchagi  $30^\circ$ .

**145.** Gorizontga nisbatan qiyaligi  $30^\circ$  bo‘lgan kanat temir yo‘lidan  $500\ kg$  massali vagonetka pastga tushmoqda. Vagonetkaning tezligini  $10\ m$  yo‘lda ikki marta kamaiyishi uchun kanatga qanday kuch qo‘yilishi

lozim, agar u tormozlanish oldidan  $4 \text{ m/s}$  tezlikka ega bo‘lgan bo‘lsa, ishqalanish koeffitsiyentini  $0,1$  deb hisoblang.


**146.** Muzli tog‘ gorizont bilan  $10^\circ$  burchak tashkil etadi. Bu tog‘ bo‘ylab biror balandlikka tosh ko‘tariladi, so‘ngra huddi shu yo‘l bilan pastga sirpanib tushadi. Agar yuqoriga chiqish vaqtini tushish vaqtiga nisbatan ikki marta ko‘p bo‘lsa, ishqalanish koeffisiyenti qanday?

**147.** Gorizont bilan  $45^\circ$  burchak tashkil etuvchi qiya tekislik uchiga vaznsiz blok mahkamlangan (20-rasm). Blok orqali ip o‘tkazib uning uchlariga har birining massasi  $2 \text{ kg}$  bo‘lgan A va B yuk osilgan. Ipning tarangligi topilsin? Qiya tekislikdagi ishqalanish koeffisiyenti  $0,2$ , blokdagi ishqalanish e’tiborga olinmasin.



20-rasm.


**148.** Gorizont bilan  $\alpha = 30^\circ$  va  $\beta = 45^\circ$  burchak tashkil etuvchi ikki qiya tekislik cho‘qqisiga vaznsiz blok qo‘yilgan. Massalari  $1 \text{ kg}$  bo‘lgan ikki A va B yuklar ip bilan bog‘lanib blok orqali o‘tkazilgan (21-rasm). Ipning tarangligi topilsin? Ishqalanish kuchlari e’tiborga olinmasin.



21-rasm.

**149.** Gorizont bilan  $4^\circ$  burchak tashkil etgan qiya tekislikda jism joylashgan. Agar ishqalanish koeffisiyenti  $0,03$  bo‘lsa, jism qiya tekislik bo‘ylab qanday tezlanish bilan sirpanadi?

**150.** Gorizont bilan  $45^\circ$  burchak tashkil etuvchi qiya tekislik uchiga vaznsiz blok o‘rnatilgan(22-rasm). Har birining massasi  $3 \text{ kg}$  bo‘lgan va bir-biri bilan ip bilan bog‘langan  $A$  va  $B$  yuklar blok orqali o‘tkazilgan. Yuklar qanday tezlanish bilan harakatlanadi? Qiya tekislikdagi ishqalanish koeffisiyenti  $0,3$ . Blokdagi ishqalanish e’tiborga olinmasin.



22-rasm.

**151.** Gorizont bilan  $25^\circ$  burchak tashkil etuvchi qiya tekislikni uzunligi  $2 \text{ m}$ . jism tekis tezlanuvchan harakatlanib qiya tekislikdan  $2 \text{ s}$  davomida sirpanib tushdi. Jismni qiya tekislik bilan ishqalanish koeffisiyentini toping?


**152.** Gorizont bilan  $4^\circ$  burchak tashkil etuvchi qiya tekislikda jism turibdi. Qanday chegaraviy ishqalanish koeffisiyentida jism qiya tekislikda sirpana boshlaydi?

**153.** Gorizontal yo‘lda  $9 \text{ km/h}$  tezlik bilan harakatlanuvchi velosipedchi burilishda chizadigan yoyning eng kichik radiusi qanday bo‘ladi? Berilgan yo‘lda velosiped shinasining ishqalanish koeffisiyenti  $0,25$ .

**154.** Massasi  $1000 \text{ kg}$  bo‘lgan avtomobil egrilik radiusi  $50 \text{ m}$  ga teng qavariq ko‘pirik ustida harakatlanmoqda. Eng yuqori nuqtada ko‘prikka bosim ko‘rsatmaslik uchun avtomobil qanday eng kichik tezlik bilan harakatlanishi kerak?

**155.**  $M$  massali avtomobil egrilik radiusi  $R$  bo‘lgan ko‘prikda  $\vartheta$  tezlik bilan harakatlanmoqda(23-rasm). Avtomobil joylashgan nuqtagacha ko‘prikni egrilik markazidan bo‘lgan yonalish bilan ko‘prik

cho‘qqisigacha bo‘lgan yo‘nalish orasidagi burchak  $\alpha$  bo‘lganda u qanday kuch bilan ko‘prikka ta’sir etadi?



23-rasm.

**156.**  $m=5\text{ t}$  massali tramway vagoni egrilik radiusi  $125\text{ m}$  bo‘lgan yolda burilyapti. Harakat tezligi  $9\text{ km/h}$  bo‘lganda g‘ildiraklar relslarga qanday kuch bilan ta’sir etadi?

**157.** Uzunligi  $l = 50\text{ cm}$  arqonga bog‘langan tosh vertikal tekislikda aylanadi. Agar arqon toshning og‘irligiga  $10$  marta katta kuchlanish ta’sirida uziladigan bo‘lsa, tosh sekundiga necha marta aylanganda u uziladi?

**158.** Arqonga bog‘langan tosh vertikal tekislikda aylanmoqda. Agar arqonning maksimal va minimal tarangligi farqi  $\Delta T = 10\text{ N}$  bo‘lsa, toshning massasi topilsin?

**159.** Uzunligi  $l=30\text{ cm}$  bo‘lgan ipga bog‘langan tosh gorizontal tekislikda radiusi  $R=15\text{ cm}$  bo‘lgan aylana chizmoqda. Toshning aylana chastotasi topilsin?

**160.** Uzunligi  $l=25\text{ cm}$  arqonga bog‘langan  $m=50\text{ g}$  massali tosh gorizontal tekislikda aylana chizmoqda. Aylanish chastotasi  $\vartheta = 2\text{ ayl/s}$ . Ipning tarangligi topilsin?

**161.** Gorizontal o‘q atrofida disk  $\vartheta=30\text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Aylanish o‘qidan  $30\text{ cm}$  masofada diskda jism turibdi. Disk bilan jism orasidagi ishqalanish koeffisiyenti qanday bo‘lganda jism disk ustidan sirpanib ketmaydi?

**162.**  $\vartheta=900 \text{ km/h}$  tezlik bilan uchayotgan samolyot "o'lik sirtmog'i"ni bajardi. O'rindiqqa bosuvchi kuchning eng katta qiymati uchuvchi og'irligiga nisbatan besh marta katta bo'lishi uchun uning radiusi qanday bo'lishi kerak?

**163.** Massasi  $m=200 \text{ g}$  bo'lgan tosh ipda vertikal tekislikda aylanmoqda. Tosh eng past nuqtadan o'tayotganda eng baland nuqtadan o'tishga nisbatan ipning tarangligi qanday bo'ladi?

**164.** Uzunligi  $50 \text{ cm}$  arqonga  $0,5 \text{ kg}$  massali tosh vertikal tekislikda aylanmoqda. Aylananing eng past nuqtasida arqon tarangligi  $T=44 \text{ N}$ . Agar arqon tezligi vertikal yuqoriga yo'nalgan momentda uzilsa, tosh qanday balandlikka ko'tariladi?

**165.** Sportchi maksimal uzoqlikka tushishni ta'minlovchi trayektoriya bo'yicha molot (trosdagi yadro) ni  $70 \text{ m}$  masofaga otdi. Otish paytida sportchining qo'liga qanday kuch ta'sir etadi? Yadroning massasi  $m=5 \text{ kg}$ . Sportchi radiusi  $R=1,5 \text{ m}$  aylana bo'ylab aylantirib molot tezligini oshiradi.

**166.** Avtomobil qavariq va botiq ko'priklarning o'rtasida ta'sir etuvchi kuchlar bir-biriga nisbati qanday? Ko'priklarning egrilik radiusi ikki holda ham  $40 \text{ m}$ . Avtomobilning harakat tezligi  $36 \text{ km/h}$ .

**167.** Massasi  $2 \text{ t}$  bo'lgan avtomobil  $54 \text{ km/h}$  tezlik bilan egrilik radiusi  $90 \text{ m}$  bo'lgan qavariq ko'prik ustida harakat qilmoqda. Qaysi nuqtada avtomobilning ko'prikka ta'sir kuchi  $F=5 \text{ kN}$  ga teng bo'ladi?

**168.** Avtomobil egrilik radiusi  $R=40 \text{ m}$  bo'lgan qavariq ko'prik ustida harakatlanmoqda. Ko'prikning eng yuqori nuqtasida avtomobil tezligi  $\vartheta=50,4 \text{ km/h}$ , avtomobil g'ildiraklarini ko'prikka ishqalanish

koeffisiyenti  $\mu=0,6$  bo'lsa, u bu nuqtada qanday maksimal gorizontal tezlanish olishi mumkin?

**169.** Massasi  $2\ t$  bo'lgan avtomobil  $54\ km/h$  tezlik bilan egrilik radiusi  $R=90\ m$  bo'lgan qavariq ko'prik ustida harakat qilmoqda. Egrilik markazi bilan ko'prik cho'qqisiga yo'nalish bilan ko'prik nuqtasiga yo'nalish orasidagi burchak  $\alpha$  bo'lgan nuqtada avtomobilni ko'prikka ta'siri  $5000\ N$ .  $\alpha$  burchak aniqlansin?

**170.** Reaktiv dvigatelli samolyot  $1440\ km/h$  tezlik bilan uchmoqda. Odam o'z og'irligini besh marta ortishiga chiday oladi deb hisoblab, samolyot vertikal tekislikda qanday radiusli aylana bo'yab harakat qila oladi?

**171.** Samolyot aylana bo'yab o'zgarmas  $\vartheta=350\ km/h$  tezlik bilan harakatlanmoqda. Agar samolyot korpusi uchish yo'nalishiga nisbatan  $\alpha=10^\circ$  burchakka burilgan bo'lsa, aylana radiusini toping?

**172.** Qiyalik burchagi  $\alpha=30^\circ$  va egrilik radiusi  $R=90\ m$  bo'lgan silliq trek bo'yab mototsikl qanday tezlik bilan harakatlanmog'i lozim? Agar ishqalanish koeffitsiyeti  $\mu=0,4$  bo'lsa, mototsiklchi qiyalik burchagi va egrilik radiusi yuqoridagidek bo'lgan trek bo'yab qanday maksimal tezlik bilan harakat qilishi mumkin?

**173.** Poyezd  $\vartheta=72\ km/h$  tezlik bilan  $R=800\ m$  radiusli burilishda harakatlanmoqda. Tashqi rels ichki relsdan qancha baland bo'lishi kerak? Gorizont bo'yab relslar orasidagi masofani  $d=1,5\ m$  deb oling.

**174.** Yo'lning  $R=100\ m$  radiusli burilishida avtomobil tekis harakatlanmoqda. Avtomobilning og'irlik markazi  $h=1\ m$  balandlikda joylashgan. Avtomobil izining kengligi  $a = 1,5\ m$ . Qanday tezlikda

avtomobil ag‘darilishi mumkin? Ko‘ndalang yo‘nalishda avtomobil sirpanmaydi.

**175.**  $\vartheta=72\text{ km/h}$  bilan egri yo‘lda tekis harakatlanayotgan poyezd vagonida prujinali tarozida yuk tortilmoqda. Yuk massasi  $m=5\text{ kg}$  yo‘lning egrilik radiusi  $R=200\text{ m}$ . Prujinali tarzining ko‘rsatishini aniqlang?

**176.** Agar odam massasi  $M=70\text{ kg}$  va aylanishda kanat stolba bilan  $\alpha=45^\circ$  burchak hosil qilsa, kanat gigant qadamining tarangligi qanday? Agar osilish uzunligi  $\ell=5\text{ m}$  bo‘lsa, gigant qadam qanday burchak tezlik bilan aylanadi?

**177.** Kengligi  $\ell=100\text{ m}$  bo‘lgan daryo ustida aylana yoyi shaklida qavariq ko‘prik qurilgan. Ko‘prikning yuqori nuqtasi qirg‘oqdan  $h=10\text{ m}$  baland. Ko‘prik  $F=44,1\text{ kN}$  ga teng bo‘lgan maksimal ta’sirga chidab berishi mumkin. Massasi  $m=5000\text{ kg}$  bo‘lgan gruzovik qanday tezlik bilan koprikdan o‘tishi mumkin?

**178.** Massasi  $70\text{ kg}$  bo‘lgan odam trapetsiyani o‘rtasida o‘tiribdi. Trapetsiya yo‘g‘ochi uzunligi  $l=8\text{ m}$  bo‘lgan arqonga osilgan. Tebranganda odam muvozanat holatdan  $\vartheta=6\text{ m/s}$  tezlik bilan o‘tadi. Shu momentda har bir arqonning tarangligi qanday?

**179.** Uzunligi  $l$  bo‘lgan ipga osilgan  $m$  massali sharcha gorizontal tekislikda aylanmoqda. Sharcha harakatlanayotgan aylana radiusi  $R$  kattalik jihatdan  $\frac{2l}{\sqrt{5}}$  ga teng bo‘lishi uchun ipning tarangligi  $T$  qanday bo‘lishi kerak?

**180.** Shiftga arqonda osib qo‘yilgan tosh shiftdan  $h=1,25\text{ m}$  bo‘lgan masofadagi aylana bo‘ylab harakatlanmoqda. Toshning aylanish davri topilsin?

- 181.** Massasi  $m=10 \text{ kg}$  bo‘lgan va ipda vagon shipiga osib qo‘yilgan shar vertikaldan  $\alpha=45^\circ$  burchakka og‘ishi uchun, egrilik radiusi  $R=98 \text{ m}$  bo‘lgan yo‘lda harakatlanayotgan vagon qanday tezlikka ega bo‘lishi kerak? Ipning tarangligi bunda qanday bo‘ladi?
- 182.** Trayektoriya egriligi radiusi  $R=400 \text{ m}$  va tezligi  $\vartheta=720 \text{ km/h}$  bo‘lgan samolyot pikirovkadan chiqish momentida asos yuzasi  $S = 1 \text{ m}^2$  balandligi  $0,8 \text{ m}$  gacha benzin bilan to‘ldirilgan bakning tubiga qanday bosim ta’sir etadi?
- 183.** Vertikal o‘qda gorizontal shtanga o‘rnatilgan. Bu shtanga bo‘ylab hech qanday ishqalanishsiz bir-biriga uzunligi  $l$  bo‘lgan ip bilan bog‘langan va massalari  $m_1$  va  $m_2$  bo‘lgan ikki yuk siljishi mumkin. Sistema  $\omega$  burchakli tezlik bilan aylana oladi. Muvozanat holatda bo‘la turib yuklar o‘qdan qanday masofada joylashadilar? Ipning taranglik kuchi T qanday bo‘ladi?
- 184.** Qiyalik burchagi  $\alpha$  bo‘lgan qiya tekislik chetida jism yotibdi. Tekislik  $\omega$  burchakli tezlik bilan vertikal o‘q atrofida bir tekis aylanmoqda. Jismdan tekislikni aylanish o‘qigacha bo‘lgan masofa  $R$  ga teng. Aylanayotgan qiya tekislik ustida jism turib qolishi uchun eng kichik ishqalanish koffitsiyenti  $\mu$  ni toping?
- 185.** Agar  $\vartheta=90 \text{ km/h}$  tezlik bilan harakatlanayotgan avtomobilni aylana yoyi ko‘rinishiga ega bo‘lgan qavariq ko‘prikni eng yuqori nuqtasida ko‘rsatayotgan bosimi ikki barobar kamaygan bo‘lsa, ko‘prikning egrilik radiusi topilsin?
- 186.** Velosipedchining og‘ish burchagi  $60^\circ$  va tezligi  $\vartheta=25 \text{ km/h}$  bo‘lsa, u qanday radiusli aylana bo‘ylab harakatalana oladi?

**187.** Motosiklchi gorizontal yo‘lda  $\vartheta=72 \text{ km/h}$  tezlik bilan harakatlanib buriladi, bunda egrilik radiusi  $100 \text{ m}$  ga teng. Motosiklchi yiqilib ketmasligi uchun qanchaga og‘ishi kerak?

**188.** Ip bilan bog‘langan ikki jism tekis gorizontal tekislikda bir xil burchakli tezliklar bilan harakatlanishi uchun ularni massalarini nisbati  $\frac{m_1}{m_2}$  qanday bo‘lishi kerak? Aylanish o‘qi bog‘lanish ipini  $1:3$  nisbatda bo‘ladi.

**189.** Rezinkali shnurga bog‘achi  $m$  massali tosh gorizontal tekislikda  $n$  chastota bilan aylanmoqda. Shnur vertikal bilan  $\alpha$  burchak hosil qiladi. Cho‘zilmagan shnurning uzunligi  $l_o$  ni toping, agar uning uzunligini  $l$  gacha cho‘zish uchun  $F$  kuch talab etilsachi?

**190.** Chelakdan suv to‘kilmasligi uchun uning vertikal tekislikda qanday minimal burchakli tezlik bilan aylantirish zarur? Suv sirtidan aylanish markazigacha bo‘lgan masofa  $l$  ga teng.

**191.** Devorining og‘ish burchagi  $\alpha=60^\circ$  diametri  $d=20 \text{ cm}$  va shakli kengayib kesik konus bo‘lgan idish vertikal o‘q atrofida aylanmoqda. Idishning tubida joylashgan sharcha idish qanday burchakli tezlik bilan aylantirilganda undan chiqib ketadi? Ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**192.** Radiusi  $R=2 \text{ m}$  bo‘lgan sfera  $30 \text{ ayl/min}$ , tezlik bilan o‘z simmetriya o‘qi atrofida tekis aylanmoqda. Sfera ichida massasi  $m=0,2 \text{ kg}$  bo‘lgan sharcha joylashgan. Sharchani sferaga nisbatan muvozanat holatiga mos keluvchi  $h$  balandlik va shu holatda sferaning reaksiyasi  $N$  topilsin?

**193.** Egrilik radiusi  $R=2 \text{ m}$  bo‘lgan va gorizontal tekislikda joylashgan trubadan suv oqmoqda. Suvning trubani yon sirtiga ko‘rsatuvchi

bosimini toping? Trubanining diametri  $d=20\text{ cm}$ . trubanining ko'ndalang kesim yuzasidan har soatda  $m=30\text{ t}$  suv oqadi.

**194.** Suyuqlik solingen idish vertikal o'q atrofida  $n=2\text{ 1/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Suyuqlik sirti voronka ko'rinishiga ega. Aylanish o'qidan  $r=5\text{ cm}$  da joylashgan nuqtalarda suyuqlik sirtining og'ish burchagi topilsin?

**195.** Akrobat motosiklda radiusi  $r=4\text{ m}$  bo'lgan "o'lik sirtmog'i" ni bajarmoqda. Sirtmoqning eng yuqori nuqtasini akrobat qanday eng kichik tezlik bilan o'tganda u yiqilib ketmaydi?

**196.** Massasi  $m=30\text{ t}$  bo'lgan reaktiv samolyot  $\vartheta=1800\text{ km/h}$  tezlik bilan ekvator bo'ylab G'arbdan Sharqqa tomon uchmoqda. Agar samolyot shu tezlik bilan Sharqdan G'arbga qarab uchsa, ko'tarish kuchi qanchaga o'zgaradi?

**197.** Diametri  $d=12\text{ m}$  burchak tezligi  $\omega=4,04\text{ rad/s}$  bo'lgan sentrifugada gorizontal tekislikda aylanayotgan kosmonavt qanday ortiqcha yukni sezadi?

**198.** Quritish mashinaning radiusi  $R=30\text{ cm}$  bo'lgan barabani vertikal o'q atrofida aylanmoqda. Agar massasi  $m=200\text{ g}$  bo'lgan mato baraban devoriga  $F=950\text{ N}$  kuch bilan bosayotgan bo'lsa u qanday chastota bilan aylanmoqda?

**199.** Biror bir planetaning ekvatorida qutbiga nisbatan jismlar ikki barobar kichik og'irlikka ega. Planeta moddasining zichligi  $\rho=3\cdot10^3\text{ kg/m}^3$ . Planetaning o'z o'qi atrofidagi aylanish davrini aniqlang?

**200.** Evkatorida qutbiga nisbatan prujinali tarozi  $10\%$  kam ko'rsatadigan planetaning o'rtacha zichligi topilsin? Planetada bir sutka  $T=24\text{ soatga teng}$ .

**201.** Yer ekvatorida jismlar vaznsiz bo‘lishi uchun bir sutka necha soatga teng bo‘lishi kerak?

**202.** Agar qutbda ekvatorga nisbatan jism og‘irligi ikki barobar katta bo‘lsa, sharsimon planetaning zichligi topilsin? Planetaning o‘z o‘qi atrofidagi aylanish davri  $T=2$  saat  $40\text{ min}$  ga teng.

## **2-MAVZU**

### **QATTIQ JISMNING HARAKAT KINEMATIKASI VA DINAMIKASI**

#### **Nazorat savollari**

1. Qattiq jismni aylanish o‘qiga nisbatan aylanma harakatini asosiy kinematik haraktyeristikalari (burchakli siljish, burchakli tezlik, burchakli tezlanish, davr va aylanish chastotasi)ni ta’riflang.
2. Ilgarilanma va aylanma harakatlarning kinematik xarakateristikalari bir-biri bilan qanday bog‘langan?
3. Aylanma harakatni asosiy dinamik harakateristikalari (inertsiya momenti, kuch momenti, jismning impuls momenti, kuchning impuls momenti) nimaga bog‘liq?
4. Aylanma harakat dinamikasini asosiy qonunlarini ta’riflang, ularga kiruvchi fizik kattaliklarni tushuntirib bering.
5. Burchakli tezlik, burchakli tezlanish, kuch momenti, Impuls momenti vektorlarining yo‘nalishi qanday aniqlanadi?
6. Ilgarilanma va aylanma harakatlar xarakateristikalari va qonunlari orasidagi o‘xshashlikni ko‘rib chiqing.
7. Aylanish o‘qi parallel ko‘chirilganda jismning inertsiya momenti qanday aniqlanadi?

## Masalalarни yechish uchun uslubiy ko‘rsatmalar

Qattiq jismning aylanma harakat mexanikasi bo‘yicha masalalar yechish metodikasi burilish burchagi, burchakli tezliklariga asoslangan kinematik tenglamalar tuziladi. Bunday tenglamalarni tuzishda burchakli tezlik va burchakli tezlanish vektor kattaliklar ekanligini nazarda tutish kerak. Tekis tezlanuvchan aylanma sharakatda burchakli tezlanishi vektorlarining yo‘nalishi, burchakli tezlikning yo‘nalishi bilan ustma-ust tushadi. Bunday sholda  $\varepsilon$  musbat ishora bilan olinadi. aylana bo‘ylab tekis sekinlanuvchan sharakatda burchakli tezlik vektorining yo‘nalishi bilan qarama-qarshi tushadi. Bunday hollarda  $\varepsilon$  minus ishora bilan olinishi kerakligini esda tutish kerak.

Umuman olganda qattiq jismning aylanma harakat mexanikasi bo‘yicha masalalar yechish metodikasi ilgarilanma harakat mexanikasi bo‘yicha masalalar yechish metodikasidan farq qilmaydi.

Jismning massa markazi harakat dinamikasi uchun  $\sum F_i = ma$  va aylanma harakat dinamikasi uchun  $\sum M_i = I\beta$  asosiy qonunlar tenglamalari qattiq jismni harakat tenglamalaridir. Ular qattiq jism tekis o‘zgaruvchan harakat qilganda kuch va tezlanishni hisoblashda qo‘llaniladi. Harakat tenglamasi sistemaning har bir jismi uchun alohida tuziladi. Agarda qattiq jismlar harakatida inersiya momentiga oid masalalar qo‘llanilsa Shteyner teoremasini ham to‘g’ri qo‘llash zarur.

## Asosiy formulalar

Burchak tezlik

$$\vec{\omega} = \frac{d\vec{\varphi}}{dt}$$

Aylanma bo‘ylab tekis harakatning burchak tezligi

$$\omega = \frac{\varphi}{t} = \frac{2\pi}{T} = 2\pi\nu$$

bu yerda  $\varphi$ - burilish burchagi;  $t$  – biror burchakka burilish uchun ketgan vaqt;  $T$  - aylanish davri;  $\nu$  – aylanish chastotasi.

Burchak tazlanish

$$\vec{\varepsilon} = \frac{d\vec{\omega}}{dt}.$$

Aylanma harakatning kinematik tenglamasi

$$\varphi = \varphi_0 + \omega t$$

bu yerda  $\varphi_0$ - boshlang’ich burchak ko‘chish;  $t$  - vaqt.

Aylanma bo‘ylab tekis o‘zgaruvchan harakatning burilish burchagi va burchak tezligi

$$\varphi = 2\pi N = \omega_0 t + \frac{\varepsilon t^2}{2} \quad \omega = \omega_0 \pm \varepsilon t$$

bu yerda  $N$  - aylanishlar soni;  $\omega_0$  - boshlang’ich burchak tezlik.

Burchak va chiziqli kattaliklar orasidagi bog’lanish:

$$S = R\varphi, \quad \vartheta = R\omega, \quad a_t = R\varepsilon, \quad a_n = \omega^2 R$$

bu yerda  $\varphi$  - burilish burchagi,  $\omega$  - burchak tezlik,  $\varepsilon$  - burchak tezlanish.

Moddiy nuqta inertsiya momenti  $J = mr^2$

bu yerda  $m$  - nuqtaning massasi;  $r$  – nuqtadan aylanish o‘qigacha bo‘lgan masofa.

Jismning inertsiya momenti

$$J = \sum_{i=1}^n m_i r_i^2$$

bu yerda  $r_i$ - massali  $i$  – moddiy nuqtadan aylanish o‘qigacha bo‘lgan masofa.

### **Quyida ayrim bir jinsli jismlarning inertsiya momentlari keltirilgan:**

<i>Nº</i>	<i>Jism</i>	<i>Aylanish o‘qi</i>	<i>Inertsiya momenti J</i>
1.	R radiusli g’ovak yupqa devorli silindr yoki yupqa halqa	Simmetriya o‘qi	$mR^2$
2.	G’ovak qalin devorli silindr	Simmetriya o‘qi	$\frac{1}{2}m(R_1^2 + R_2^2)$
3.	R radiusli silindr yoki disk	Simmetriya o‘qi	$\frac{1}{2}mR^2$
4.	R radiusli silindr yoki disk	Diametrga parallel simmetriya o‘qi	$\frac{1}{4}mR^2$
5.	$l$ uzunlikdagi ingichka sterjen	Sterjenga tik bo‘lib, uning o‘rtasidan o‘tgan o‘q	$\frac{1}{12}ml^2$
6.	$l$ uzunlikdagi ingichka sterjen	Sterjenga tik bo‘lib, uning chetidan o‘tgan o‘q	$\frac{1}{3}ml^2$
7.	Tomonlari $a$ va $b$ bo‘lgan bir jinsli plastinka	Plastinkaga tik bo‘lib, uning markazidan o‘tgan o‘q	$\frac{1}{12}m(a^2+b^2)$
8.	R radiusli shar	Shar markazidan o‘tgan o‘q	$\frac{2}{5}mR^2$
9.	R radiusli sfera	Sfera markazidan o‘tgan o‘q	$\frac{2}{3}mR^2$

Shteyner teoremasi

$$J = J_C + m\omega^2$$

bu yerda  $J_C$  – massalar markazidan o‘tgan o‘qqa nisbatan inertsiya momenti;  $J$  - massalar markazidan o‘tgan o‘qqa parallel bo‘lib, undan  $a$  masofadagi o‘qqa nisbatan inertsiya momenti;  $m$  – jism massasi.

Jismning aylanma harakat kinetik energiyasi

$$T_{ayl} = \frac{1}{2} J_z \omega^2$$

bu yerda  $J_z$ - jismning Z o‘qqa nisbatan inertsiya moment;  $\omega$ -jismning burchak tezligi.

Tekislikda sirpanishsiz dumalayotgan jismning kinetik energiyasi

$$T = \frac{1}{2} m \vartheta_m^2 + \frac{1}{2} J_m \omega^2$$

bu yerda  $m$  - jism massasi;  $\vartheta_m$  – jismning massalar markazini tezligi;  $J_m$  - jismni massalar markazidan o‘tgan o‘qqa nisbatan inertsiya momenti;  $\omega$  - jismning burchak tezligi.

Jismni qo‘zg’almas nuqtaga nisbatan kuch momenti

$$\vec{M} = [\vec{r} \vec{F}]$$

bu yerda  $\vec{r}$  - qo‘zg’almas nuqtadan  $\vec{F}$  kuch qo‘yilgan nuqtaga o‘tkazilgan radius-vektor.

Kuch momenti vektorining moduli

$$M = Fl$$

bu yerda  $l$  – kuch yelkasi.

Jismni aylanishida bajarilgan ish

$$dA = M_z d\varphi$$

bu yerda  $d\varphi$  - jismni burilish burchagi;  $M_z$  - qo‘zg’almas Z o‘qqa nisbatan kuch momenti.

Jismning qo‘zg’almas nuqtaga nisbatan impuls momenti

$$\vec{L} = [\vec{r}\vec{p}] = [\vec{r}m\vec{\vartheta}]$$

bu yerda  $\vec{p} = m\vec{\vartheta}$  - moddiy nuqtani impulsi;  $\vec{L}$ - jismni qo‘zg’almas nuqtaga nisbatan impuls moment.

Impuls momenti vektorining moduli

$$L = rpsina = m\vartheta rsina = pl$$

bu yerda  $\alpha$  -  $r$  va  $p$  vektorlar orasidagi burchak;  $l$  -  $p$  vektorni nuqtaga nisbatan yelkasi.

Qattiq jismni aylanish o‘qiga nisbatan impuls momenti

$$L_z = \sum_{i=1}^n m_i \vartheta_i r_i = J_z \omega$$

bu yerda  $r$  -  $Z$  o‘qidan jismni qaralayotgan zarrasigacha bo‘lgan masofa;  $m_i \vartheta_i$  - ushbu zarraning impulsi;  $J_z$ - jismni  $Z$  o‘qqa nisbatan inertsiya momenti;  $\omega$  - burchak tezlik.

Qo‘zg’almas o‘qqa nisbatan qattiq jism aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi

$$M_z = J_z \cdot \frac{d\omega}{dt} = J_z \cdot \varepsilon$$

bu yerda  $\varepsilon$  - burchak tezlanish;  $J_z$ - jismni  $Z$  o‘qqa nisbatan inertsiya momenti,

Yopiq sistema uchun impuls momentini saqlanish qonuni

$$\vec{L} = \text{const}, \quad J_z \omega = \text{const}$$

bu yerda  $J_z$ - jismni  $Z$  o‘qqa nisbatan inertsiya momenti;  $\omega$ - uning burchak tezligi.

## Masala yechish namunalari

### 1 - masala

Radiusi  $R = 0,1 \text{ m}$  bo‘lgan g’ildirak shunday aylanadiki, g’ildirak radiusining burilish burchagi bilan vaqt orasidagi bog’lanish  $\varphi = A + Bt + Ct^3$  tenglama orqali berilgan, bunda  $B=2 \text{ rad/s}$  va  $C=1 \text{ rad/s}^2$ . Harakat boshlangandan  $t = 2 \text{ s}$  o‘tgach, g’ildirak gardishidagi nuqtalar uchun quyidagi kattaliklar: a) burchak tezlik  $\omega$ ; b) chiziqli tazlik  $\vartheta$ ; v) burchak tezlanish  $\varepsilon$ ; g) tangensial  $a_\tau$  va normal  $a_n$  tezlanishlar topilsin.

#### Yechish:

a) G’ildirakni aylanish burchak tezligi

$$\omega = \frac{d\varphi}{dt} = B + 3Ct^2; \quad \omega = 2 + 3 \cdot 4 = 14 \text{ рад/с.}$$

b) Chiziqli tezligi  $\vartheta = \omega \cdot R$ ;  $\vartheta = 14 \cdot 0,1 = 1,4 \text{ м/с.}$

v) Burchak tezlanishi  $\varepsilon = \frac{d\omega}{dt} = 6Ct$ ;  $\varepsilon = 12 \text{ рад/с}^2$ .

g) Normal tezlanishi  $a_n = \omega^2 R$ ;  $a_n = 14^2 \cdot 0,1 = 19,6 \text{ м/с}^2$ .

Tangensial tezlanishi  $a_\tau = \varepsilon R$ ;  $a_\tau = 12 \cdot 0,1 = 1,2 \text{ м/с}^2$ .

### 2 - masala

Tekis tezlanish bilan aylanayotgan g’ildirak harakat boshidan  $N=10$  marta aylangandan keyin  $\omega = 20 \text{ rad/s}$  burchak tezlikka erishsa, uning burchak tezlanishi  $\varepsilon$  topilsin.

#### Yechish:

G’ildirakni harakat tenglamasi  $\varphi = \omega_0 t + \frac{\varepsilon \cdot t^2}{2}$ ,  $\omega = \omega_0 + \varepsilon t$ .

Masala shartiga ko‘ra  $\omega_0 = 0$ . Unda  $\varphi = \frac{\varepsilon \cdot t^2}{2}$  (1);  $\omega = \varepsilon t$  (2)

$\varepsilon$  ni (1) tenglamadan ifodasini topib, hamda  $\varphi = 2\pi N$  ekanligini hisobga olsak

$$\varepsilon = 4\pi N/t^2 \quad (3).$$

ni olamiz. (2) tenglamadan  $t = \frac{\omega}{\varepsilon}$  va uni (3) ga qo'ysak

$\varepsilon = \frac{\omega^2}{4\pi N}$  ni olamiz, bundan  $\varepsilon = 3,2 \text{ rad}/c^2$  qiymatni olamiz.

$\varepsilon > 0$  ekanligini hisobga olsak  $\vec{\varepsilon}$  ning yo'nalishi  $\vec{\omega}$  vektoring yo'nalishi bilan mos tushadi.

### 3 - masala

Ipga bog'langan tosh vertical tekislikda tekis aylantirilmoqda. Agar ipning maksimal va minimal taranglik kuchlarining farqi  $\Delta T = 10 \text{ N}$  ga tengligi ma'lum bo'lsa, toshning massasi  $m$  topilsin.

**Yechish:**

Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan(24-rasm) yo'qorigi va pastki nuqtalar uchun mos ravishda:


$$mg + T_{min} = m a_n \quad (1)$$

$$mg - T_{max} = -m a_n \quad (2)$$

bo'ladi. (1) va (2) larni qo'shib quyidagini olamiz:

$$2mg - \Delta T = 0; \quad 2mg = \Delta T,$$

$$\text{bundan } m = \frac{\Delta T}{2g}; \quad m \approx 0,5 \text{ kg}.$$



24-rasm.

### 4 - masala

Inertsiya moment  $J = 63,6 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$  ga teng bo'lgan maxovik  $\omega = 31,4 \text{ rad/s}$  o'zgarmas burchak tezlik bilan aylanmoqda. Maxovik tormozlovchi moment ta'sirida  $t = 20 \text{ s}$  dan keyin to'xtasa, tormozlovchi  $M$  moment topilsin.

### Yechish:

Tormozlovchi kuch momenti  $M = J\varepsilon$ , bu yerda burchak tezlanish  $\varepsilon = \frac{\omega}{t}$ , aylanishni tekis sekunlanuvchanligini hisobga olsak oxirgi burchak tezlik  $\omega = 0$  va bunda

$$M = \frac{J\omega}{t}; \quad M \approx 100 \text{ N}.$$

### 5 – masala


Massalari  $m_1=2 \text{ kg}$  va  $m_2 = 1 \text{ kg}$  bo‘lgan ikkita tosh ip bilan tutashtirilgan va massasi  $m = 1 \text{ kg}$  bo‘lgan blokka osilgan (25-rasm). Toshlar harakatini tezlanishi  $a$ , toshlar osilgan iplarning  $T_1$  va  $T_2$  taranglik kuchlari topilsin. Blok bir jinsli disk deb hisoblansin. Ishqalanish hisobga olinmasin.

**Yechish:** Birinchi va ikkinchi yuklarni ilgarilanma harakat tenglamalarini vektor ko‘rinishdagi ifodasini yozamiz:

$$m_1\vec{a} = m_1\vec{g} + \vec{T}_1$$

$$m_2\vec{a} = \vec{T}_2 + m_2\vec{g}$$

va diskni aylanma harakat tenglamasi.



25-rasm.

$J\vec{\varepsilon} = \overrightarrow{M_1} + \overrightarrow{M_2}$ , bu yerda  $M_1$  – ipning taranglik kuchi  $T_1$  ni momenti,  $M_2$  – ipning taranglik kuchi  $T_2$  ni momenti. Yo‘qaridagi ikki tenglamani  $x$  o‘qiga proeksilarini olamiz, keyingisini  $y$  o‘qiga ham proyeksiyasini olamiz va kinematik bog’lanosh tenglamasini qo‘shamiz. Natijada 4 ta tenglamalar sistemasini olamiz:

$$m_1a = m_1g - T_1 \quad (1)$$

$$J\varepsilon = RT_1 - RT_2 \quad (3)$$

$$-m_2a = m_2g - T_2 \quad (2)$$

$$a = \varepsilon R. \quad (4)$$

(4) ni (3)ga qo‘yamiz:  $J\frac{a}{R} = R(T_1 - T_2) \quad (5)$ . (2) ni (1) dan ayiramiz va olingan ifodani (5) ga qo‘yamiz va quyidagini topamiz:

$a = \frac{(m_1 - m_2)g}{m_1 + m_2 + m/2} = 2,8 \text{ m/s}^2$  (6). Bu (6) ifodani (1) va (2) ga qo‘yib quyidagilarni olamiz:

$$T_1 = m_1(g - a); \quad T_1 = 14N. \quad T_2 = m_2(g + a); \quad T_2 = 12,6 N.$$

## 6-masala

Gorizontal o‘qqa radiusi  $R$  bo‘lgan shkiv o‘rnatilgan. Shkivga shnur o‘tkazilgan bo‘lib, uning bo‘sh uchiga  $m_1 = 2 \text{ kg}$  massali tosh osilgan.  $M_2 = 10 \text{ kg}$  shkiv massasining gardish bo‘ylab tekis taqsimlangan deb hisoblab toshni tushish tezlanishi  $a$  ni, shnurning taranglik kuchi  $T$  ni va shkivning o‘qqa ko‘rsatadigan bosim kuchi  $N$  ni aniqlang?

### Yechish:

Shkiv inertsiya markazining tezlanishi  $a_0 = 0$  bo‘lgani va shkiv faqat aylanayotgani sababli harakat tenglamalari quyidagi ko‘rinishda yoziladi:  $a) F_i = 0. \quad b) M_i = I\beta.$  (1)

Shkivga og‘irlik kuchi  $mg$ , shnurning taranglik kuchi  $T$  va uning reaksiya kuchi  $N$  ta’sir etadi. O‘qning reaksiya kuchi  $N$  son jihatdan shkivni o‘qqa ko‘rsatayotgan bosim kuchiga teng (Nyutonning uchinchi qonuniga binoan).  $N$  kuch vertikal ravishda yuqoriga yo‘nalgan, chunki faqat shu holdagina (1) tenglik bajarilishi mumkin. Skalar ko‘rinishda u quyidagicha yoziladi:  $mg + T - N = 0.$  (2) Shkivni aylantiruvchi taranglik kuchning momenti  $M = T \cdot R$  formula yordamida aniqlanishi mumkin bo‘lgani uchun, (1b) tenglik quyidagi ko‘rinishga keladi (bunda  $R =$  kuch yelkasi)  $TR = I\beta$  (3)

Massasi gardish bo‘ylab taqsimlangan shkivni inertsiya momenti

$$I = mR^2 \quad (4)$$

formula bilan aniqlangan.

Tushayotgan tosh uchun ham Nyutonning ikkinchi qonunini skalyar ko‘rinishda qo‘llaymiz:

$$m_1g - T = m_1a \quad (5)$$

Toshning tezlanishi shkiv gardishidagi nuqtalarning chiziqli tezlanishiga teng bo‘lgani sababli

$$\beta = \frac{a}{R} \quad (6)$$

teng bo‘ladi. (2), (3), (5) tenglamalarga (4) va (6) ni qo‘yib sistema hosil qilamiz:

$$\begin{cases} m \cdot g + T - N = 0 \\ m_1 \cdot g - T = m_1 \cdot a \\ T \cdot R = mR^2 \cdot \frac{a}{R} \end{cases}$$

Buni yechib, noma’lum kattaliklarni topamiz:

$$a = \frac{m_1}{m_1+m} g = 1,67 \frac{m}{s^2}; \quad T = \frac{mm_1}{m_1+m} g = 16,67 \text{ N}; \quad N = \frac{m(m+2m_1)}{m \cdot m_1} g = 116 \text{ N}$$

## 7 – masala


Inertsiya moment  $J = 0,1 \text{ kg m}^2$  ga teng bo‘lgan,  $R = 20 \text{ cm}$  radiusli barabanga ip o‘ralib, uning uchiga  $m_1 = 0,5 \text{ kg}$  yuk osilgan.  $m_1$  massali yuk baraban aylanguncha poldan  $h_o = 1 \text{ m}$  balandlikda bo‘lgan. Qancha t vaqtdan keyin yuk polga tushadi? Yuk polga urilgandagi kinetic energiyasi  $W_K$  va ipning taranglik kuchi  $T$  topilsin. Ishqalanish hisobga olinmasin.

**Yechish:** Yukni tushishuda uning potensial energiyasi ilgarilanma harakat kinetik energiyasi va aylanma harakat kinetik energiyasiga aylanadi:

$$mgh_o = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2} \quad (1), \quad \text{bu yerda } \omega = \frac{\vartheta}{R},$$

$$\text{bundan } mgh_o = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{J\vartheta^2}{2R^2} = \frac{R^2\vartheta^2 m + J\vartheta^2}{2R^2} \text{ yoki}$$

$$mgh_o = \frac{\vartheta^2(mR^2 + J)}{2R^2}; \quad v = \sqrt{\frac{2R^2 mgh_o}{(mR^2 + J)}} \quad (2)$$



26-rasm.

Harakat tekis tezlanuvchan harakatdan iborat, shuning uchun

$$h_0 = \frac{at^2}{2} \quad (3) \quad a = \varepsilon R; \quad \varepsilon = \frac{\omega}{t}; \quad h_0 = \frac{\omega R t^2}{2t} = \frac{\vartheta R t}{2R} = \frac{\vartheta t}{2} \quad (4).$$

t ni (4) dan ifodasini topamiz va (2) ga qo‘yamiz:

$$t = \frac{2h_0}{\vartheta} = \sqrt{\frac{4h_0(mR^2 + J)}{2R^2 mgh_0}} = \sqrt{\frac{2(mR^2 + J)}{R^2 mg}}; \quad t = 1,1 \text{ s.}$$

Kinetik energiya  $W_k = \frac{m\vartheta^2}{2}$ , buni (2) tenglamaga qo‘yib, quyidagini olamiz:

$$W_k = \frac{m2R^2 mgh_0}{2(mR^2 + J)} = \frac{R^2 m^2 gh_0}{mR^2 + J}; \quad W_K = 0,82 \text{ J.}$$

Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan  $mg - T = ma$ , bundan  $T = m(g - a)$ .

(3) dan:  $a = \frac{2h_0}{t^2}$ , bundan  $T = m(g - 2h_0/t^2)$ ;  $T = 4,1 \text{ N}$ .

## 8 – masala

$m = 1 \text{ kg}$  massali blok stolning qirrasiga mahkamlangan(27-rasm). Massalari  $m_1 = m_2 = 1 \text{ kg}$  bo‘lgan toshlar ip bilan tutashtirilgan va blokka osilgan. Stol ustidagi yukni stolga ishqalanish koeffisienti  $\mu = 0,1$  ga teng. Blok bir jinsli disk deb hisoblansin. Blokdagi ishqalanish hisobga olinmasin. Yuklar harakatining tezlanishi  $a$ , iplarning  $T_1$  va  $T_2$  taranglik kuchlari topilsin.

**Yechish:** Nyutonning ikkinchi qonunini  $x$  va  $y$  o‘qlariga proyeksiyalarini yozamiz:


$$m_1 a = m_1 g - T_1 \quad (1)$$

$$m_2 a = T_2 - F_{mp} \quad (2)$$

bunda  $F_t = \mu m_2 g \quad (3)$ .

$(T_1 - T_2)$  kuchlar farqi aylantiruvchi kuch

momentini hosil qiladi:



27-rasm.

$$(T_1 - T_2)R = \frac{Ja}{R}, \quad \text{bu yerda } J = \frac{mR^2}{2}, \quad \text{bundan } T_1 - T_2 = \frac{ma}{2} \quad (4).$$

(1) — (3) tenglamalardan

$$T_1 = m_1(g - a); \quad (5); \quad T_2 = m_2(a + \mu g) \quad (6) \quad \text{larni olamiz.}$$

Aytaylik  $m_1 = m_2 = m'$  bo'lsin.

Unda  $T_1 - T_2 = m'(g - 2a - \mu g) = m'g(1 - \mu) - 2m'a$ , bularni (1) ga qo'yib

$$mg(1 - \mu) = \frac{ma}{2} + 2m'a = \frac{a(m + 4m')}{2} \quad \text{ni olamiz.}$$

Bundan

$$a = \frac{2m'g(1 - \mu)}{m + 4m'}; \quad a = 3,5 \text{ m/s}^2.$$

Unda (5) tenglamadan

$$T_1 = 6,3 \text{ N}; \quad T_2 = 4,5 \text{ N}.$$

## Variantlar jadvali

<b>Variant raqami</b>	<b>Masalalar raqami</b>					<b>Variant raqami</b>	<b>Masalalar raqami</b>			
<b>1</b>	4	53	101	151	<b>26</b>	21	76	117	153	
<b>2</b>	3	52	102	152	<b>27</b>	22	77	118	155	
<b>3</b>	2	51	103	154	<b>28</b>	23	78	119	156	
<b>4</b>	1	54	104	158	<b>29</b>	24	79	120	157	
<b>5</b>	7	55	105	159	<b>30</b>	34	80	127	161	
<b>6</b>	5	68	106	160	<b>31</b>	35	81	128	162	
<b>7</b>	6	69	107	169	<b>32</b>	36	82	129	163	
<b>8</b>	10	67	108	170	<b>33</b>	37	83	130	164	
<b>9</b>	8	66	109	173	<b>34</b>	31	84	131	165	
<b>10</b>	9	65	110	176	<b>35</b>	32	85	132	166	
<b>11</b>	13	56	111	179	<b>36</b>	33	86	133	167	
<b>12</b>	11	57	112	180	<b>37</b>	30	87	134	168	
<b>13</b>	12	58	113	143	<b>38</b>	44	89	135	171	
<b>14</b>	15	59	114	144	<b>39</b>	45	88	136	172	
<b>15</b>	14	60	115	145	<b>40</b>	47	98	137	174	
<b>16</b>	20	61	116	146	<b>41</b>	48	94	138	175	
<b>17</b>	19	62	121	147	<b>42</b>	49	95	142	177	
<b>18</b>	16	63	122	148	<b>43</b>	22	96	143	178	
<b>19</b>	17	64	123	149	<b>44</b>	40	90	144	161	
<b>20</b>	18	72	124	150	<b>45</b>	39	91	145	162	
<b>21</b>	25	71	125	176	<b>46</b>	38	92	146	166	
<b>22</b>	26	70	156	178	<b>47</b>	41	97	147	167	
<b>23</b>	27	73	139	177	<b>48</b>	42	98	148	169	
<b>24</b>	28	74	140	174	<b>49</b>	43	99	143	170	
<b>25</b>	29	75	141	172	<b>50</b>	45	50	100	171	

## Mustaqil yechish uchun masalalar

1. Jism gorizontal tekislikda  $900 \text{ km/h}$  tezlik bilan  $5 \text{ km}$  radiusli aylana bo‘ylab harakat qiladi. Uning markazga intilma tezlanishi ( $\text{m/s}^2$ ) qanday?
2. Erkin tushayotgan jismning tezligi biror vaqtdan keyin  $6 \text{ m/s}$  ga teng bo‘ldi.  $2 \text{ s}$  dan keyin jismning tezligi qanday bo‘ladi?  $g=10 \text{ m/s}^2$
3. Agar raketadan  $500 \text{ m/s}$  tezlik bilan har sekundda  $10 \text{ kg}$  gaz otilib chiqsa, raketaga qanday reaktiv kuch ( $\text{kN}$ ) ta’sir etadi?
4. Nuqtaning radiusi  $R = 4 \text{ m}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab harakati tenglamasi  $\varphi = 10 - 2t + t^2$  bilan ifodalanadi. Vaqtning  $t = 2 \text{ s}$  momentidagi nuqtani  $a_\tau$ , normal  $a_n$  va to‘liq tezlanishlarini toping?
5. Massasi  $4 \text{ kg}$  bo‘lgan jism  $5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan arqon yordamida yuqoriga ko’tarilayapti. Arqonning taranglik kuchini ( $\text{N}$ ) aniqlang.  $g=10 \text{ m/s}^2$ .
6. Radiusi  $1 \text{ m}$  bo‘lgan g‘ildirak shunday aylanmoqdaki, uning radiusini burilish burchagining vaqtga bog‘liq tenglamasi  $\varphi = 4t + 0,05t^2$  ko‘rinishga ega. Harakat boshlanishidan to‘rtinchi sekundni oxiridagi to‘liq tezlanishni aniqlang?
7. Aylanayotgan g‘ildirakni burchakli tezlanishi  $\varepsilon=3,14 \text{ rad/s}^2$ . Harakat tekis tezlanuvchan bo‘lsa, harakat boshlanishidan so‘ng o‘n marta aylanganda u qanday burchakli tezlikka erishadi?
8. Avtomobil egrilik radiusi  $R=50 \text{ m}$  bo‘lgan yo‘lning burilishida harakatlanmoqda. Avtomobilning harakat  $S = 10 + 10t - 0,5t^2$  tenglamaga ega. Vaqtini  $t = 5 \text{ s}$  momentidagi to‘liq tezlanishini toping?
9. G‘ildirak shunday aylanmoqdaki, uning vaqtga bog‘liq ravishda burilish burchagi  $\varphi = A + Bt + Ct^2 + Dt^3$ , tenglama bilan beriladi,

bunda  $B = 1 \text{ rad/s}$ ,  $C = 1 \text{ rad/s}^2$  va  $D = 1 \text{ rad/s}^3$ . Agar harakatning ikkinchi sekundini oxirida g‘ildirak gardishida yotgan nuqtalarning normal tezlanishi  $a_n = 3,45 \cdot 10^2 \text{ m/s}^2$  bo‘lsa, g‘ildirak radiusini toping?

**10.** Qattiq jism qo‘zg‘almas o‘q atrofida  $\varphi = At - Bt^3$  qonun bo‘yicha aylanmoqda, bunda  $A = 6 \text{ rad/s}$ ,  $B = 2 \text{ rad/s}^3$ .  $t = 0$  dan qattiq jism to‘xtagunga qadar o‘tgan vaqt oralig‘idagi burchakli tezlik va burchakli tezlanishlarning o‘rtacha qiymatlarini toping?

**11.** Radiusi  $1 \text{ m}$  aylana bo‘ylab  $S = At + Bt^3$  qonun bo‘yicha aylanayotgan nuqtaning tezligi  $v$  ni va to‘liq tezlanishi  $a$  ni toping, bunda  $A = 8 \text{ m/s}$ ,  $B = -1 \text{ m/s}^2$ .  $S$  – aylana bo‘ylab boshlang‘ich deb olingan nuqtadan o‘lchangan egri chiziqli koordinatadir.

**12.** Nuqta radiusi  $R = 4 \text{ m}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab harakatlanmoqda. Uning harakatining qonuni  $x = A + Bt^2$ , bunda  $A = 8 \text{ m}$ ,  $B = -2 \text{ m/s}^2$ . Vaqtini  $t = 1,5 \text{ s}$  momentdagi nuqtaning tezligini, tangensial va to‘liq tezlanishlarini toping?

**13.** Nuqta radiusi  $R = 2 \text{ m}$  aylana bo‘ylab  $\varepsilon = At^3$  tenglama asosida harakatlanmoqda, bunda  $A = 2 \text{ m/s}^3$ . Nuqtaning normal tezlanishi tangensial tezlanishiga teng bo‘lgan momentda uning to‘liq tezlanishi  $a$  ni toping?  $\varepsilon$ -aylana bo‘ylab boshlang‘ich nuqtadan o‘lchangan egri chiziqli koordinatadir.

**14.** Radiusi  $R = 0,3 \text{ m}$  bo‘lgan g‘ildirak  $\varphi = At + Bt^3$  tenglama asosida aylanmoqda, bunda  $A = 1 \text{ rad/s}$ ,  $B = 0,1 \text{ rad/s}^3$ .  $t = 2 \text{ s}$  vaqt momentida g‘ildirak aylanasidagi nuqtalarni to‘liq tezlanishini aniqlang?

**15.** Radiusi  $r = 20 \text{ cm}$  bo‘lgan disk  $\varphi = At + Bt^2 + Ct^3$  tenglama asosida aylanmoqda, bunda  $A=3 \text{ rad}$ ,  $B=-1 \text{ rad/s}$ ,  $C=0,1 \text{ rad/s}^3$ .

Vaqtning  $t=10$  s momenti uchun disk aylanasiagi nuqtalarni tangensial  $a_t$ , normal  $a_n$  va to‘liq tezlanishlarini aniqlang?

**16.** Radiusi  $1$  m bo‘lgan g‘ildirak shunday aylanmoqdaki, uning radiusini vaqtga bog‘liq ravishda burilish burchagi  $\varphi = 2 + 16t - 2t^2$  tenglama ko‘rinishda. G‘ildirak gardishidagi nuqtalar uchun uchinchi sekund oxiridagi to‘liq tezlanishi topilsin?

**17.** Avtomobil tinch holatdan radiusi  $R = 75$  m bo‘lgan aylana bo‘ylab harakat boshlab,  $t = 10$  s da  $S = 25$  m yo‘l bosadi. O‘ninchisini sekundning oxiridagi tangensial  $a_t$  va normal  $a_n$  tezlanishlarni toping?

**18.** Jism qo‘zg‘almas o‘q atrofida  $\varphi = A + Bt + Ct^2$  qonun bo‘yicha aylanmoqda, bunda  $A = 10$  rad,  $B = 20$  rad/s,  $C = -2$  rad/s $^2$ . Vaqtning qaysi momentida aylanish o‘qidan  $r = 0.1$  m uzoqlikda yotgan nuqtaning to‘liq tezlanishi  $1,65$  m/s $^2$  ga teng bo‘ladi?

**19.** Nuqtaning radiusi  $R = 4$  m bo‘lgan aylana bo‘ylab harakatining tenglamasi  $\xi = A + Bt + Ct^2$  ko‘rinishda, bunda  $A = 10$  m,  $B = -2$  m/s,  $C = 1$  m/s $^2$ . Vaqtning  $t = 2$  s momentidagi nuqtani tangensial  $a_t$ , normal  $a_n$  va to‘liq  $a$  tezlanishlarini toping?

**20.** Nuqta radiusi  $R=1,2$  m bo‘lgan aylana bo‘ylab aylanmoqda. Nuqtaning harakat tenglamasi  $\varphi = At + Bt^3$  bo‘lib, bunda  $A=0,5$  rad/s,  $B=0,2$  rad/s $^3$ . Vaqtning  $t = 4$  s momentidagi nuqtani tangensial  $a_t$ , normal  $a_n$  va to‘liq  $a$  tezlanishlarini toping?

**21.**  $\varepsilon=8,33$  rad/s $^2$  tezlanish bilan gorizontal o‘q atrofida aylana oladigan silindrga ip o‘ralgan. Ipning bo‘sh uchiga yukcha osilib, u qo‘yib yuborildi. Qancha vaqt ichida yukcha tekis tezlanuvchan harakat qilib  $h = 1,6$  m pastga tushadi?

- 22.** Radiusi  $R = 0,4 \text{ m}$  bo‘lgan g‘ildirak  $\varphi = 5 + 4t^2 - t^3$  tenglama asosida aylanmoqda. Vaqtning  $t = 1 \text{ s}$  momentida g‘ildirak gardishidagi nuqtalarni to‘liq tezlanishini toping?
- 23.** Radiusi  $R = 0,5 \text{ m}$  bo‘lgan g‘ildirak  $\varphi = At + Bt^3$  tenglama asosida aylanmoqda, bunda  $A=2 \text{ rad/s}$ ,  $B=0,2 \text{ rad/s}^3$ . G‘ildirak gardishida yotgan nuqtani vaqtning  $t=3 \text{ s}$  momentidagi to‘liq tezlanishini toping?
- 24.** Moddiy nuqta radiusi  $R = 20 \text{ cm}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab  $a_t = 5 \text{ cm/s}^2$  tangensial tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlanmoqda.. Harakat boshidan qancha vaqt o‘tgach normal tezlanish tangensial tezlanishdan  $n = 2$  marta ortiq bo‘ladi?
- 25.** Qattiq jismning aylanish tenglamasi  $\varphi=3t^2+t$ . Harakat boshidan  $10 \text{ s}$  o‘tgach jismning aylanish sonini, burchakli tezlik va burchakli tezlanishini toping?
- 26.** Tinch holatda turgan moddiy nuqta  $0,6 \text{ m/s}^2$  o‘zgarmas tangensial tezlanish bilan aylana bo‘ylab harakatlana boshladi. Harakat boshidan beshinchi sekundning oxirida normal va to‘liq tezlanishlari nimaga teng bo‘ladi? Agar aylananing radiusi  $5 \text{ cm}$  bo‘lsa, nuqta shu vaqt davomida necha marta aylanadi?
- 27.** Disk, uning o‘rtasidan o‘tuvchi o‘q atrofida  $180 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. Agar aylanish o‘qiga  $8 \text{ cm}$  yaqinroq joylashgan nuqtalarni tezligi  $8 \text{ cm/s}$  bo‘lsachi, diskning chetki nuqtalarining chiziqli tezligini toping,?
- 28.** Maxovik g‘ildirakni aylanishida uning burchakli tezlanishi  $\beta = a - b\omega$  qonun bo‘yicha o‘zgaradi. Agar tormozlanishdan oldin

maxovikni burchakli tezligi  $\omega_o$  bo‘lgan bo‘lsa, tormozlanishdan keyin t sekund o‘tgach u nimaga teng bo‘ladi?

**29.** Agar turbina lopatkasi chiziqli tezligi vaqtga bog‘liq o‘zgarishi  $\vartheta = At + Bt^3$  tenglama bo‘yicha bo‘lsa, turbina ishga tushgandan  $t=15s$  o‘tgach aylanish o‘qidan 1 m uzoqlikda joylashgan lopatkaning burchakli tezlanishini toping? Bu yerda  $A=2 \text{ m/s}^2$ ,  $B=0,8 \text{ m/s}^3$ .

**30.** Moddiy nuqta diametri 40 m bo‘lgan aylana bo‘ylab harakatlanmoqda. Vaqtga bog‘liq ravishda bosib o‘tilgan yo‘ning tenglamasi  $S = t^3 + 4t^2 - t + 8$  ko‘rinishda. Harakat boshlangandan so‘ng 4 s o‘tgach bosib o‘tilgan yo‘lni, tezlikni, normal, tangensial va to‘liq tezlanishlarni toping?

**31.** Qattiq jismni harakat tenglamasi  $\varphi = 3t^2 + t$  ko‘rinishda. Harakat boshlangandan so‘ng 10 s o‘tgach jismni aylanish sonini, burchakli tezlik va burchakli tezlanishni aniqlang?

**32.** Radiusi 20 cm aylana bo‘ylab moddiy nuqta harakatlanmoqda. Uning harakat tenglamasi  $S = 2t^2 + t$ . Vaqtini  $t=10$  s momentida nuqtaning tangensial, normal va to‘liq tezlanishlari nimaga teng bo‘ladi?

**33.** Radiusi 20 cm bo‘lgan g‘ildirak qo‘zg‘almas o‘q atrofida tekis tezlanuvchan aylana boshlab, 2 s dan so‘ng 5 ayl/min burchakli tezlikka erishadi. Harakat boshlangandan so‘ng 2 s o‘tgach tangensial, normal va to‘liq tezlanishlarni aniqlang?

**34.** Tormozlanuvchi kuchlar ta’sirida maxovik 20 marta aylanishda burchakli tezligini shunchalik kamaytirdiki, uning bir sekundda aylanishlar soni 100 dan 10 tagacha kamaydi. Shu tormozlanishda maxovikning burchakli tezlanishi topilsin? Tormozlanishda maxovikning aylanishi tekis sekinlanuvchan deb hisoblansin.

- 35.** Bir o‘qqa diametrlari  $16 \text{ cm}$  va  $4 \text{ cm}$  bo‘lgan ikki g‘ildirak o‘rnatilgan. Ular  $4 \text{ rad/s}^2$  o‘zgarmas burchakli tezlanish bilan aylanmoqdalar. Harakat boshlanishidan ikkinchi sekundni oxirida g‘ildiraklar gardishini chiziqli tezliklarini va aylanish burchakli tezligini toping?
- 36.**  $360 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanayotgan maxovikka tormoz kolodkasini bosishdi. Shu momentdan boshlab u  $20 \text{ 1/s}^2$  tezlanish bilan tekis sekinlanuvchan aylanma harakat qiladi. Uning to‘xtashigacha qancha vaqt kerak bo‘ladi? To‘xtaguncha u necha marta aylandi?
- 37.** Nuqta radiusi  $R = 10 \text{ cm}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab o‘zgarmas tangensial tezlanish  $a_t$  bilan harakatlanmoqda. Agar harakat boshlangandan so‘ng beshinchi aylanishni oxirida nuqtaning chiziqli tezligi  $\vartheta = 10 \text{ cm/s}$  bo‘lsa, harakat boshlangandan so‘ng  $t = 20 \text{ s}$  vaqt o‘tgach nuqtaning normal tezlanishi  $a_n$  ni toping?
- 38.** Agar g‘ildirak gardishida yotgan nuqtaning chiziqli tezligi undan g‘ildirak o‘qiga  $\Delta R = 5 \text{ cm}$  yaqinroq joylashgan nuqtaning chiziqli tezligidan  $n = 2,5$  marta katta bo‘lsa, aylanayotgan g‘ildirakni radiusi  $R$  ni toping?
- 39.** Disk tekis tezlanuvchan aylanib,  $t = 5 \text{ s}$  davomida  $n = 600 \text{ ayl/min}$  aylanish chastotasiga erishdi. Shu vaqt davomida u qanday burchakli tezlanish bilan va necha marta aylangan?
- 40.**  $n=240 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanayotgan maxovik g‘ildiragi  $t=0,5 \text{ min}$  vaqt davomida to‘xtaydi. Uning harakatini tekis o‘zgaruvchan deb hisoblab, u to‘xtagunga qadar bajargan aylanishlar soni  $N$  ni toping?

- 41.** Val aylanishni tinch holatdan boshlab, birinchi  $t = 10 \text{ s}$  vaqt ichida  $N = 50$  marta aylanadi. Val aylanishini tekis tezlanuvchan deb hisoblab burchakli tezlanishini va oxirgi burchakli tezligini toping?
- 42.** Jismni aylana bo‘ylab aylanishida to‘liq tezlanishi  $a$  bilan chiziqli tezligi  $\nu$  orasidagi burchak  $\alpha=30^\circ$ .  $\frac{a_n}{a_\tau}$  nisbatni son qiymati nimaga teng?
- 43.** Ventilyator  $n_o = 900 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. O‘chirilgandan so‘ng ventilyator tekis sekinlanuvchan aylanib, to‘xtaguncha  $N = 75 \text{ marta}$  aylandi. Ventilyatorni o‘chirilishidan uning to‘xtashigacha o‘tgan vaqtini aniqlang?
- 44.** Qo‘zg‘almas o‘qdagi g‘ildirak  $0,1 \text{ rad/s}^2$  burchakli tezlanish bilan tekis tezlanuvchan aylana boshlaydi. Harakat boshlangandan so‘ng  $2 \text{ s}$  o‘tgach aylanish o‘qidan  $50 \text{ cm}$  masofada joylashgan g‘ildirak nuqtalarini tangensial, normal va to‘liq tezlanishlarini aniqlang?
- 45.** Jism  $5 \text{ s}^{-1}$  boshlang‘ich burchakli tezlik bilan va burchakli  $1 \text{ s}^{-2}$  tezlanish bilan tekis tezlanishda aylanmoqda. Jism  $10 \text{ s}$  davomida necha marta aylanadi?
- 46.** Nuqta radiusi  $60 \text{ cm}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab  $10 \text{ m/s}^2$  tangensial tezlanish bilan harakatlanmoqda. Harakat boshlangandan so‘ng uchinchi sekund oxirida normal va to‘liq tezlanishlar nimaga teng bo‘ladi? Shu momentda to‘liq va normal tezlanish vektorlarini orasidagi burchak nimaga teng bo‘ladi?
- 47.** Qattiq jismning aylanish tenglamasi  $\varphi = 4t^3 + 3t$ . Aylanish boshlangandan so‘ng  $2 \text{ s}$  o‘tgach burchakli tezlik va burchakli tezlanishni toping?

- 48.** G‘ildirak tekis tezlanuvchan aylanib harakat boshlagandan so‘ng  $10 \text{ marta}$  aylanib  $\omega = 20 \text{ rad/s}$  burchakli tezlikka erishdi. G‘ildirakning burchakli tezlanishini aniqlang?
- 49.** Ventilator  $n=900 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanadi. Ventilator o‘chirilgandan so‘ng tekis sekinlashuvchan aylanib,  $10 \text{ s}$  o‘tgach u to‘xtaydi. U to‘xtagunga qadar necha marta aylanadi?
- 50.** Nuqta  $0.2 \text{ rad/s}^2$  o‘zgarmas burchakli tezlanish bilan aylana bo‘ylab harakatlanadi. Harakat boshlangandan song qancha vaqt o‘tgach nuqtaning normal tezlanishi tangensial tezlanishidan besh marta ortiq bo‘ladi?
- 51.** Radiusi  $30 \text{ cm}$  bo‘lgan g‘ildirak qo‘zgalmas o‘q atrofida minutiga  $10 \text{ marta}$  aylanadi. Vujudga kelgan tormozlovchi moment ta’sirida g‘ildirak to‘xtaydi, shu vaqt ichida, g‘ildirak  $30^\circ$  ga burilib to‘xtaydi. Tormozlanishni boshlang‘ich momentida g‘ildirak gardishida yotgan nuqtalarni tangensial, normal va to‘liq tezlanishlarini aniqlang? Tormozlanishdagi aylanishni tekis sekinlanuvchan deb hisoblansin.
- 52.** Moddiy nuqta radiusi  $R=1 \text{ m}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab tekis tezlanuvchan harakat boshlab  $t_1=10 \text{ s}$  davomida  $S=50 \text{ m}$  yol bosdi. Harakat boshlangandan so‘ng qancha  $t_2$  vaqt o‘tgach nuqta  $a_n = 0,25 \text{ m/s}^2$  normal tezlanish bilan harakatlangan?
- 53.** Maxovik tinch holatdan tekis tezlanuvchan aylana boshlab  $N = 40 \text{ marta}$  aylandi, so‘ngra aylanishni o‘zgarmas  $n = 8 \text{ ayl/min}$  chastota bilan davom ettirdi. Maxovikni burchakli tezlanishini va tekis tezlanuvchan aylanish vaqtini aniqlang?
- 54.** Maxovik tekis sekinlanuvchan aylanib, aylanish chastotasini  $6,25 \text{ s}$  vaqt oraligida  $n_1 = 10 \text{ ayl/s}$  dan  $n_2 = 6 \text{ ayl/s}$  gacha kamaytirdi. Shu vaqt

davomida u necha marta aylanadi? U qanday burchakli tezlanish bilan aylanadi?

**55.** Gorizontal o‘q atrofida aylana oladigan silindrga ip o‘ralgan. Ipnинг uchiga yuk bog‘lab, yuk qo’yib yuborildi. Yuk tekis tezlanuvchan harakat qilib  $t=3$  s ichida  $h=1,5$  m ga pasaydi. Agar silindrni radiusi  $r = 4$  cm bo‘lsa, uning burchakli tezlanishi  $\beta$  topilsin?

**56.** O‘zgarmas  $n_1 = 10$  ayl/s chastota bilan aylanayotgan maxovik tormozlanish natijasida tekis sekinlanuvchan aylana boshlaydi. Tormozlanish tugagach u yana tekis aylana boshlaydi, faqat endi uning chastotasi  $n = 6$  ayl/s ga teng bo‘ladi. Agar tekis sekunlanuvchan harakat davomida maxovik  $n = 50$  marta aylangan bo‘lsa, uning burchakli tezlanishini va tormozlanish vaqtini toping?

**57.** Radiusi  $R = 10$  cm bo‘lgan disk tinch holatdan  $\varepsilon = 0,5$  rad/s<sup>2</sup> o‘zgarmas burchakli tezlanish bilan aylana boshlaydi. Aylana boshlagandan so‘ng ikkinchi sekundning oxirida disk aylanasidagi nuqtalarning tangensial  $a_t$ , normal  $a_n$  va to‘liq  $a$  tezlanishlarni toping?

**58.** Nuqta aylana bo‘ylab tekis tezlanuvchan harakat qilmoqda. Necha marta aylangandan so‘ng normal tezlanish tangensial tezlanishdan 25 marta ortiq bo‘ladi?

**59.** Agar maxovik gardishida yotgan nuqtalarning tezligi  $\vartheta = 6$  m/s, aylanish o‘qiga  $\ell = 15$  cm yaqinroq joylashgan nuqtalarning tezligi esa  $\vartheta_2 = 5,5$  m/s bo‘lsa, maxovikni radiusi topilsin?

**60.** Aylanayotgan diskni aylanasidagi nuqtalarni chiziqli tezligi  $\vartheta_1 = 3$  m/s. Aylanish o‘qiga  $\ell = 10$  cm yaqinroq joylashgan nuqtalarni chiziqli tezligi esa  $\vartheta_2 = 2$  m/s. Disk sekundiga necha marta aylanadi?

- 61.** Moddiy nuqta radiusi  $R = 1 \text{ m}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab harakat boshlab,  $t_1 = 10 \text{ s}$  ichida  $S = 50 \text{ m}$  yo‘l bosdi. Harakat boshlangandan so‘ng  $t_2 = 5 \text{ s}$  o‘tgach nuqta qanday normal tezlanish bilan harakat qiladi?
- 62.** Minutiga  $100$  marta aylanayotgan maxovik, tormozlovchi moment ta’sirida besh marta aylanib tezligini ikki marta kamaytirdi. Tormozlanish vaqtini toping?
- 63.** Aylanish chastotasi  $n = 120 \text{ ayl/min}$  bo‘lgan maxovik  $t = 1,5 \text{ min}$  ichida to‘xtaydi. Harakatni tekis sekinlanuvchan deb hisoblab, maxovik to‘xtagunga qadar necha marta aylanishini aniqlang?
- 64.** Maxovik gardishida yotgan nuqtalarni chiziqli tezligi  $5 \text{ m/s}$ , aylanish o‘qidan  $l = 0.2 \text{ m}$  da joylashgan nuqtalarniki esa  $4 \text{ m/s}$ . Mahvoik radiusi va uning burchakli tezligini toping?
- 65.** Ventilyator parraklarini burchakli tezligi  $\omega = 20 \text{ rad/s.}$   $30 \text{ min}$  vaqt ichidagi aylanish soni aniqlansin?
- 66.** Val aylana boshlab birinchi  $t = 5 \text{ s}$  ichida  $n = 100 \text{ marta}$  aylanidi. Val aylanishini tekis tezlanuvchan deb hisoblab, uning burchakli tezlanishini va oxirgi burchakli tezligini aniqlang?
- 67.** Yer sirtini ekvatorida yotgan nuqtalarni chiziqli tezligi  $v$  ni va markazga intilma tezlanishi  $a_{m.i}$  ni aniqlang?
- 68.** G‘ildirak  $n = 60 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanayotgan parrak erkin tushadi va tushish davomida  $N = 33 \text{ marta}$  aylanadi. Tushish balandligi topilsin?
- 69.** Nuqta aylana bo‘ylab tekis tezlanuvchan harakat qila boshlaydi. Harakat boshidan  $0,5 \text{ s}$  o‘tgach uning normal va tangensial tezlanishini aniqlang?

**70.** Yer sirtini Moskva shahri kengligi ( $\varphi=56^\circ$ ) da yotgan nuqtalarning chiziqli tezligi  $v$  ni va markazga intilma tezlanishini aniqlang?

**71.** Patefon diskini  $n = 78 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. Agar plastinka  $N=250$  ta ariqchaga ega va radius bo'ylib ikki chetki ariqchalar orasidagi masofa  $S = 6.4 \text{ cm}$  bo'lsa, ninani plastinka chetidan markaz tomon surilishidagi o'rtacha tezlikni toping?

**72.** Ikkita qog'oz diskini umumiy gorizontal o'qqa shunday o'rnatilganki, ularni tekisliklari o'zaro parallel bo'lib, bir-biridan  $S=30 \text{ cm}$  masofada joylashgan. Disklar  $n=2000 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylantiriladi. Disk o'qidan  $R=12 \text{ cm}$  masofada unga parallel harakatlanayotgan o'q ikkita diskni ham teshib o'tadi. Disklardagi teshiklar bir-biridan aylana yoyi bo'yicha o'lchaganda  $6 \text{ cm}$  uzoqlikda joylashgan. Disklalar orasidagi o'qning o'rtacha tezligi  $\langle\vartheta\rangle$  ni toping?

**73.** Aylanish chastotasi  $955 \text{ ayl/min}$  bo'lgan elektrodvigatel rotori o'chirilgandan so'ng  $10 \text{ s}$  o'tgach to'xtadi. Elektrodvigatel o'chirilgandan so'ng rotor harakatani tekis sekinlanuvchan deb hisoblab, uning burchakli tezlanishini va to'xtagunga qadar necha marta aylanishini toping?

**74.** Ikkita  $A$  va  $B$  vallar  $A$  va  $B$ ga aylanma harakatni uzatuvchi chiziqli tasma bilan bog'langan. Yetaklovchi val  $n_1 = 3000 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanadi. Ergashuvchi val  $n_2 = 600 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmog'i kerak bo'lgani uchun unga diametri  $d_2=500 \text{ mm}$  bo'lgan shkiv o'rnatilgan. Yetaklovchi valga qanday diametrli shkiv o'rnatilishi lozim?

**75.** Nuqta radiusi  $R=8 \text{ m}$  bo'lgan aylana bo'ylib aylanmoqda. Vaqtning biror momentida nuqtani normal tezlanishi  $a_n=4 \text{ m/s}^2$ . Bu

momentda to‘liq tezlanish vektori  $\vec{a}$  normal tezlanish vektori  $\vec{a}_n$  bilan  $\alpha=60^\circ$  burchak hosil qiladi. Nuqtaning tezligi  $\vartheta$  ni va tangensial tezlanishi  $a_t$  ni toping?

**76.** Maxovikni aylanish chastotasi  $N = 20$  marta to‘liq aylanish vaqt davomida  $n = 1$  ayl/s dan  $n = 5$  ayl/s gacha ortdi, maxovikni o‘rtacha burchakli tezlanishini aniqlang?

**77.** G‘ildirak tekis sekinlanuvchan aylana boshlab, o‘z chastotasini bir minutda  $n_o=300$  ayl/min dan  $n=180$  ayl/min gacha kamaytirdi. G‘ildirakni burchakli tezlanishini va shu vaqt davomida necha marta aylanganini toping?

**78.** Samolyotni havo vintini aylanish chastotasi  $1500$  ayl/min.  $90$  km yo‘lni  $180$  km/h tezlik bilan uchsa, vint necha marta aylanadi?

**79.** Soatning minut strelkasi sekund strelkasiga nisbatan uch marta uzunroq. Strelkalar uchini tezliklariga nisbatan aniqlang?

**80.** Soat strelkasini burchakli tezligi yerni sutkali aylanish burchakli tezligidan necha marta katta?

**81.** Biror bir jism  $\beta = 0,04$   $1/s^2$  o‘zgarmas burchakli tezlanish bilan aylana boshlaydi. Harakat boshlangandan keyin qancha vaqt o‘tgach jismni biror bir nuqtasini to‘liq tezlanishi shu nuqtaning tezlik yonalishi bilan  $76^\circ$  burchak hosil qiladi?

**82.**  $n=1500$  ayl/min chastota bilan aylanayotgan g‘ildirak tormozlanganda tekis sekinlanuvchan aylana boshlab,  $30$  sekunddan keyin to‘xtadi. Tormozlanish boshlangandan to to‘xtaguncha gildirakni burchakli tezlanishi va aylanish sonini toping?

- 83.** Velosiped g‘ildiragi  $n=5 \text{ 1/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Ishqalanish kuchi ta’sirida u  $\Delta t=1 \text{ min}$  dan keyin to‘xtaydi. Shu vaqt ichida g‘ildirakni burchakli tezlanishi va aylanishlar sonini aniqlang.
- 84.** Mashina g‘ildiragi tekis tezlanuvchan harakatda aylanmoqda.  $N=50$  marta aylangandan so‘ng uni aylanish chastotasi  $n_1 = 4 \text{ 1/s}$  dan  $n_2=6 \text{ 1/s}$  gacha o‘zgardi. G‘ildirakni burchakli tezlanishini toping.
- 85.** Disk  $\beta = -2 \text{ rad/s}^2$  burchakli tezlanish bilan aylanmoqda. Aylanish chastotasi  $n_1 = 240 \text{ min}^{-1}$  dan  $n_2=90 \text{ min}^{-1}$  gacha o‘zgargunga qadar disk necha marta aylanadi? Bu voqeа sodir bo‘lishi uchun qancha vaqt o‘tadi?
- 86.** Aerochananing vinti  $n=360 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. Aerochananing ilgarilanma harakat tezligi  $\vartheta=54 \text{ km/h}$ . Agar vintining radiusi  $R=1 \text{ m}$  bo‘lsa, uning bir uchi qanday tezlik bilan harakatlanadi?
- 87.** Tokar stanogida diametri  $d=60 \text{ mm}$  li val yasamoqda. Keskichni ilgarilanma harakati bir aylanishda  $0,5 \text{ mm}$ . Agar  $t=1 \text{ min}$  vaqt davomida valni  $l=12 \text{ cm}$  uzunligiga ishlov berilayotgan bo‘lsa, kesish tezligi qanday?
- 88.** Nuqta aylana bo‘ylab  $\vartheta=At$  tezlik bilan harakatlanmoqda, bunda  $A=0,5 \text{ m/s}^2$ . Harakat boshlangandan so‘ng nuqta aylana uzunligining  $0,1$  qismini bosib o‘tgan momentdagi to‘liq tezlanishini toping.
- 89.** G‘ildirak qo‘zg‘almas o‘q atrofida shunday aylanmoqdaki, uning burilish burchagini vaqtga bog‘liq ravishda o‘zgarishi  $\varphi = At^2$  qonunga bo‘ysinadi, bunda  $A = 0,2 \text{ rad/s}^2$ . Agar g‘ildirak gardishidagi nuqtani  $t=2,5 \text{ s}$  momentdagi chiziqli tezligi  $\vartheta=0,65 \text{ m/s}$  bo‘lsa, uning to‘liq tezlanishini toping.

- 90.** Qattiq jism qo‘zg‘almas o‘q atrofida  $\beta=At$  burchakli tezlanish bilan aylana boshlayapti, bunda  $A=2 \cdot 10^{-2} \text{ rad/s}^3$ . Aylanish boshlangandan keyin qancha vaqt o‘tgach jismni ixtiyoriy nuqtasini to‘liq tezlanish vektori uning tezlik vektori bilan  $\alpha = 60^\circ$  burchak hosil qiladi?
- 91.** Quduq barabani dastasi radiusi tros o‘raladigan val radiusidan 3 marta katta. Chelakni  $10 \text{ m}$  chuqurlikdan  $20 \text{ s}$  davomida chiqarishda dastani tezligi qanday bo‘ladi?
- 92.** Sirkular arra  $600 \text{ mm}$  diametrga ega. Arra o‘qiga diametri  $300 \text{ mm}$  bo‘lgan shkiv o‘rnatilgan va elektrodvigatel valiga o‘rnatilgan  $120 \text{ mm}$  li shkivdan tasmali uzatma orqali aylantiriladi. Agar dvigatel vali  $1200 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylansa, arra tishlarining tezligi qanday?
- 93.** Radiusi  $R=1,5 \text{ m}$  bo‘lgan samolyot parraklari  $n=2000 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. Samolyotni yerga nisbatan qo‘nish tezligi  $\vartheta=162 \text{ km/h}$ . Parrak uchidagi nuqtaning tezligi qanday?
- 94.** Radiusi  $R=400 \text{ m}$  bo‘lgan poyezd burilish bo‘yicha harakatlanmoqda va uning tangensial tezlanishi  $a_t = 0,2 \text{ m/s}^2$  ga teng. Poyezdning tezligi  $\vartheta=10 \text{ m/s}$  bo‘lgan momentda uni normal va to‘liq tezlanishlarini toping.
- 95.** Snaryad stvol ichida  $n=2$  marta aylanib  $\vartheta=320 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchib chiqadi. Stvol uzunligi  $l=2 \text{ m}$ . Snaradni stvol ichidagi harakatini tekis tezlanuvchan deb hisoblab, uni stvoldan uchib chiqish momentdagি o‘q atrofida aylanish burchakli tezligini aniqlang.
- 96.** Aylanayotgan g‘ildirak gardishidagi nuqtaning to‘liq tezlanish vektori, uni chiziqli tezligi vektori bilan  $30^\circ$  burchak hosil qilgan momentda nuqtani normal tezlanishi uni tangensial tezlanishidan necha marta kattaligini toping.

**97.** Radiusi  $R=20\text{ cm}$  bo‘lgan shkiv, unga o‘ralgan va undan asta-sekin bo‘shayotgan ipga osilgan yuk yordamida aylanma harakatga keltirildi. Boshlang’ich momentda yuk qo‘zg‘almas bo‘lib, so‘ngra esa  $a=2\text{ cm/s}^2$  tezlanish bilan pastga tusha boshlaydi. Yuk  $h=1\text{ m}$  yo‘l bosib o‘tgan momentdagi shkivni burchakli tezligini aniqlang.

**98.** Jism ekvator bo‘ylab yer sirtiga parralel ravishda uchishi uchun unga qanday gorizontal tezlik bermoq lozim? Ekvatorda yerning radiusini  $R=6400\text{ km}$ , og‘irlik kuchi tezlanishini  $g=9,7\text{ m/s}^2$  deb olish mumkin.

**99.** Barabanga ip o‘ralib, uning uchiga yuk osilgan. O‘z-o‘ziga qo‘yilgan yuk,  $5,6\text{ m/s}^2$  tezlanish bilan pastga tusha boshlaydi. Baraban  $1\text{ radian}$  burchakka burilgan momentda, uning gardishidagi nuqtaning tezlanishi aniqlansin.

**100.** Avtomobil to‘g‘ri yo‘ldan shunday harakat qilmoqdaki, uning tezligi  $\vartheta=(1+2t)\text{ m/s}$  qonun asosida o‘zgaradi. Agar g‘ildirak radiusi  $R=1\text{ m}$  bo‘lsa, tezlanishli harakat boshlangandan so‘ng  $t=0,5\text{ s}$  o‘tgach g‘ildirakni vertikal va gorizontal diametrlarini uchlarida yo‘tgan nuqtalarni tezlik va tezlanishlarini aniqlang.

**101.** Tosh  $a_t = 5\text{ cm/s}^2$  o‘zgarmas tangensial tezlanish bilan  $20\text{ cm}$  radiusi aylanalar chizadi. Beshinchi aylanishni oxirida toshni chiziqli tezligi nimaga teng? Shu momentda uni burchakli tezligi va burchakli tezlanishi qanday bo‘ladi?

**102.** Nuqta  $a_t = 5\text{ cm/s}^2$  o‘zgarmas tangensial tezlanish bilan radiusi  $R=20\text{ cm}$  bo‘lgan aylana bo‘ylab harkat qilmoqda. Harakat boshlangandan so‘ng qancha vaqt o‘tgach normal va tangensial tezlanishlar tenglashadilar?

- 103.** Massasi  $m=0,3 \text{ kg}$  bo‘lgan modiy nuqtani, unga nisbatan  $r=20 \text{ cm}$  masofada joylashgan o‘qqa nisbatan inersiya momentini aniqlang.
- 104.** Har birini massasi  $m=10 \text{ g}$  bo‘lgan ikkita kichik sharlar bir-biri bilan ingichka vaznsiz uzunligi  $\ell=20 \text{ cm}$  bo‘lgan sterjen orqali mahkamlangan. Sistemaning massa markazi orqali o‘tuvchi va sterjenga perpenendikular bo‘lgan o‘qqa nisbatan inersiya momenti topilsin.
- 105.** Massalari  $m=10 \text{ g}$  bo‘lgan uchta kichik sharlar tomonlari  $a=20 \text{ cm}$  ga teng bo‘lgan teng tomonli uchburchak uchlariga joylashtirilib, bir-biri bilan mahkamlangan. Sistemaning uchburchak atrofida chizilgan aylana markazidan o‘tib uchburchak sirtiga perpenendikular bo‘lgan o‘qqa nisbatan inertsiya momenti topilsin.
- 106.** Uzunligi  $\ell=30 \text{ cm}$  va massasi  $m=100 \text{ g}$  bo‘lgan ingichka bir jinsli sterjenni unga perpenendikular bo‘lgan va 1) uning chetidan o‘tuvchi, 2) uning o‘rtasidan o‘tuvchi o‘qqa nisbatan inertsiya momenti topilsin.
- 107.** Uzunligi  $\ell=60 \text{ cm}$  va massasi  $100 \text{ g}$  bo‘lgan bir jinsli ingichka sterjenni uning bir uchidan  $d=20 \text{ cm}$  masofada yo‘tgan sterjen nuqtasi orqali o‘tib unga perpenendikular bo‘lgan o‘qqa nisbatan inertsiya momenti aniqlansin.
- 108.** Tomonlari  $a=12 \text{ cm}$  va  $b=16 \text{ cm}$  bo‘lgan simdan yasalgan to‘g‘ri to‘rburchakni kichik tomonlarini o‘rtasidan o‘tib, to‘rburchakni sirtida yo‘tgan o‘qqa nisbatan inertsiya momentini hisoblab toping. Massa butun uzunlik bo‘ylab bir tekis  $\tau=0.1 \text{ kg/m}$  chiziqli zichlik bilan taqsimlangan.
- 109.** Uzunligi  $L=0.5 \text{ m}$  va massasi  $m=0.2 \text{ kg}$  bo‘lgan ingichka to‘gri sterjenni uning bir uchidan  $\ell=0.15 \text{ m}$  masofada yo‘tgan sterjen nuqtasi

orqali o‘tib unga perpenendikular bo‘lgan o‘qqa nisbatan inersiya momenti nimaga teng?

**110.** Sharni uning sirtiga urinma ravishda o‘tkazilgan o‘qqa nisbatan inersiya momenti aniqlansin. Sharning radiusi  $R=0.1\text{ m}$ , uning massasi esa  $m = 5\text{ kg}$ .

**111.** Silindrik muftaning uning simmetriya o‘qi bilan mos keluvchi o‘qqa nisbatan inersiya momenti aniqlansin. Muftaning massasi  $m=2\text{ kg}$ , ichki radiusi  $r=0.03\text{m}$ , tashqi radiusi esa  $R=0.05\text{ m}$ .

**112.** Diametri  $d=12\text{ cm}$  va massasi  $m=3\text{ kg}$  bo‘lgan silindr gorizontal tekislikda yon sirti bilan yotibdi. Silindrni tekislik bilan kontakt chizig‘i orqali o‘tuvchi o‘qqa nisbatan inertsiya momenti aniqlansin.

**113.** Massasi  $m=5\text{ kg}$  va radiusi  $R=0,02\text{ m}$  bo‘lgan valni uning simmetriya o‘qiga parallel bo‘lgan va undan  $d=10\text{ cm}$  uzoq masofada joylashgan o‘qqa nisbatan inersiya momenti aniqlansin.

**114.** Radiusi  $R=0,5\text{ m}$  va massasi  $m=3\text{ kg}$  bo‘lgan ingichka gardishni, uning diametrini uchidan o‘tib, gardish tekisligiga perpenendikulyar bo‘lgan o‘qqa nisbatan inertsiya momenti hisoblab topilsin.

**115.** Massasi  $m=10\text{ kg}$  va radiusi  $R=0,1\text{ m}$  bo‘lgan to‘liq sharni, uning og‘irlik markazi orqali o‘tuvchi o‘qqa nisbatan inertsiya momenti aniqlansin.

**116.** Massasi  $m=0,5\text{ kg}$  bo‘lgan ichi bo‘sh sharning urinmaga nisbatan inertsiya momenti aniqlansin. Sharning tashqi radiusi  $R=0,02\text{ m}$ , ichki radiusi esa  $r=0,01\text{m}$ .

**117.** Uzunligi  $\ell$  bo‘lgan ingichka sterjenga radiusi  $R$  bo‘lgan shar shunday o‘rnatilganki, uning markazi bilan sterjen uzunligiga perpenendikular bo‘lgan aylanish o‘qigacha masofa  $\ell$  ga teng. Sharni

moddiy nuqta deb hisoblab, uning inersiya momentini aniqlashdagi nisbiy xatolikni toping. Sterjenning uzunligi  $\ell=10 R$  ga teng, massasi esa sterjen massasidan 10 marta katta.

**118.** Massasi  $m$  va radiusi  $R$  bo‘lgan yupqa diskda uning markazidan teng  $a$  masofalarda  $r$  radiusli  $n$  ta yumaloq teshiklar kesilgan. Diskni, uning og‘irlik markazi orqali o‘tuvchi o‘qqa nisbatan inertsiya momenti aniqlansin.

**119.** Radiusi  $R=20 \text{ cm}$  va massasi  $m=100 \text{ g}$  bo‘lgan ingichka bir jinsli halqaning uning markazidan o‘tib, halqa tekisligida yo‘tuvchi o‘qqa nisbatan inertsiya momenti topilsin.

**120.** Massasi  $m=50 \text{ g}$  va radiusi  $R=10 \text{ cm}$  bo‘lgan halqaning unga urinma bo‘lgan o‘qqa nisbatan inertsiya momenti aniqlansin.

**121.** Diskni diametri  $d=20 \text{ cm}$ , massasi esa  $m=800 \text{ g}$ . Diskni uni biror bir nuqtasini radiusi o‘rtasidan disk tekisligiga perpenendikular ravishda o‘tkazilgan o‘qqa nisbatan inertsiya momentini aniqlang.

**122.** Massasi  $m=1 \text{ kg}$  va radiusi  $R=30 \text{ cm}$  bo‘lgan bir jinsli diskda, markazi uning o‘qidan  $\ell=15 \text{ cm}$  uzoqlikda,  $d=2 \text{ cm}$  diametriga teng yumaloq teshik kesilgan. Hosil bo‘lgan jismni uning sirtiga perpenendikular bo‘lib, uning markazidan o‘tuvchi o‘qqa nisbatan inersiya momenti topilsin.

**123.** Massasi  $m=800 \text{ g}$  bo‘lgan yassi bir jinsli to‘g‘ri burchakli plastinaning uning bir tamoni bilan mos keluvchi o‘qqa nisbatan inertsiya momenti aniqlansin. Uning ikkinchi tomoni uzunligi 40 cm.

**124.** Tomonlari  $a=10 \text{ cm}$  va  $b=20 \text{ cm}$  bo‘lgan yupqa plastinkani uning massa markazidan o‘tuvchi va katta tomoniga parallel o‘qqa nisbatan

inersiya momenti topilsin. Plastinani massasi butun yuzasi bo‘ylab tekis taqsimlangan bo‘lib, massa zichligi  $\sigma = 1,2 \text{ kg/m}^2$ .

**125.** Qalinligi  $b=2 \text{ mm}$  va radiusi  $R=10 \text{ cm}$  bo‘lgan bir jinsli mis diskni disk sirtiga perpenendikular bo‘lgan simmetriya o‘qiga nisbatan inertsiya momenti hisoblansin.

**126.** Uzunligi  $\ell=40 \text{ cm}$  va massasi  $0,6 \text{ kg}$  bo‘lgan ingichka sterjen uning uzunligiga perpenendikular bo‘lib markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida aylanmoqda. Sterjenni aylanish tenglamasi  $\varphi = At + Bt^2$ , bunda  $A=1 \text{ rad/s}$ ,  $B=0,1 \text{ rad/s}^3$ . Vaqtning  $t=2 \text{ s}$  momentidagi aylantiruvchi momenti  $M$  ni aniqlang.

**127.** Asos diametri  $d = 30 \text{ cm}$  va massasi  $m=12 \text{ kg}$  bo‘lgan yupqa devorli silindr  $\varphi = A + Bt + Ct^3$ , qonuniyat bilan aylanmoqda, bunda  $A=4 \text{ rad}$ ,  $B=-2 \text{ rad/s}$ ,  $C=0.2 \text{ rad/s}^3$ . Vaqtning  $t=3 \text{ s}$  momentidagi silindrga ta’sir kuch momentini aniqlang.

**128.** Radiusi  $R=20 \text{ cm}$  va massasi  $m=7 \text{ kg}$  bo‘lgan disk  $\varphi = A + Bt + Ct^3$  tenglamaga bilan aylanmoqda, bunda  $A=8 \text{ rad}$ ,  $B=-1 \text{ rad/s}$ ,  $C=0.1 \text{ rad/s}^3$ . Diskka ta’sir etuvchi aylantiruvchi momentni o‘zgarish qonuni topilsin. Vaqtning  $t=2 \text{ s}$  momentidagi kuch momenti aniqlansin.

**129.** Sterjen uning o‘rtasidan o‘tuvchi o‘q atrofida  $\varphi = A + Bt^2$  tenglamaga binoan aylanmoqda, bunda  $A=8 \text{ rad}$ ,  $B=-1 \text{ rad/s}$ . Agar sterjenni inersiya momenti  $I=0,048 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$  bo‘lsa, sterjenga ta’sir etuvchi aylantiruvchi moment  $M$  ni aniqlang.

**130.** Radiusi  $R=10 \text{ cm}$  bo‘lgan maxovik gorizontal o‘qqa o‘rnatilgan. Maxovik gardishiga shnur o‘ralib, uning uchiga  $m=800 \text{ g}$  massali yuk osilgan. Yuk tekis tezlanuvchan harakatlanib,  $t=2 \text{ s}$  ichida  $h=160 \text{ cm}$  masofa o‘tdi. Maxovikni inersiya momenti aniqlansin.

- 131.** Tinch holatdagi ikkita bir xil maxovikka bir xil  $v=10 \text{ ayl/s}$  chastota berildi va qo‘yib yuborildi. Ishqalanish kuchlari ta’sirida birinchi maxovik bir minutdan so‘ng to‘xtadi, ikkinchi maxovik esa to‘liq to‘xtagunga qadar  $N=360$  marta aylandi. Qaysi maxovikni tormozlovchi momenti katta va necha barobar?
- 132.** Radiusi  $R=15 \text{ cm}$  bo‘lgan blok  $n=12 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda.  $M=1,27 \text{ N}\cdot\text{m}$  kuch momenti ta’sirida u qancha vaqt ichida to‘xtaydi? Blokning  $m=6 \text{ kg}$  massasini gardish bo‘ylab tekis taqsimlangan deb qaralsin.
- 133.** Uzunligi  $1,2 \text{ m}$  va massasi  $0,3 \text{ kg}$  bo‘lgan sterjen uning bir uchidan o‘tuvchi vertikal o‘q atrofida gorizontal tekislikda aylanmoqda. Agar sterjen  $9,81 \text{ rad/s}^2$  burchakli tezlanish bilan aylanayotgan bo‘lsa, unga ta’sir etuvchi aylantiruvchi moment nimaga teng? Agar aylanish o‘qi sterjenni massa markaziga ko‘chirilsa aylantiruvchi moment qanday o‘zgaradi?
- 134.** Jismga ta’sir etuvchi kuch momenti  $9.8 \text{ N}\cdot\text{m}$  ga teng. Harakat boshidan  $10 \text{ s}$  o‘tgach aylanayotgan jismning burchakli tezligi  $4 \text{ rad/s}$  ga yetdi. Jismning inersiya momenti topilsin.
- 135.** Massasi  $4 \text{ kg}$  bo‘lgan maxovik uning markazidan o‘tuvchi gorizontal o‘q atrofida  $720 \text{ ayl/min}$  chastota bilan erkin aylanmoqda. Maxovik massasini, (radiusi  $40 \text{ cm}$ ) uning gardishi bo‘ylab tekis taqsimlangan deb qarash mumkin. Maxovik  $30 \text{ s}$  dan so‘ng tormozlovchi moment ta’sirida to‘xtadi. Maxovikka ta’sir qiluvchi tormozlovchi momentni va u to‘liq to‘xtagunga qadar aylanishlar sonini aniqlang.

**136.** Agar radiusi  $R=0,2\text{ m}$  va massasi  $m=7,35\text{ kg}$  bo‘lgan bir jinsli disk gardishiga o‘zgarmas  $F=98,1\text{ N}$  kuch urinma ravishda qo‘yilgan bo‘lsa, u qanday tezlanish bilan aylanadi? Aylanishda diskka  $M=5\text{ N}\cdot\text{m}$  ishqalanish kuch momenti ta’sir etadi.

**137.** Radiusi  $R=20\text{ cm}$  va massasi  $m=5\text{ kg}$  bo‘lgan disk  $n=8\text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Tormozlanishda u  $4\text{ s}$  dan so‘ng to‘xtaydi. Tormozlovchi momentni aniqlang.

**138.** Diametri  $d = 75\text{ cm}$  va massasi  $m = 50\text{ kg}$  bo‘lgan disk ko‘rinishidagi maxovik shkiviga urinma ravishda  $F=1\text{ kN}$  kuch qo‘yilgan bo‘lsa,  $t=10\text{ s}$  dan so‘ng maxovikning aylanish chastotasi topilsin. Shkiv radiusi  $R=12\text{ cm}$ .

**139.** Massasi  $m=50\text{ kg}$  va radiusi  $R=20\text{ cm}$  bo‘lgan disk  $n=40\text{ ayl/min}$  chastotagacha aylantirib yuborilib, so‘ng uning o‘zini-o‘ziga qo‘yib qo‘yilgan. Ishqalanish ta’sirida maxovik to‘xtadi. Agar disk to‘liq to‘xtagunga qadar  $N=200$  marta aylangan bo‘lsa, ishqalanish kuch momenti topilsin.

**140.** Massasi  $m=100\text{ kg}$  va radiusi  $R=5\text{ cm}$  bo‘lgan disk  $n=8\text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Valning silindrik sirtiga  $F=40\text{ N}$  kuch bilan tormoz kolodkasi ta’sir etgandan so‘ng  $t=10\text{ s}$  o‘tgach u to‘xtaydi. Ishqalanish koeffisiyenti topilsin.

**141.** Massasi  $m=0,5\text{ kg}$  va uzunligi  $\ell = 2\text{ m}$  bo‘lgan sterjen uchlarining biridan o‘tuvchi o‘q atrofida  $\omega = A + Bt$  tenglamaga binoan aylanmoqda. Bunda  $A=5\text{ rad/s}$ ,  $B=0,2\text{ rad/s}^3$ . Vaqtning  $t=5\text{ s}$  momentida sterjenga ta’sir etuvchi aylantiruvchi moment  $M$  ni toping.

- 142.** Radiusi  $R=10 \text{ cm}$  bo‘lgan barabaniga ip o‘ralib, uning uchiga  $m=0,5 \text{ kg}$  massali yuk osilgan. Agar yuk  $a=1 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tushayo‘tgan bo‘lsa, barabanning inersiya momenti topilsin.
- 143.** Radiusi  $R=0,2 \text{ m}$  va massasi  $m=15 \text{ kg}$  bo‘lgan bir jinsli disk, uning markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida aylanmoqda. Diskni burchakli tezligini vaqtga bog‘liqlik tenglamasi  $\omega = A + Bt$  ko‘rinishda, bunda  $B=8 \text{ rad/s}^2$ . Disk gardishiga qo‘yilgan urinma kuchning kattaligi topilsin. Ishqalanishni hisobga olmang.
- 144.** Radiusi  $R=0,2 \text{ m}$  va massasi  $m=15 \text{ kg}$  bo‘lgan bir jinsli disk uning markazi orqali o‘tuvchi o‘q atrofida aylanmoqda. Diskni burchakli tezligini vaqtga bog‘liq tenglamasi  $\omega = A + Bt$  ko‘rinishda berilgan, bunda  $B=1 \text{ s}^{-1}$ . Disk gardishiga urinma ravishda qo‘yilgan kuch kattaligini toping. Ishqalanishni e’tiborga olmang.
- 145.** Radiusi  $R=0,3 \text{ m}$  va massasi  $m=5 \text{ kg}$  bo‘lgan bir jinsli silindr  $I = At + Bt^3$  tenglama asosida aylanmoqda, bunda  $A=6 \text{ rad/s}$ ,  $B=1 \text{ rad/s}^3$ . Vaqtning  $t=4 \text{ s}$  momentdagi kuchlar momenti  $M$  ni aniqlang.
- 146.** Uzunligi  $\ell = 1 \text{ m}$  va massasi  $m=0,5 \text{ kg}$  bo‘lgan bir jinsli sterjen uning o‘rtasidan o‘tuvchi gorizontal o‘q atrofida vertikal tekislikda aylanmoqda. Agar sterjenning aylatiruvchi momenti  $M=9,81 \cdot 10^2 \text{ N}\cdot\text{m}$  bo‘lsa, u qanday burchakli tezlanish  $\beta$  bilan aylanmoqda?
- 147.** Massasi  $m=50 \text{ kg}$  va radiusi  $r=20 \text{ cm}$  bo‘lgan disk ko‘rinishdagi maxovik  $n=480 \text{ ayl/min}$  chastotagacha aylantirib yuborilib, so‘ngra o‘z-o‘ziga qo‘yib qo‘yilgan. Ishqalanishni o‘zgarmas deb va maxovik  $t=50 \text{ s}$  dan so‘ng to‘xtagan deb hisoblab, ishqalanish kuchi momenti  $M$  topilsin.

**148.** Diametri  $d=30\text{ cm}$  va massasi  $m=6\text{ kg}$  bo‘lgan blok  $M=1,27\text{ N}\cdot\text{m}$  kuch momenti ta’sirida  $t=8\text{ s}$  ichida to‘xtagan bo‘lsa, u qanday chastota bilan aylangan (blok massasini uning gardishi bo‘ylab tekis taqsimlangan deb hisoblang)?

**149.** Uchlarining biridan o‘tuvchi o‘q atrofida  $\varphi = At + Bt^3$  tenglama asosida aylanuvchi massasi  $m=0,5\text{ kg}$  bo‘lgan sterjen uzunligi qanday? Bunda  $A=1\text{ rad/s}$ ,  $B=0,2\text{ rad/s}^3$ . Vaqtning  $t=5\text{ s}$  momentida sterjenga ta’sir etuvchi aylantiruvchi moment  $M=4\text{ N}\cdot\text{m}$  ga teng.

**150.** Radiusi  $R=40\text{ cm}$  va massasi  $m=50\text{ kg}$  bo‘lgan disk gorizontal o‘q atrofida aylanishi mumkin. Bu o‘qqa  $r=10\text{ cm}$  radiusli shkiv o‘rnatilgan. Shkivga urinma ravishda qo‘yilgan qanday kuch ta’sirida disk  $t=0,5\text{ s}$  vaqt davomida  $n=1\text{ ayl/s}$  chastotagacha aylantirib yuboriladi?

**151.** Yaxlit silindr ko‘rinishdagi val gorizontal o‘qqa o‘rnatilgan . Silindrga shnur o‘ralib, uning uchiga massasi  $2\text{ kg}$  bo‘lgan tosh osilgan. O‘z-o‘ziga qo‘yib qo‘yilgan tosh  $a = 2,8\text{ m/s}^2$  tezlanish bilan pastga tushmoqda. Valning massasi topilsin.

**152.** Uzunligi  $\ell = 50\text{ cm}$  va massasi  $m=400\text{ g}$  bo‘lgan ingichka sterjen uning o‘rtasidan o‘tib, uzunligiga perpenendikular bo‘lgan o‘q atrofida  $\varepsilon=3\text{ rad/s}^2$  burchakli tezlanish bilan aylanmoqda. Aylantiruvchi moment  $M$  topilsin.

**153.** Diametri  $d=4\text{ cm}$  bo‘lgan blok orqali o‘tkazilgan ip uchlariga massalari  $m_1=50\text{ g}$  va  $m_2=60\text{ g}$  yuklar osilgan. Agar blok yuklarining og‘irlik kuchlari ta’sirida  $\beta=1,5\text{ rad/s}^2$  burchakli tezlanishga ega bo‘lgan bo‘lsa, uning inertsiya momenti aniqlansin.

**154.** Diametri  $d=60\text{ cm}$  bo‘lgan maxovik gardishiga shnur o‘ralib, uning uchiga  $m=2\text{ kg}$  massali yuk osilgan. Agar maxovik yukning

og‘irlik kuchi ta’sirida tekis tezlanuvchan aylanib  $t=3$  s vaqt davomida  $\varepsilon=9$  rad/s burchakli tezlikka ega bo‘lgan bo‘lsa, uning inertsiya momenti aniqlansin.

**155.** Gorizontal stol ustida massasi  $m_1=0.25$  kg bo‘lgan aravacha turibdi. Stolning chetiga radiusi  $R=4$  cm bo‘lgan mahkamlangan blok orqali o‘tkazilgan shnurning bir uchi aravachaga bog‘langan. Ikkinci uchiga esa massasi  $m_2=25$  kg bo‘lgan yuk osilgan. Aravacha va yuk  $a=70$  cm/s<sup>2</sup> tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakat qilmoqdalar. Blokning inertsiya momenti topilsin.

**156.** Agar maxovik shnurning bir uchiga bog‘langan  $m=2$  kg massali yukning og‘irlik kuchi ta’sirida tekis tezlanuvchan aylansa, shnuning ikkinchi uchi esa radiusi  $R=30$  cm bo‘lgan maxovik gardishiga o‘ralgan bo‘lsa, vaqtning uchinchi sekundining oxirida uning burchakli tezligi qanday bo‘ladi? Maxovikni inertsiya momenti  $I=1,82$  kg·m<sup>2</sup>.

**157.** Alyuminiy va misdan yasalgan ikkita bir xil o‘lchamli sharlar ularning markazlari orqali o‘tuvchi umumiy qo‘zg‘almas o‘q atrofida bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda  $\omega_1=5$  rad/s va  $\omega_2=10$  rad/s burchakli tezliklar bilan aylanmoqdalar. Agar ular mahkam bog‘lansalar bu ikki shar qanday burchakli tezlik bilan aylana boshlaydilar?

**158.** Radiusi  $R=50$  cm va massasi  $m=40$  kg bo‘lgan disk ko‘rinishidagi maxovik gorizontal o‘q atrofida aylana olishi mumkin. Bu o‘qda radiusi  $r=10$  cm bo‘lgan shkiv mahkamlangan. Shkivga urinma ravishda  $F=400$  N bo‘lgan o‘zgarmas kuch qo‘yilgan.  $t=3,14$  s vaqt o‘tgach maxovik qanday chastotada aylana oladi?


**159.** Radiusi  $R=20$  cm va inertsiya momenti  $I=0,1$  kg·m<sup>2</sup> bo‘lgan barabanga shnur o‘ralib, uning uchiga  $m=0,5$  kg massali yuk

bog‘langan. Yukning yerdan balandligi  $h=1\text{ m}$  bo‘lsa, u qancha vaqt ichida yerga tushadi?

**160.** G‘ildirak ko‘rinishidagi blok orqali ip o‘tkazilib, uning uchlariga  $m_1=100\text{ g}$  va  $m_2=500\text{ g}$  massali yuklar bog‘langan.  $M=200\text{ g}$  bo‘lgan g‘ildirak massasini uning gardishi bo‘ylab tekis taqsimlangan deb, spitsalar massasini e’tiborga olish kerak emas. Blokni ikki tomonidagi iplarni taranglik kuchlari aniqlansin.

**161.** Disk shaklidagi blok orqali shnur o‘tkazilgan. Shnur uchlariga  $m_1=100\text{ g}$  va  $m_2=120\text{ g}$  massali yuklar bog‘langan. Agar blokning massasi  $m=500\text{ g}$  bo‘lsa, yuklar qanday tezlanish bilan harakat qiladilar? Ishqalanish e’tiborga olmaslik qadar kichikdir.

**162.** Ikki qiya tekislik, blok va u orqali o‘tkazilgan ip bilan bog‘langan ikki brusok 28-rasmida ko‘rsatilgandek joylashgan. Qiya tekisliklarda ikkala brusoklarni ishqalanish va sirpanish koeffisiyentlari bir xil. Agar brusoklarni ushlab turuvchi kuchni olib qo‘ysa, u holda ulardan biri ikkinchisini torta boshlaydi va ular  $1,4\text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakat qila boshlaydilar. Blok o‘qidagi ishqalanishni e’tiborga olmaslik mumkin. Ip blok bo‘ylab sirpanmaydi. Blokning inertsiya momenti  $1,0 \cdot 10^{-5}\text{ kg} \cdot \text{m}^2$ . radiusi esa  $2,5\text{ sm}$ ,  $\alpha=30^\circ$ . Har bir brusokni massasi  $0,16\text{ kg}$ . Ishqalanish koeffisiyentini toping.



28-rasm.

**163.** Radiusi  $R=0,5 \text{ m}$  bo‘lgan barabanga shnur o‘ralib, uning bir uchiga  $m=10 \text{ kg}$  massali yuk bog‘langan. Agar yuk  $a=2,04 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tushayo‘tgan bo‘lsa, barabanning inertsiya momenti topilsin.

**164.** Disk shaklidagi blok orqali shnur o‘tkazilgan. Uning uchlariga  $m_1=100 \text{ g}$  va  $m_2=110 \text{ g}$  massali yuklar bog‘langan. Agar blokning massasi  $M=400 \text{ g}$  bo‘lsa, yuklar qanday tezlanish bilan harakat qila oladilar? Blok aylanishidagi ishqalanish juda kichik.

**165.** Gorizontal ravishda joylashgan silindr uning o‘qi bilan mos bo‘lgan o‘q atrofida aylanishi mumkin. Silindrning massasi  $m_1=12 \text{ kg}$ . Silindrga shnur o‘rab, uning uchiga  $m_2=1 \text{ kg}$  massali tosh osilgan. Tosh qanday tezlanish bilan pastga tushadi?

**166.** Turli og‘irlikdagi ikki tosh o‘zaro ip bilan bog‘lanib, inertsiya momenti  $I=50 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$  va radiusi  $R=20 \text{ cm}$  bo‘lgan blok orqali o‘tkazilgan. Blok ishqalanish bilan aylanib, ishqalanish kuchining momenti  $M=98,1 \text{ N}\cdot\text{m}$ . Agar blok  $\beta=2,36 \text{ rad/s}^2$  ga teng bo‘lgan burchakli tezlanish bilan aylansa, blokning ikki tamonidagi iplarning tarangliklari  $T_1$  va  $T_2$  larning ayirmasi topilsin.

**167.** Gorizontal stol ustida  $0,3 \text{ kg}$  massali brusok bor. Bir uchi brusokka bog‘langan shnurning ikkinchi uchi esa stol chetiga mahkamlangan  $5 \text{ cm}$  radiusli blok orqali o‘tkazilib, unga  $50 \text{ kg}$  massali yuk osilgan. Yukning og‘irlik kuchi ta’sirida brusok va yuk  $10 \text{ cm/s}^2$  ga teng bo‘lgan o‘zgarmas tezlanish bilan harakatlanmoqda. Brusokning stol ustida sirpanishdagi ishqalanish koeffisiyenti  $0,15$ . Blokning inertsiya momenti topilsin.

**168.** Diametri  $d=75\text{ cm}$  va massasi  $m=40\text{ kg}$  bo‘lgan disk ko‘rinishdagi maxovikni gardishiga urinma ravishda  $F=1\text{ kN}$  kuch qo‘yilgan. Agar shkiv radiusi  $R=12\text{ cm}$  bo‘lsa, kuch ta’sir qila boshlagandan  $t=10\text{ s}$  vaqt o‘tgach maxovikni burchakli tezlanishi topilsin. Ishqalanish kuchi hisobga olinmasin.

**169.** Radiusi  $R=40\text{ cm}$  va massasi  $m=50\text{ kg}$  bo‘lgan disk ko‘rinishidagi maxovik gorizontal o‘q atrofida aylana oladi. Bu o‘qqa radiusi  $R=10\text{ cm}$  bo‘lgan shkiv o‘rnatilgan. Shkivga urinma ravishda  $F=500\text{ N}$  kuch ta’sir etadi. Qancha vaqtdan keyin maxovik  $n=1\text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanadi?

**170.** Radiusi  $R=3\text{ cm}$  bo‘lgan blok orqali o‘tkazilgan shnur o‘tkazilib, uning uchlariga  $m_1=100\text{ g}$  va  $m_2=120\text{ g}$  massali yuklar bog‘langan. Yuklar  $a=3\text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatga keladi. Ishqalanishni e’tiborga olmay, blokning inertsiya momenti aniqlansin.

**171.** Radiusi  $10\text{ cm}$  bo‘lgan qo‘zg‘almas blok orqali shnur o‘tkazilib, uning uchlariga har birining massasi  $m=20\text{ g}$  ga teng bo‘lgan ikkita tosh osilgan. Toshlarning biriga  $m_1=2\text{ g}$  massali qo‘shimcha yuk qo‘yilgandan so‘ng u pastga tusha boshlaydi,  $6\text{ s}$  davomida  $1,4\text{ m}$  masofa bosib o‘tadi. Blokning inertsiya momenti aniqlansin. Shnurning massasi, havoning qarshiligi va blok o‘qidagi ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**172.** Massasi  $6\text{ kg}$  bo‘lib, u  $18\text{ cm}$  radiusli gardish bo‘ylab tekis taqsimlangan maxovik valda  $600\text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda  $10\text{ N}\cdot\text{m}$  ga teng bo‘lgan tormozlovchi moment ta’sirida maxovik to‘xtadi. Maxovik to‘xtagunga qadar qancha vaqt o‘tadi va u bu vaqt ichida necha marta to‘liq aylanadi?

**173.** G‘ildirak shaklidagi blok orqali ip o‘tkazilib, uning uchlariga  $m_1=100\text{ g}$  va  $m_2=300\text{ g}$  massali yuklar bog‘langan.  $m=200\text{ g}$  bo‘lgan g‘ildirak massasini, uning gardishi bo‘ylab tekis taqsimlangan deb hisoblab, spitsalar massasini e’tiborga olmaslik mumkin. Yuklar qanday tezlanish bilan harakatlanishini toping.

**174.**  $n=12\text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanayo‘tgan blok  $t=8\text{ s}$  vaqt ichida to‘xtashi uchun unga qo‘yilishi kerak bo‘lgan kuch momenti  $M$  ni aniqlang. Blok diametri  $d=30\text{ cm}$ .  $m=6\text{ kg}$  bo‘lgan blok massasini uning gardishi bo‘yicha tekis taqsimlangan deb qarash mumkin.

**175.** Radiusi  $R=20\text{ cm}$  massasi  $m=5\text{ kg}$  bo‘lgan disk  $n=8\text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Tormoz berilgandan so‘ng  $t=4\text{ s}$  o‘tgach disk to‘xtadi. Tormozlovchi kuch momenti  $M$  topilsin.

**176.** Massasi  $M=9\text{ kg}$  bo‘lgan barabanga shnur o‘ralib, uning uchiga  $m=2\text{ kg}$  massali yuk bog‘langan. Yukning tezlanishi topilsin. Baraban bir jinsli silindr deb hisoblansin. Ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**177.** Radiuslari  $0,4\text{ m}$  va har birining massasi  $100\text{ kg}$  bo‘lgan disk ko‘rinishidagi ikki maxovik  $480\text{ ayl/min}$  gacha aylantirilib yuborilgan va o‘z-o‘ziga qo‘yib qo‘yilgan. Valning podshipnik bilan ishqalanishi natijasida birinchi maxovik  $1\text{ min }20\text{ sek}$  dan so‘ng to‘xtadi, ikkinchi maxovik esa to‘xtagunga qadar  $240$  marta to‘liq aylandi. Har bir maxovik podshipnigini valga ishqalanish kuchlarini momentini toping va ularni o‘zaro solishtiring.

**178.** Radiusi  $R=0,2\text{ m}$  va massasi  $m=10\text{ kg}$  bo‘lgan maxovik motor bilan tasma orqali bog‘langan. Tasmaning tarangligi o‘zgarmas bo‘lib,  $T=14,7\text{ N}$  ga teng. Harakat boshidan  $\Delta t=10\text{ s}$  vaqt o‘tgach maxovik

sekundiga necha martadan aylanadi? Maxovikni bir jinsli disk deb hisoblansin. Ishqalanishni e'tiborga olmang.

**179.** Maxovik valining radiusi  $R=0,01\text{ m}$ . Valga shnur o'ralib, uning uchiga  $m=0,2\text{ kg}$  massali yuk bog'langan. Og'irlik kuchi ta'sirida yuk  $t=5\text{ s}$  davomida  $h_1=1,2\text{ m}$  balandlikdan tushadi, so'ngra esa, g'ildirakni inertsiya bo'yicha aylanishi tufayli  $h_2=0,8\text{ m}$  balandlikka ko'tariladi. G'ildirakni inertsiya momenti aniqlansin.

**180.** Massasi  $m=10\text{ kg}$  va radiusi  $R=20\text{ cm}$  bo'lgan shar, uning markazi orqali o'tuvchi o'q atrofida aylanmoqda. Sharni aylanish tenglamasi  $\varphi = A + Bt^2 + Ct^3$  ko'rinishga ega, bunda  $A=5\text{ rad}$ ,  $B=4\text{ rad/s}^2$   $C=-1\text{ rad/s}^3$ . Vaqtning  $t=2\text{ s}$  momentidagi kuch momenti kattaligi topilsin.

**181.** Jism tinch holatdan gorizontal o'q atrofida, unga o'ralgan shnurga osilgan yukni pastga tushishi tufayli aylanma harakatga keltiriladi. Agar  $m=2\text{ kg}$  massali yuk  $t=12\text{ s}$  davomida  $h=1\text{ m}$  masofaga tushsa, jismni inertsiya momenti topilsin. O'qning radiusi  $r=8\text{ mm}$ . Ishqalanish kuchi e'tiborga olinmasin.

**182.** Massasi  $m=100\text{ kg}$  va radiusi  $R=5\text{ cm}$  bo'lgan aylanayo'tgan valni silindrik sirtiga  $F=40\text{ N}$  kuch bilan tormoz kolodkasi bosiladi, natijada val  $t=10\text{ s}$  dan so'ng to'xtaydi. Agar ishqalanish koeffisiyenti  $\mu=0,31$  ga teng bo'lsa, val qanday chastota bilan aylanayo'tgan edi?

**183.** Maxovik va engil shkiv gorizontal o'qqa o'rnatilgan. Shkivga ip bilan bog'lab qo'yilgan m massali yuk tekis tezlanuvchan harakatda tusha turib  $4\text{ s}$  davomida  $2\text{ m}$  bosib o'tdi. Maxovikni inertsiya momenti  $0,05\text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . Tushayo'tgan yukning massasini aniqlang, agar shkivning radiusi  $6\text{ cm}$  bo'lsa, uning massasini e'tiborga olmang.

## 3- MAVZU

### MEXANIKADA SAQLANISH QONUNLARI

#### **Nazorat savollari**

1. Impulsning saqlanish qonunini tushuntiring. U qanday sistemalar uchun o‘rinlidir.
2. Impuls momentini saqlanish qonuning mohiyati nimada? U qanday hollarda bajariladi?
3. Bajarilgan ish kinetik energiya orqali qanday ifodalanadi?
4. Aylanma harakat kinetik energiyasi qanday topiladi?
5. Dissipativ kuchlar nima? Potensial energiya konservativ kuchlar bajargan ishi bilan qanday bog‘lanishda?
6. Energiya va Impulsnii saqlanish qonunlarini jismlarni urilishga tatbiqi: jismlar to‘qnashuvi 1) absolut elastik; 2) absolut noelastik bo‘lganda.

#### **Masala yechish uchun uslubiy ko‘rsatma**

Mexanikadagi masalalarni ko‘p hollarda dinamika qonunlaridan emas, balki impulsni, impuls momenti va energiyani saqlanish qonunlaridan foydalanib yechish qulaydir, chunki bu qonunlarda sistemani boshlang‘ich va oxirgi holatlari bilan impulsni, impuls momentini va energiyalarni harakterlash mumkin. Bu hodisa ta’sirlarni o‘zini ko‘rmasdan turib bu kattaliklarni o‘zgarishini ayniqsa, o‘zgaruvchan kuch momenti ta’sir etganda aylanma harakat tekis o‘zgarmagan hollarini kuzatish imkonini beradi. Bunda to‘la energiya aylanma va ilgarilanma harakat energiyalar yeg‘indisidan iborat bo‘ladi.

## Asosiy formulalar

Doimiy  $\vec{F}$  kuchni  $d\vec{r}$  ko‘chishda bajargan elementar ishi

$$dA = \vec{F} d\vec{r} = F \cos \alpha ds = F_s ds$$

Bu yerda  $a - \vec{F}$  va  $d\vec{r}$  vektorlar orasidagi burchak;

$$ds = |d\vec{r}| - \text{elementar yo‘l};$$

$$F_s - \vec{F} \text{ vektorni } d\vec{r} \text{ vektorga proeksiyasi} .$$

O‘zgaruvchan kuchni S yo‘lda bajargan ishi

$$A = \int_S F_s ds = \int_S F \cos \alpha ds$$

$\Delta t$  vaqt oralig’idagi o‘rtacha quvvat

$$\langle N \rangle = \frac{\Delta A}{\Delta t}$$

Oniy quvvat

$$N = \frac{dA}{dt} \quad N = \vec{F} \vec{\vartheta} = F_s \vartheta = F \vartheta \cos \alpha$$

bu yerda  $\vec{\vartheta}$  - tezlik vektori;  $-\alpha$  -  $\vec{F}$  va  $\vec{\vartheta}$  vektorlar orasidagi burchak.

$$\text{Harakatlanayotgan jismning kinetik energiyasi} \quad E_k = \frac{m \vartheta^2}{2}$$

bu yerda  $m$  - jism massasi;  $\vartheta$  - uning tezligi.

Yer sirtidan h balandlikka ko‘tarilgan jismning potensial energiyasi

$$E_p = mgh$$

bu yerda  $g$  - erkin tushish tezlanishi.

Elastiklik kuchi

$$F = -kx$$

bu yerda  $x$  - deformatsiya kattaligi;  $k$  - bikrlik.

$$\text{Elastik deformatsiyalangan jism potensial energiyasi} \quad E_p = \frac{kx^2}{2}$$

bu yerda  $x$  - deformatsiya kattaligi;  $k$  - elastiklik koeffisienti (bikrlik).

Mexanik energiyaning saqlanish qonuni  $E_k + E_p = E_t = \text{const}$ ,

$$\text{Tiklanish koeffisienti} \quad \boldsymbol{\varepsilon} = \frac{\vartheta'_n}{\vartheta_n}$$

bu yerda  $\vartheta'_n$  va  $\vartheta_n$  – mos ravishda jismlarni nisbiy tezliklarini to‘qnashuvgacha va to‘qnashuvdan keyingi normal tashkil etuvchilari.

Massalari  $m_1$  va  $m_2$  bo‘lgan jismlarni *markaziy absolyut elastik to‘qnashuvdan* keyingi tezliklari

$$\vartheta'_1 = \frac{(m_1 - m_2)\vartheta_1 + 2m_2\vartheta_2}{m_1 + m_2} \quad \vartheta'_2 = \frac{(m_1 - m_2)\vartheta_2 + 2m_1\vartheta_1}{m_1 + m_2}$$

Jismlarni markaziy absolyut noelastik to‘qnashuvdan keyingi harakat tezliklari

$$\vec{\vartheta} = \frac{\mathbf{m}_1 \vec{\vartheta}_1 + \mathbf{m}_2 \vec{\vartheta}_2}{\mathbf{m}_1 + \mathbf{m}_2}$$

Jismlarni *markaziy absolyut noelastik to‘qnashuvda* kinetik energiyalarini o‘zgarishi (to‘qnashuvdan oldingi va keyingi kinetik energiyalarini farqi)

$$\Delta E_k = \left( \frac{\mathbf{m}_1 \vartheta_1^2}{2} + \frac{\mathbf{m}_2 \vartheta_2^2}{2} \right) - \left( \frac{(\mathbf{m}_1 + \mathbf{m}_2)\vartheta^2}{2} \right) = \frac{\mathbf{m}_1 \mathbf{m}_2}{2(\mathbf{m}_1 + \mathbf{m}_2)} (\vartheta_1 + \vartheta_2)^2$$

Yopiq sistema uchun impulsni saqlanish qonuni

$$\vec{p} = \sum_{i=1}^n \mathbf{m}_i \vec{\vartheta}_i \text{const}$$


bu yerda  $n$  – sistemaga kiruvchi moddiy nuqtalar (yoki jismlar) soni;  $\mathbf{m}_i$  -  $i$ -moddiy nuqta(jism) massasi;  $\vec{\vartheta}_i$  -  $i$ -moddiy nuqta(jism) tezligi.

## Masala yechish namunaları

### 1-masala

$\vartheta=10 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchib ketayotgan granata portlab ikkiga parchalanadi (29-rasm). Granata massasining 0,6 qismiga teng bo‘lgan katta parcha dastlabki yo‘nalishda  $u_1 = 25 \text{ m/s}$  tezlik bilan o‘z harakatini davom ettiradi. Kichik parchanining tezligi topilsin.

**Yechish:** Portlash paytida ichki kuchlar tashqi kuchlardan ancha ortiq bo‘ladi. Sistemani yopiq sistema deb hisoblab impulsni saqlanish qonunini vektor ko‘rinishda yozish mumkin.



29-rasm.


Sistemani parchalanishgacha bo‘lgan impulsi  $\vec{p} = m\vec{\vartheta}$ . Sistemani parchalanishdan keyingi impulsi  $\vec{p} = 0,6m \vec{u}_1 + 0,4m \vec{u}_2$ . Gorizontal o‘qqa impulsni saqlanish qonunini proeksiyasi:  $m\vartheta = m_1u_1 + m_2u_2$ , bundan  $u_2 = \frac{\vartheta - 0,6u_1}{0,4} = -12,5 \text{ m/c}$ . Ko‘rinib turibdiki olingan natija massaga bog’liq emas. Butun granata massasi  $m = 1 \text{ m.b.}$ , katta parchani massasi  $m_1 = 0,6 \text{ m.b.}$ , kichik parchani massasi  $m_2 = 0,4 \text{ m.b.}$  bo‘lsin. Shunda impulslar quyidagicha bo‘ladi: butun granataniki —  $m\vartheta = 10 \text{ m.b.}$ ; katta parchaniki —  $m_1u_1 = 15 \text{ m.b.}$ ; kichik parchaniki —  $m_2u_2 = 5 \text{ m.b.}$ . Impuls vektorlari yo‘nalishlari rasmda ko‘rsatilgan.

### 2-masala

Relsda turgan  $m_1 = 10 \text{ t}$  massali platformaga  $m_2 = 5 \text{ t}$  massali to‘p o‘rnatilgan bo‘lib, undan rels bo‘ylab o‘q otiladi. Snaryadning massasi  $m_3 = 100 \text{ kg}$ ; uning to‘pga nisbatan boshlang’ich tezligi  $\vartheta_o = 500 \text{ m/s}$ . Agar platforma a) qo‘zg’almay turgan (30-rasm); b) snaryad otilgan tomoniga  $\vartheta = 18 \text{ km/h}$  tezlik bilan harakat qilayotgan (31-rasm); v) snaryad

otilishiga qarama-qarshi tomonga  $\vartheta=18 \text{ km/h}$  tezlik bilan harakat qilayotgan (32-rasm) bo'lsa snaryad otilgan paytdagi platformaning tezligi topilsin.

**Yechish:**



30-rasm.

a) Agar platforma qo'zg'almay turgan bo'lsa snaryadning yerga nisbatan boshlang'ich tezligi uning to'pga nisbatan boshlang'ich tezligi  $\vartheta_0$  ga teng bo'ladi. Agar platformani dumalanish ishqalanish kuchini hisobga olmasa "platforma – to'p – snaryad" sistemani yopiq sistema deb qarash mumkin.

Shunda sistemani otilishdan oldingi impulsini  $x$  o'qiga proyeksiyasi

$$p_x = (m_1 + m_2 + m_3) \cdot \vartheta = 0, \text{ bundan. } \vartheta = 0.$$

Sistemani otilishdan keyingi impulse  $p'_x = m_3 \vartheta_0 + (m_1 + m_2) \cdot u$ .


Impulsning saqlanish qonuniga asosan  $p_x = p'_x$  yoki  $0 = m_3 \vartheta_0 + (m_1 + m_2) \cdot u$ , bundan  $u_2 = \frac{m_3 \vartheta_0}{m_1 + m_2}; u_2 = -12 \text{ km/h}$ .

Bu yerda "-" ishora platform snaryad harakatiga qarshi yo'nalishda harakatlanganligini ko'rsatadi.

b) Agar snaryad platforma harakani yo'nalishida otilgan bo'lsa snaryadning yerga nisbatan boshlang'ich tezligi  $\vartheta_0 + \vartheta$  ga teng bo'ladi. Impulsni saqlanish qonuniga asosan quyidagini olamiz:


$$(m_1 + m_2 + m_3) \cdot \vartheta = m_3 (\vartheta_0 + \vartheta) + (m_1 + m_2) \cdot u \quad (2)$$

$$\text{bundan } u = \frac{(m_1 + m_2 + m_3) \cdot \vartheta - m_3 (\vartheta_0 - \vartheta)}{m_1 + m_2}; u = 6 \text{ km/h.}$$



31-rasm.

v) Agar snaryad platforma harakani yo‘nalishiga qarama-qarshi yo‘nalishda otilgan bo‘lsa  $\vartheta_0 > 0$  deb olsak platformani tezligi  $\vartheta < 0$  bo‘ladi. Bu holda (2) tenglama quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:



32-rasm.

$$-(m_1 + m_2 + m_3) \cdot \vartheta = m_3(\vartheta_0 - \vartheta) + (m_1 + m_2) \cdot u,$$

bundan  $u = \frac{(m_1 + m_2 + m_3) \cdot \vartheta + m_3(\vartheta_0 - \vartheta)}{m_1 + m_2}; u = -30 \text{ km/h}.$

### 3-masala

Ikkita shar parallel iplarga bir-biriga tegadigan qilib osib qo‘yilgan. Birinchi sharning massasi  $m_1=0,2 \text{ kg}$ , ikkinchisiniki  $m_2=0,1 \text{ kg}$ . Birinchi sharni og‘irlilik markazi  $h=4,5 \text{ cm}$  balandlikka ko‘tariladigan qilib og‘dirilgan va qo‘yib yuborilgan. To‘qnashuvlar: 1) elastik, 2) noelastik bo‘lganda sharlar qanday balandlikka ko‘tariladi?

#### Yechish:

**1- hol.** Absolut elastik urilish uchun impulsni va energiyaning saqlanish qonunlarini shu sharlar sistemasiga tatbiq etamiz:

$$m_1 \vartheta_1 = m_1 u_1 + m_2 u_2 \quad (1)$$

$$\frac{m_1 \vartheta_1^2}{2} = \frac{m_1 u_1^2}{2} + \frac{m_2 u_2^2}{2} \quad (2)$$

bu yerda,  $\vartheta_1, \vartheta_2$  – sharlarning urilishgacha bo‘lgan tezliklari (masala shartiga ko‘ra  $\vartheta_2 = 0$ ),  $u_1, u_2$  – sharlarning urilishdan keyingi tezliklari.

Sharlarni tezliklarini ularni ko‘tarilish balandligi  $h_1$  va  $h_2$  orqali ifodalab olamiz. Mexanik energiyaning saqlanish qonuniga asosan sharlarni eng pastki nuqtadagi kinetik energiyasi sharlarni eng yuqori ko‘tarilgandagi potensial energiyasiga tengdir.

$$\frac{m_1 \vartheta_1^2}{2} = m_1 gh, \quad \frac{m_1 u_1^2}{2} = m_1 gh_1, \quad \frac{m_2 u_2^2}{2} = m_2 gh_2$$

$$\text{bu yerdan } \vartheta_1 = \sqrt{2gh}; \quad u_1 = \sqrt{2gh_1}, \quad u_2 = \sqrt{2gh_2},$$

Bu ifodalarni (1) va (2) formulaga qo‘yib quyidagilarni yozamiz:

$$m_1\sqrt{2gh}=m_1\sqrt{2gh_1}+m_2\sqrt{2gh_2}. \quad (1^I)$$

$$m_1gh=m_1gh_1+m_2gh_2, \quad (2^I)$$

bularni quyidagicha o‘zgartirib yo‘zib olamiz:

$$m_1\sqrt{2h}(\sqrt{h}-\sqrt{h_1})=m_2\sqrt{2gh_2}, \quad (1^{II})$$

$$m_1g(h-h_1)=m_2gh_2, \quad (2^{II})$$

bundan (2") ni (1") ga bo‘lamiz

$$\sqrt{h_2}=\sqrt{h_1}+\sqrt{h}. \quad (3)$$

(3) ni (1") ga qo‘yamiz:

$$h_1=h\left(\frac{m_1-m_2}{m_1+m_2}\right)^2 \quad (4)$$

(2") va (4) lardan foydalanib:

$$h_2=4h\left(\frac{m_1}{m_1+m_2}\right)^2. \quad (5)$$

(4) va (5) formulalarga berilgan son qiymatlarni qo‘yib hisoblab quyidagilarni topamiz:

$$h_1=0.005m \quad \text{va} \quad h_2=0.08m.$$

**2- hol.** Absolut noelastik urilish uchun sharlarning urilishdan keyingi birgalikdagi tezligini impulsning saqlanish qonunidan topamiz:

$$m_1v_1=(m_1+m_2)u. \quad (1)$$

Mexanik energiyani saqlanish qonunidan foydalanib sharlarning umumiyligi tezligini va ularning ko‘tarilish balandligini topish mumkin:

$$\frac{(m_1+m_2)u^2}{2}=(m_1+m_2)gH, \quad (2)$$

ikkinchchi tomondan:

$$\frac{m_1 v_1^2}{2} = m_1 g h. \quad (3)$$

$$(2) \text{ va } (3) \text{ dan foiydalanib: } u = \sqrt{2gh} \text{ va } v_1 = \sqrt{2gh}. \quad (4)$$

$$(1) \text{ va } (4) \text{ tenglamalarni birgalikda echib: } H = h \left( \frac{m_1}{m_1 + m_2} \right) = 0.02 \text{ m.}$$

#### 4-masala

Yaxlit silindr balandligi  $h$  bo‘lgan qiya tekislikdan dumalab tushdi. Silindrning qiya tekislik oxiridagi ilgarilanma harakat tezligini aniqlang.

**Yechish:**

Silindr harakati murakkab bo‘lib, uning massa markazi  $\vartheta$  – tezlik bilan ilgarilanma harakat qiladi va massa markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida  $\omega$  – burchak tezlik bilan aylanma harakat qiladi. Shuning uchun silindrning kinetik energiyasi

$$W_k = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2},$$

ya’ni ilgarilanma va aylanma harakat kinetik energiyalarini yig‘indisidan iboratdir.

Silindrni og‘irlilik markazidan o‘tuvchi o‘qqa nisbatan inertsiya momenti

$$J = \frac{1}{2}mR^2 \quad (1)$$

bu yerda,  $R$  - silindrning radiusi.

Silindrga mexanik energiyani saqlanish qonunini qo‘llab quyidagilarni hosil qilamiz:

$$W_p = W_k \quad (2) \quad mgh = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2}, \quad (3)$$

Ilgarilanma harakat tezligini burchakli tezlik bilan bog‘lanishini


$$\vartheta = \omega R \quad (4)$$

e'tiborga olsak va uni (3) formulaga qo'yib quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$mgh = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{mR^2\vartheta^2}{2 \cdot 2 \cdot R^2} \quad mgh = \frac{3}{4}m\vartheta^2 \quad \vartheta = 2\sqrt{\frac{gh}{3}}$$

### 5-masala

Massasi  $m = 100 \text{ kg}$  bo'lgan gorizontal platform o'z og'irlik markazidan o'tuvchi vertikal o'q atrofida  $n_1 = 10 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanadi (33-rasm). Bunda massasi  $m_o = 60 \text{ kg}$  bo'lgan odam platforma chekkasida turadi.



33-rasm.

Agar odam platformaning chetidan markaziga o'tib olsa, platforma qanday  $n_2$  chastota bilan aylanadi? Platformani bir jinsli disk deb, odamni esa moddiy nuqta deb hisoblansin.

#### Yechish:

"Odam — platform" sistemani yopiq sistema deb qarash mumkin, chunki kuch momentlari  $M_{mg} = 0$  va  $M m_o g = 0$ . Bunda impuls momentini saqlanish qonunidan foydalanish mumkin :  $J_1\omega_1 = J_2\omega_2$  (1), bu yerda  $J_1$  — platform bilan uning chetida turgan odamni inertsiya momenti,  $J_2$  — platform bilan uning markazida turgan odamni inertsiya momenti,  $\omega_1$  va  $\omega_2$  — platformani ikkala holatidagi burchak tezliklari. Bu yerda  $J_1 = \frac{mR^2}{2} + m_o R^2$ ,  $J_2 = \frac{mR^2}{2}$  (2),  $R$  — platform radiusi. (2) ni

(1) ga qo'yib va  $\omega = 2\pi n$  ekanligini hisobga olsak quyidagini olamiz:

$$\left( \frac{mR^2}{2} + m_o R^2 \right) 2\pi n_1 = \frac{mR^2}{2} 2\pi n_2, \text{ bundan } n_2 \text{ chastotani topsak}$$

$$n_2 = n_1 \frac{\frac{mR^2}{2} + m_o R^2}{\frac{mR^2}{2}} = n_1 \frac{m + 2m_o}{m}; \text{ bunga masala shartida berilganlarni qo'yib } n_2 \text{ chastotani qiymatini topamiz: } n_2 = 22 \text{ ayl/min.}$$

## 6-masala.

Vertikal o‘q atrofida aylana oladigan gorizontal platforma chekkasida odam turibdi. Agarda odam platforma chekkasidan  $\vartheta = 2 \text{ m/s}$  tezlik bilan yursa platforma qanday ω burchakli tezlik bilan aylanadi? Odamning massasi  $80 \text{ kg}$ , platformaning inertsiya momenti  $J = 100 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ , uning radiusi  $2 \text{ m}$ . Odamni masala shartida moddiy nuqta deb qarash kerak.

### Yechish:

Odam bilan platforma yopiq sistemani tashkil qiladi, shuning uchun impuls momentini saqlanish qonunini qo‘llash mumkin:

$$J\omega = \text{const.}$$

Harakat boshlangunga qadar  $L = 0$  (yerga nisbatan). Harakat boshlangandan keyin sistemani impuls momenti odamning impuls momenti  $L_1 = mvR$  va platforma bilan odamni impuls momentlari

$$L_2 = (J + J_1)\omega$$

yig‘indisidan iborat, bu yerda  $J$  - platformani inertsiya momenti,  $J_1 = mR^2$  – odamni platformaning markazidan o‘tuvchi vertikal o‘qqa nisbatan inertsiya momenti,  $L = L_1 + L_2$  dan

$$0 = m\vartheta R + (J + J_1)\omega$$

$$m\vartheta R = -(J + J_1)\omega$$

$$\omega = -\frac{m\vartheta R}{J + mR^2}$$

Ushbu formulaga sonlarni qo‘yib:  $\omega = \frac{80 \cdot 2 \cdot 2}{100 + 80} = \frac{320}{420} 0,8 \text{ s}^{-1}$

Yuqoridagi formuladagi minus ishora odam harakati qarama-qarshi tomonga ekanligidan dalolat beradi.

## 7-masala

Harakatdagi  $m_1$  massali jism qo‘zg’almas  $m_2$  massali jismga uriladi. Urilishni elastikmas va markaziy deb hisoblab, bиринчи jismning  $W_{k1}$  boshlang’ich kinetik energiyasini qancha qismi issiqlikka aylanishini topilsin. Masalani avval umumiy ko‘rinishda yechilsin, keyin esa a)  $m_1=m_2$ ; b)  $m_1=9 m_2$  hollar ko‘rib chiqilsin.

### Yechish:

Bиринчи jismni urilishgacha bo‘lgan kinetik energiyasi  $W_{k1} = \frac{m_1 \vartheta^2}{2}$  ; ikkinchi jismni urilishgacha bo‘lgan kinetik energiyasi  $W_{k2} = 0$ . Ikkala jismni urilishdan keying kinetik energiyasi  $W'_k = \frac{(m_1 + m_2)u^2}{2}$ , bu yerda  $u = \frac{m_1 \vartheta}{m_1 + m_2}$  - jismlarni urilishdan keyingi umumiy tezligi.

Bundan  $W'_k = \frac{m_1^2 \vartheta^2}{2(m_1 + m_2)}$  ni olamiz. Urilishdagi issiqlikka aylangan kinetik energiya:  $W_{k1} - W'_k = \frac{m_1 \vartheta^2}{2} - \frac{m_1^2 \vartheta^2}{2(m_1 + m_2)} = \frac{m_1 \vartheta^2}{2} \left(1 - \frac{m_1}{m_1 + m_2}\right)$ .

Qidirilayotgan nisbat:  $\frac{W_{k1} - W'_k}{W_{k1}} = 1 - \frac{m_1}{m_1 + m_2} = \frac{m_2}{m_1 + m_2}$

a) Agar  $m_1 = m_2$  bo‘lsa, unda  $\frac{W_{k1} - W'_k}{W_{k1}} = 0,5$  ;

b) Agar  $m_1 = 9m_2$  bo‘lsa, unda  $\frac{W_{k1} - W'_k}{W_{k1}} = 0,1$  .

## 8-masala

Gorizontal uchib kelayotgan o‘q yengil qattiq sterjenga osilgan sharga tegadi va unda tiqilib qoladi(34-rasm). O‘qning massasi  $m_1 = 5 g$ , sharning massasi  $m_2 = 0.5 kg$ . O‘qning tezligi  $\vartheta_1 = 500 m/s$ . O‘q tekkandan keyin shar aylananing eng yo‘qari nuqtasiga ko‘tarilishi

uchun sterjenning chegaraviy uzunligi  $l$  (osilish nuqtasidan shar markazigacha bo‘lgan masofa) qanday bo‘lishi kerak?

### **Yechish:**


Berilgan sistema uchun impulsning va energiyaning saqlanish qonunlarini yozamiz:

$$m_1 \vartheta_1 = (m_1 + m_2) \vartheta_2 \quad (1);$$

$$\frac{(m_1 + m_2) \vartheta_2^2}{2} = (m_1 + m_2) g \quad (2),$$

bu yerda  $v_2$  — shar bilan o‘qni urilishdan keyingi tezligi. Shar ko‘tariladigan balandlik

$$h = 2 l.$$



34-rasm.

$$(2) \text{ dan } \frac{\vartheta_2^2}{2} = 2gh, \text{ bundan } l = \frac{\vartheta_2^2}{4g}. \text{ (1) dan } \vartheta_2 = \frac{m_1 \vartheta_1}{m_1 + m_2},$$

$$\text{unda } l = \frac{m_1^2 \vartheta_1^2}{(m_1 + m_2) 4g}; \quad l = 0,64 \text{ m.}$$

### **9-masala**

Tarozi pallasiga yuk qo‘yilgan (35-rasm). Tarozining strelkasi tinchlangandan keyin 5 bo‘limni ko‘rsatgan bo‘lsa, dastlabki og’ishda strelka necha bo‘limni ko‘rsatgan?


**Yechish:** Energiyani saqlanish qonuniga asosan

$$W_{n1} = W_{n2}.$$

Gravitatsion va elastik o‘zarota’sir potensial energiyalari:

$$W_{n1} = mgH; W_{n2} = \frac{kx^2}{2},$$

$$\text{bundan } mgh = \frac{kx^2}{2} \quad (1).$$



35-rasm.

muvozanat o‘rnatilgandan keyin  $m\vec{g} + \vec{F}_{yp} = 0$ , bu yerda

$F_{ynp} = -kx$  – Guk qonuni.  $y$  o‘qiga proeksiyalari  $mg + kx = 0$ ,

bundan  $\kappa = \frac{mg}{x}$  (2). (2) ni (1) ga qo‘yib  $mgH = \frac{mg}{x} \cdot \frac{x^2}{2}$  ni olamiz.

Demak  $H = \frac{x}{2}$  va  $x = 2H$ , bundan  $x = 2 \cdot 5 = 10$  bo‘limni.

## 10-masala

$R = 10 \text{ cm}$  radiusli mis shar o‘z og’irlilik markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida  $n = 2 \text{ ayl/s}$  ga mos tezlik bilan aylanadi. Sharning burchak tezligini ikki marta orttirish uchun qanday ish bajarish kerak?

### Yechish:

Sharning aylanish kinetik energiyasi  $W_k = \frac{J\omega^2}{2}$ , bu yerda sharning inertsiya moment  $J = \frac{2}{5}mR^2$ . Sharning aylanish burchak tezligini orttirishda bajarilgan ish uning kinetik energiyasini o‘zgarishiga teng.

$$A = W_{k2} - W_{k1}, \text{ bu yerda } W_{k1} = \frac{J\omega_1^2}{2}; \quad W_{k2} = \frac{J\omega_2^2}{2} = \frac{4J\omega_1^2}{2}.$$

$$\text{Bundan } A = \frac{4J\omega_1^2 - J\omega_1^2}{2} = \frac{3}{2}J\omega_1^2 \quad (1); \quad \omega_1 = 2\pi n \quad (2).$$

$$\text{Shar massasi } m = V\rho = \frac{4}{3}\pi R^3 \rho, \quad \rho = 8,6 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3,$$

$$\text{Unda } J = \frac{2}{5} \cdot \frac{4}{3} \pi R^3 \rho R^2 = \frac{8}{15} \pi R^5 \rho \quad (3). \quad (2) \text{ va } (3) \text{ larni } (1) \text{ ga qo‘yib}$$

$$A = \frac{3}{2} \frac{8}{15} \pi R^5 \rho 4\pi^2 n^2 = \frac{16}{5} \pi^3 R^5 \rho n^2 \text{ ni olamiz.}$$

Masala shartida berilganlarni va doimiy kattaliklarni oxirgi ifodaga qo‘ysak ishning quyidagi qiymatni olamiz:  $A = 34,1 \text{ J}$ .

## Variantlar jadvali

<b>Variant raqami</b>	<b>Masalalar raqami</b>				<b>Variant raqami</b>	<b>Masalalar raqami</b>			
<b>1</b>	4	53	101	151	<b>26</b>	21	76	117	153
<b>2</b>	3	52	102	152	<b>27</b>	22	77	118	155
<b>3</b>	2	51	103	154	<b>28</b>	23	78	119	156
<b>4</b>	1	54	104	158	<b>29</b>	24	79	120	157
<b>5</b>	7	55	105	159	<b>30</b>	34	80	127	161
<b>6</b>	5	68	106	160	<b>31</b>	35	81	128	162
<b>7</b>	6	69	107	169	<b>32</b>	36	82	129	163
<b>8</b>	10	67	108	170	<b>33</b>	37	83	130	164
<b>9</b>	8	66	109	173	<b>34</b>	31	84	131	165
<b>10</b>	9	65	110	176	<b>35</b>	32	85	132	166
<b>11</b>	13	56	111	179	<b>36</b>	33	86	133	167
<b>12</b>	11	57	112	180	<b>37</b>	30	87	134	168
<b>13</b>	12	58	113	183	<b>38</b>	44	89	135	171
<b>14</b>	15	59	114	184	<b>39</b>	45	88	136	172
<b>15</b>	14	60	115	185	<b>40</b>	47	98	137	174
<b>16</b>	20	61	116	188	<b>41</b>	48	94	138	175
<b>17</b>	19	62	121	193	<b>42</b>	49	95	142	177
<b>18</b>	16	63	122	195	<b>43</b>	22	96	143	178
<b>19</b>	17	64	123	196	<b>44</b>	40	90	144	181
<b>20</b>	18	72	124	150	<b>45</b>	39	91	145	182
<b>21</b>	25	71	125	196	<b>46</b>	38	92	146	186
<b>22</b>	26	70	156	198	<b>47</b>	41	97	147	187
<b>23</b>	27	73	139	197	<b>48</b>	42	98	148	189
<b>24</b>	28	74	140	194	<b>49</b>	43	99	143	190
<b>25</b>	29	75	141	192	<b>50</b>	45	50	100	191

## **Mustaqil yechish uchun masalalar**

1. Radiusi  $R = 0,4 \text{ m}$  bo‘lgan g‘ildirakka  $M = 0,7 \text{ N}\cdot\text{m}$  aylantiruvchi moment ta’sir etmoqda. G‘ildirak aylanmasligi uchun ikkita tormozlovchi kolodkaning har biriga  $F = 3 \text{ H}$  kuch ta’sir etishi kerak. Kolodkalarning g‘ildirakka ishqalanish koeffitsiyentini toping.
2.  $0,5 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayotgan  $80 \text{ kg}$  massali platformaga  $20 \text{ kg}$  massali yuk qo‘yildi. Bunda platformaning tezligi qanchaga ( $\text{m/s}$ ) kamayadi?
3.  $m_1 = 240 \text{ kg}$  massaga ega bo‘lgan lodkada  $m_2 = 60 \text{ kg}$  bo‘lgan odam turibdi. Lodkaning tezligi  $\vartheta_1 = 2 \text{ m/s}$ . Odam lodkadan gorizontal holda  $\vartheta = 4 \text{ m/s}$  tezlik bilan sakradi (lodkaga nisbatan). Lodkaning harakatini va tezligini odam sakragandan keyin 2 holat uchun toping: 1) odam qayiqning harakati bo‘yicha sakradi, 2) unga qarama-qarshi tomonga sakradi.
4. Uzunligi  $L$ , massasi  $M$  bo‘lgan bir jinsli ingichka sterjenning uning chetidan sterjen uzunligining to‘rtdan bir qismiga teng bo‘lgan masofadan o‘tuvchi sterjenga perpendikulyar o‘qqa nisbatan inersiya momentini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
5. Massasi  $m = 10 \text{ kg}$  bo‘lgan snaradning trayektoriyasini eng yuqori nuqtasini  $\vartheta = 200 \text{ m/s}$  tezlik bilan egalladi. Bu nuqtada u ikki qismga bo‘linib ketdi. Massasi  $m_1 = 3 \text{ kg}$  bo‘lgan kichik qismi tezligi  $\vartheta_1 = 400 \text{ m/s}$  bo‘lib oldingi yo‘nalishda harakatni davom ettirdi. Ikkinchisi, katta qismni ajralishdan keyingi  $\vartheta_2$  tezligi topilsin.
6. Ikkita chang‘i uchuvchilar massalari  $m_1 = 80 \text{ kg}$  va  $m_2 = 50 \text{ kg}$ , bir-biriga qarama-qarshi turib, uzun shnurni o‘ziga tomon tortadi, uning

tezligi  $v = 1 \text{ m/s}$ . Ular qanday  $U_1$  va  $U_2$  tezliklar bilan harakat qiladi? Qarshilik kuchini e'tiborga olmang.

**7.** O't o'chiruvchi suvni olovga to'g'rilaydi. Suvning tezligi  $\vartheta = 16 \text{ m/s}$ . Shlang yuzasi  $S = 5 \text{ cm}^2$ . Brandspoitni ushlab turuvchi o't uchiruvchini kuchini toping.

**8.** Relslarda platforma turibdi, unga gorizontal holda siljimaydigan qurilma qo'yilgan. To'pdan o'q otiladi. O'qning massasi  $m_1 = 10 \text{ kg}$ . Uning tezligi  $\vartheta = 1 \text{ km/s}$ . Platformani o'q bilan birga massasi  $M = 2 \cdot 10^4 \text{ kg}$ . Agar ishqalanish koyeffitsiyenti  $\mu = 0.002$  bo'lsa platforma qancha masofaga siljiydi?

**9.** Stvolining massasi  $m_1 = 500 \text{ kg}$  bo'lgan to'p gorizontal yo'nalishda otadi. Snaradning massasi  $m_2 = 5 \text{ kg}$  va uning boshlang'ich tezligi  $v_o = 460 \text{ m/s}$ . O'q otilgandan keyin stvol orqaga  $S = 40 \text{ cm}$  masofaga siljiydi. O'rtacha tormozlanish kuchi  $F$  topilsin.

**10.** Harakatlanuvchi  $m_1$  massali jism  $m_2$  massali tinch turgan jismga uriladi. Markaziy elastik urilishda 1-jismning tezligi 1.5 marta kamayishi uchun,  $m_1/m_2$  nisbati nimaga teng bo'lishi kerak?

**11.** Tinch turgan vodorod atomi bilan geliy atomi elastik urilganda geliy atomining tezligi qanchaga kamayadi? Vodorod atomining massasi geliy atomining massasidan 4 marta kam.

**12.** Sharcha devorga  $m = 200 \text{ g}$  tezlik bilan urildi va shu tezlik bilan qaytdi. Sharchaning tezligi  $v = 10 \text{ m/s}$ . Agar sharcha devor tekisligiga  $\alpha = 30^\circ$  ostida urilgan bo'lsa, devordan olingan impuls hisoblansin.

**13.**  $m_1 = 2 \text{ kg}$  bo'lgan gorizontal uchayotgan o'q massasi  $m_2 = 10^3 \text{ kg}$  bo'lgan platformadagi qumga kelib tushadi va botib qoladi. Agar

platforma  $v = 1 \text{ m/s}$  bilan harakat qilgan bo'lsa, o'q qanday tezlik bilan uchib kelgan?

**14.** Massasi  $m = 250 \text{ g}$ , tezligi  $v = 50 \text{ m/s}$  bo'lgan koptok vertikal devorga elastik urilib orqaga qaytadi. Devor  $\rho = 2.2 \text{ kg} \cdot \text{m/s}$  impuls qabul qiladi. Tushish burchagi va koptokka berilgan kuch topilsin. Urilish vaqt  $\Delta t = 0.02 \text{ s}$  deb olinsin.

**15.** Molekula  $\alpha = 60^\circ$  burchak ostida  $v = 400 \text{ m/s}$  tezlik bilan devorga elastik urilib qaytadi. Devordan olingan kuch impulsini aniqlang. Molekula massasi  $m = 3 \cdot 10^{-23} \text{ g}$ .

**16.** O'q massasi  $m_1 = 2 \text{ kg}$ ,  $v_1 = 300 \text{ m/s}$  tezlik bilan nishonga tushadi. Uning massasi  $m_2 = 100 \text{ kg}$ . O'q tushgandan keyin nishon qaysi yo'nalishda va qanday v tezlik bilan harakatlanadi? 2 xil hol uchun: 1) nishon tinch holatda, 2) nishon o'q bilan bir xil yo'nalishda  $v_2 = 72 \text{ km/soat}$  tezlik bilan harakatlanadi.

**17.** O'q massasi  $m_1 = 2 \text{ kg}$ ,  $v_1 = 300 \text{ m/s}$  tezlik bilan qumli nishonga tushadi. Uning massasi  $m_2 = 100 \text{ kg}$ . Agar nishon o'qqa yuzma-yuz  $v_2 = 72 \text{ km/h}$  tezlik bilan harakatlanib kelayotgan bo'lsa, o'q tushgandan keyin nishon qanday tezlik bilan va qaysi yo'nalishda harakatlanadi?

**18.** Gorizontal  $v = 600 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchib ketayotgan o'q ikkita zarraga ajralib ketadi. Zarralardan birining massasi ikkinchisidan ikki marta katta.  $M$  katta bo'lgan zarracha vertikal yerga tushadi, m kichigi esa gorizontga  $\alpha = 60^\circ$  ostida tushadi. Ikkinci zarrachaning  $v_2$  tezligi topilsin.

**19.** Massasi  $m = 20 \text{ kg}$ , boshlang'ich tezligi  $v_o = 200 \text{ m/s}$  va gorizont bilan  $\alpha = 60^\circ$  burchakni tashkil qilgan (snaryad) o'q uchib bormoqda. U eng baland cho'qqiga ko'tarilganda nishonga tegdi va  $t = 0.02 \text{ s}$  da

tezligini to‘la yo‘qotdi. O‘rtacha to‘qnashuv kuchi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

**20.** Massasi  $10 \text{ g}$  bo‘lgan po‘lat sharcha  $1 \text{ m}$  balandlikdan po‘lat plita ustiga tushib  $0,8 \text{ m}$  masofaga sakrab ketdi. Shar impulsining o‘zgarishini toping.

**21.** Massassi  $250 \text{ g}$  bo‘lgan raketani  $50 \text{ g}$  portlovchi moddasi bor. Agar portlovchi modda birdaniga portlaydi deb faraz qilsak, bu holda hosil bo‘lgan gazning tezligi  $300 \text{ m/s}$  bo‘ladi. Raketaning eng yuqori ko‘tarilgan holatdagi potensial energiyasi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

**22.** Gorizontal tekislikda  $v_1 = 3 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayo‘tgan aravacha ustida odam turibdi. Odam aravacha harakati yo‘nalishiga teskari bo‘lgan tomonga sakradi. Bu holda aravachaning tezligi ortib  $u_1=4 \text{ m/s}$  bo‘lib qoladi. Odamning aravachaga nisbatan sakrashdagi tezlikni gorizontal tashkil etuvchisi  $v_2$  ni toping. Aravachaning massasi  $m_1 = 210 \text{ kg}$ , snaryadning massasi  $m_2 = 70 \text{ kg}$ .

**23.** Temir yo‘l platformasiga qattiq o‘rnatilgan pushkadan temir yo‘l bilan  $\alpha = 30^\circ$  hosil qiladigan qilib o‘q uzildi. Agarda snaryad  $v_1 = 480 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilib chiqsa platformani orqaga qaytib yurish tezligi  $v_2$  topilsin. Platformani pushka va snaryad bilan birgalikdagi massasi  $m_1 = 18 \text{ kg}$ , snaryadning massasi  $m_2 = 60 \text{ kg}$ .

**24.** Massalari bir xil  $m = 200 \text{ kg}$  dan (qayiq, yuk va odamlarni massalari kiradi) bo‘lgan ikkita qayiq bir-biriga qarab bir xil  $1 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanmoqda. Qayiqlar tenglashganda biridan ikkinchisiga va ikkinchisidan birinchisiga bir xil massali  $m_1 = 20 \text{ kg}$  yuk otildi. Yuk qo‘ylgandan keyingi qaiyiqlarning tezligi  $v_1$  va  $v_2$  topilsin.

- 25.** Massasi  $m = 300 \text{ g}$  va tezligi  $v = 8 \text{ m/s}$  bo‘lgan sharcha devorga  $30^\circ$  burchak ostida kelib urilganda devorning olgan impulsi hisoblansin. Devorga bo‘lgan urilish elastik deb hisoblansin.
- 26.** Uzun taxtaga engil g‘ildiraklar o‘rnatilib aravacha qilingan. Taxtaning bir uchida odam turibdi. Uning massasi  $m_1 = 60 \text{ kg}$  va taxtaning massasi  $40 \text{ kg}$ . Agar odam taxtada (taxtaga nisbatan)  $v = 1 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakat qilsa, taxta polga nisbatan qanday tezlik bilan harakatlanadi? Ishqalanish kuchi va g‘ildirakning massasi e’tiborga olinmasin.
- 27.**  $v = 400 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayo‘tgan snarad ikkiga bo‘linib ketdi. Snarad massasini  $40\%$  tashkil qiladigan kichik massali bo‘lakcha tezligi  $u_1 = 150 \text{ m/s}$  bo‘lgan tezlik bilan harakat yo‘nalishiga teskari tomon harakatlandi. Katta massali burchakning tezligi  $u_2$  topilsin.
- 28.** Qayiq uchida turgan odam qayiqning oxiri tamon yuradi. Agarda qayiqning massasi  $m = 120 \text{ kg}$ , odamning massasi  $m = 60 \text{ kg}$ , qayiqning uzunligi  $3 \text{ m}$  bo‘lsa, qayiq qanday masofaga siljiydi? Suvning qarshiligi e’tiborga olinmasin.
- 29.** Yoqilg‘isiz massasi  $m_1 = 400 \text{ g}$  bo‘lgan raketa yoqilg‘i yonishi natijasida  $h = 125 \text{ m}$  balandlikka ko‘tarilgan. Yoqilg‘ining massasi  $m_2 = 50 \text{ g}$ . raketani yonilg‘isi birdaniga hammasi yonadi deb hisoblab, raketadan chiqayotgan gazning tezligini hisoblang.
- 30.**  $m$  massali havoda muallaq turgan ayrostatga uzunligi  $l$  bo‘lgan arqonli narvon ulangan. Narvonning eng pastida turgan odam arqonni eng tepasiga chiqqanida uning Yerga nisbatan siljishi  $S = 0,9 \text{ m}$  bo‘lsa, odamning og‘irligi qancha bo‘ladi?

**31.** Uzunligi  $l = 10 \text{ m}$  va massasi  $m = 400 \text{ kg}$  bo‘lgan sol suvda muallaq turibdi. Sol uchlarida turgan va massalari  $m_1 = 60 \text{ kg}$ ,  $m_2 = 40 \text{ kg}$  ikkita bola bir xil tezlik bilan bir-biriga qarab yuradi va ular solni biror nuqtasida uchrashadi. Sol qancha masofaga siljiydi?

**32.** Ikkita jism bir-biriga qarab bir xil tezlik  $v = 3 \text{ m/s}$  bilan harakatlanadi. To‘qnashishdan keyin esa birgalikda harakatlanadi.  $u = 1,5 \text{ m/s}$ . Bu jismlar massalarining nisbati topilsin. Ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**33.** Massasi  $m_1 = 20 \text{ t}$  bo‘lgan temir yo‘l platformasi  $v_1 = 9 \text{ km/h}$  tezlik bilan harakatlanmoqda. Platforma ustiga o‘rnatilgan pushkadan, pushkaga nisbatan massasi  $m_2 = 25 \text{ kg}$ , tezligi  $v_2 = 700 \text{ m/s}$  bo‘lgan snarad otilgan. O‘q otilgandan keyin platformaning tezligi: 1) o‘q platforma harakatlanayotgan yo‘nalishda; 2) o‘q platforma harakatiga teskari yo‘nalishda topilsin.

**34.** Moddiy nuqtaning harakati  $x = 5 - 8t + 4t^2$  tenglama bilan berilgan. Uning massasi  $m = 2 \text{ kg}$  bo‘lsa,  $t = 2 \text{ s}$  dan  $t = 4 \text{ s}$  o‘zgarganda moddiy nuqtaning impulsini va bu o‘zgarishni yuzaga keltiruvchi kuchni toping.

**35.** Massasi  $m = 1 \text{ kg}$  bo‘lgan moddiy nuqta aylana bo‘ylab  $v = 10 \text{ m/s}$  tezlik bilan tekis harakat qilmoqda. Davrning to‘rtidan bir qismida, yarim davrda va to‘la bir davr mobaynida impulsni o‘zgarishini toping.

**36.** Avtomatning massasi  $m_1 = 3,8 \text{ kg}$ , o‘qning massasi  $m_2 = 7,9 \text{ g}$ . O‘q uchun ishlatilgan poroxning masasi  $m_3 = 1,6 \text{ g}$ , o‘qning avtomatdan uchib chiqish tezligi  $715 \text{ m/s}$ . Porox gazining tezligi o‘qning uchish tezligining yarmiga teng deb hisoblab, avtomatni orqaga tepkili harakat tezligi topilsin.

- 37.** Massasi  $m_1 = 750 \text{ t}$  bo‘lgan kema ustidagi pushkadan harakat yo‘nalishiga teskari, lekin gorizont bilan  $\alpha = 60^\circ$  burchak ostida o‘q uzilgan. Massasi  $m = 30 \text{ kg}$  bo‘lgan snarad  $v = 10^3 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan bo‘lsa, kemaning tezligi qanchaga o‘zgargan?
- 38.** Gorizontga nisbatan biror burchak ostida uchirilgan raketa trayektoriyasining eng yuqori nuqtasi  $h = 400 \text{ m}$  da ikki qismga ajralib ketdi. Portlashdan  $t = 2 \text{ s}$  o‘tganda parchaning bir bo‘lagi raketa uchirilgan yerdan  $S = 1 \text{ km}$  masofaga tushgan bo‘lsa, ikkinchi bo‘lagi qanday masofaga tushadi?
- 39.** Massasi  $M = 1000 \text{ kg}$  harakat tezligi  $v_1 = 171 \text{ m/s}$  bo‘lgan ikki bosqichli raketadan massasi  $m=400 \text{ kg}$  bo‘lgan ikkinchi bosqichi ajralganda uning tezligi  $v_2 = 185 \text{ m/s}$  ga o‘zgargan. Raketaning birinchi bosqich tezligini toping.
- 40.** Ko‘lda muallaq holda qayiq turibdi. Qayiqning uchida va oxirida baliqchilar o‘tiribdi. Ular orasidagi masofa  $\ell=5 \text{ m}$ . Qayiqning massasi  $m=50 \text{ kg}$ , baliqchining massasi  $m_1=90 \text{ kg}$  va  $m_2=60 \text{ kg}$ . Agarda baliqchilar o‘rinlarini almashsalar qayiq qanday masofaga siljiydi, suvning qarshiligi hisobga olinmasin.
- 41.** Massasi  $m_1 = 120 \text{ kg}$  bo‘lgan telejka gorizontal tekislikda inertsiya bo‘yicha  $v = 6 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanmoqda. Gorizontal tekislikda harakat yo‘nalishi bilan  $\alpha = 30^\circ$  burchak hosil qiluvchi yo‘nalishda massasi  $m_2 = 80 \text{ kg}$  bo‘lgan odam sakrab tushib qolgan. Bu holda telejkaning tezligi  $v_1 = 5 \text{ m/s}$  gacha kamaygan. Yerga nisbatan sakragan odamning tezligi qanday bo‘lgan?
- 42.** Daryoning ustidagi silliq muz ustida turgan konkilik odam massasi  $0,5 \text{ kg}$  bo‘lgan toshni gorizontal yo‘nalishda otdi. Tosh  $t = 2 \text{ s}$  da  $S = 20$

$m$  masofani o‘tib narigi qirg‘og‘iga etadi. Agar odamning massasi  $M = 60 \text{ kg}$  bo‘lsa, u qanday tezlik bilan harakat qiladi? Ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**43.** Massalari  $m_1 = 70 \text{ kg}$  va  $m_2 = 80 \text{ kg}$  bo‘lgan odamlar g‘ildirakli konkida bir-birini ro‘parasida turibdi. Birinchi odam ikkinchisiga tezligining gorizontal tashkil etuvchisi  $v = 5 \text{ m/s}$  va massasi  $10 \text{ kg}$  bo‘lgan yuk otadi. Yukni otgandan keyin birinchi odamni tezligini va ikkinchi odam yukni qabul qilgandan keyingi tezliklari topilsin. Ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**44.** Massasi  $m_1 = 9 \text{ kg}$  qum solingan yashik  $v = 6 \text{ m/s}$  tezlik bilan absolut silliq tekislikda harakat qilmoqda. Boshlangich tezligi nolga teng va massasi  $m_2 = 1 \text{ kg}$  bo‘lgan tosh  $h = 10 \text{ m}$  balandlikdan qum ustiga tushadi. Tosh tushgandan keyin yashikning tezligini toping.

**45.** Massasi  $M = 350 \text{ kg}$  bo‘lgan va havoda muallaq turgan aerostatdan osma arqon yordamida odam tushishi kerak. Odamning massasi  $70 \text{ kg}$ . Yerdan aerostatgacha bo‘lgan masofa  $S = 10 \text{ m}$ . Odam narvonni oxirgi pog‘onasidan yerga qadam qo‘yish uchun aerostatga qanday minimal uzunlikdagi arqon ulashi kerak?

**46.** Silliq relsda aravacha turibdi. Odam aravachani bir uchidan ikkinchi uchiga o‘tsa, aravacha qanday masofaga siljiydi? Odamning massasi  $m_1 = 60 \text{ kg}$  aravachaning massasi  $m_2 = 120 \text{ kg}$ , uzunligi  $\ell = 3 \text{ m}$ .

**47.** Asosidagi burchagi  $\alpha = 30^\circ$  bo‘lgan qiya tekislikdan massasi  $m_1 = 10 \text{ kg}$  va tezligi  $v = 1 \text{ m/s}$  bo‘lgan qum solingan yashik tushib kelmoqda. Yashikning massasi  $m_2 = 10 \text{ g}$  bo‘lgan, gorizontal uchib kelayotgan o‘q tegsa u to‘xtab qoladi. O‘qning uchish tezligini toping.

- 48.** Asosi bilan hosil qilgan burchagi  $\alpha=45^\circ$  ponadan  $h = 20 \text{ m}$  balandlikdan massasi  $m_1 = 0,5 \text{ kg}$  bo‘lgan jism tushmoqda. Pona absolut silliq sirtda yotibdi. Jism pona asosiga tushganda pona qanday masofaga siljiydi? Ponaning massasi  $m_2 = 1,5 \text{ kg}$ .
- 49.** Massasi  $m_1 = 300 \text{ g}$  bo‘lgan jism  $H = 10 \text{ m}$  balandlikdan erkin tushadi  $h = H/2$  balandlikda jismga massasi  $m = 10 \text{ g}$ , tezligi  $400 \text{ m/s}$  bo‘lgan gorizontal uchib ketayotgan o‘q tegib jism ichida qolib ketadi. To‘qnashishdan keyin jism tezligini va tezlikning gorizontal tashkil etuvchisi hosil qilgan burchakni toping.
- 50.** Ikkita qayiq bir-biriga qarab inertsiya bo‘yicha parallel yo‘nalishlar bo‘yicha harakatlanmoqda. Qayiqlar tenglashganda biridan ikkinchisiga massasi  $m = 25 \text{ kg}$  yuk olib qo‘ylgan. Shundan keyin yuk qo‘ylgan qayiq to‘xtab qolgan. Yuksiz qayiq esa  $v = 8 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatni davom ettirgan. Agarda yuk qo‘ylgan qayiqning massasi  $M = 1 \text{ t}$  bo‘lsa, qayiqlar uchrashguncha qanday  $v_1$  va  $v_2$  tezliklar bilan harakatlangan?
- 51.** Massasi  $m_1 = 500 \text{ t}$  bo‘lgan poyezd gorizontal yo‘nalish bo‘ylab tekis harakat qiladi. Poyezddan massasi  $m = 20 \text{ t}$  bo‘lgan vagon ajralib qoldi. Poyezdlar to‘xtaganda ular orasidagi masofa  $S = 500 \text{ m}$  bo‘lgan. Agarda harakatga qarshilik qiluvchi kuch og‘irlik kuchiga proporsional bo‘lsa va u harakat tezligiga bog‘liq bo‘lmasa, vagon to‘xtaguncha qancha yo‘l yurgan?
- 52.** Radiusi  $R = 1,5 \text{ m}$  va massasi  $m_1 = 180 \text{ kg}$  disksimon platforma inertsiya tufayli  $v = 10 \text{ ayl/min}$  vertikal o‘q bo‘yicha aylanma harakat qilmoqda. Plaftormani markazida  $m_2 = 60 \text{ kg}$  massali odam turibdi.

Agarda odam plafotma uchiga qarab yursa, xonani poliga nisbatan u qanday chiziqli tezlikka erishadi?

**53.** Massasi  $m = 60 \text{ g}$  bo‘lgan sharcha uzunligi  $\ell_1 = 1,2 \text{ cm}$  ipga bog‘langan bo‘lib, gorizontal tekislik bo‘ylab  $v_1 = 2 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Sharchani aylanish o‘qiga yaqinlashtirib, ipning uzunligini  $\ell_2 = 0,6 \text{ m}$  gacha kamaytirilgan bo‘lsa, sharcha qanday chastota bilan aylanadi?

**54.** Disk shaklidagi  $R = 1 \text{ m}$  radiusli platforma  $v = 6 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanma harakat qiladi. Platformani chekkasidagi massasi  $m = 80 \text{ kg}$  bo‘lgan odam turibdi. Agarda odam platforma markaziga o‘tsa, u qanday chastota bilan aylanadi? Platformaning inertsiya momenti  $I = 120 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$  (odamning inertsiya momenti moddiy nuqtasinikiga teng deb olinsin).

**55.** Jukovskiy skameykasida odam turibdi va massasi  $m = 0,4 \text{ kg}$  bo‘lgan  $v = 20 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal yo‘nalishda kelayotgan to‘pni ilib oldi. To‘pni trayektoriyasi aylanish vertikal o‘qidan  $l = 0,8 \text{ m}$  masofada o‘tadi. Jukovskiy skameykasida turgan, to‘p tutgan odam qanday burchakli  $\omega$  tezlik bilan aylanadi? Odam bilan skameykani birgalikdagi inersiya momenti  $I = 6 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ .

**56.** Qo‘lida vertikal o‘q yo‘nalishda sterjen ushlab turgan odam Jukovskiy skameykasida turibdi. Skameyka odam bilan birgalikda  $\omega_1 = 1 \text{ ayl/s}$  burchakli tezlik bilan aylanmoqda. Agarda sterjenni gorizontal yo‘nalishga o‘zgartirilsa skameyka odam bilan birga qanday  $\omega_2$  burchakli tezlikda aylanadi? Odam bilan skameykani birgalikdagi inertsiya momenti  $I = 6 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . Sterjenning uzunligi  $l = 2,4 \text{ m}$  massasi  $m = 8 \text{ kg}$ .

**57.** Disksimon platforma inertsiya bo'yicha  $v = 15 \text{ ayl/min}$  bilan vertikal o'q atrofida aylanmoqda. Platformaning chekkasida odam turibdi. Odam plftorma markaziga o'tganda, u  $v_2 = 25 \text{ ayl/min}$  bilan aylangan. Odamning massasi  $m = 70 \text{ kg}$ . Plftormani  $M$  massasi topilsin. Odamning inertsiya momenti moddiy nuqtaniki kabi deb olinsin.

**58.** Radiusi  $R=2 \text{ m}$ , massasi  $M=200 \text{ kg}$  bo'lgan disksimon gorizontal plaftorma chekkasida massasi  $m=80 \text{ kg}$  odam turibdi. Platforma uning markazidan o'tuvchi o'q atrofida aylana oladi. Agar odam platforma cheti bo'ylab platformaga nisbatan  $2 \text{ m/s}$  tezlik bilan yurayotgan bo'lsa, platforma qanday burchakli tezlik bilan aylanadi. Odamni inersiya momenti moddiy nuqtaniki kabi deb olinsin va ishqalanish kuchini hisobga olmang.

**59.** Diametri  $d = 2 \text{ m}$  bo'lgan disksimon platforma vertikal o'q atrofida inersiya bo'yicha  $v_1 = 8 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanayotgan platform chetida massasi  $70 \text{ kg}$  bo'lgan odam turibdi. Odam platform markaziga o'tganda u  $v_2 = 10 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylana boshlaydi. Odamning inertsiya momenti moddiy nuqtaniki kabi deb, platforma massasi  $M$  topilsin.

**60.** O'z o'qi atrofida aylana oladigan gorizonatal disk ustiga radiusi  $R_1 = 50 \text{ cm}$  bo'lgan o'yinchoq temir yo'li o'rnatilgan. Diskning massasi  $m_1 = 10 \text{ kg}$  radiusi  $R_2 = 60 \text{ cm}$ . Tinch turgan diskdagi temir yo'l ustiga massasi  $m = 1 \text{ kg}$  bo'lgan o'yinchoq burama parovoz qo'yib yuborildi. Parovoz relsga nisbatan  $v = 0,8 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakat qilmoqda. Disk qanday burchakli tezlik bilan harakat qilishi topilsin.

**61.** Odam Jukovskiy skameykasida o'tiribdi. Qo'lida aylanish o'qiga vertikal holda aylanish o'qi bo'ylab joylashgan sterjenni ushlab turibdi.

Sterjen uning yuqorigi qismiga joylashgan g‘ildirak uchun o‘q bo‘lib hizmat qiladi. Skameyka qo‘zgalmasdan turibdi, g‘ildirak esa  $v=10 \text{ ayl/s}$  bilan aylanma harakat qilmoqda. Agarda odam sterjenni  $180^\circ$  ga o‘zgartirsa, ya’ni g‘ildirak sterjenni pastki uchida bo‘lsa, skameyka qanday burchakli tezlik bilan aylanadi? Odam bilan skameykani birgalikdagi inertsiya momenti  $I = 6 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ , g‘ildirakning radiusi  $R = 20 \text{ cm}$ , massasi esa  $m = 3 \text{ kg}$  bo‘lib gardish bo‘yicha teng taqsimlangan.

**62.** Gorizontal joylashgan disksimon platforma o‘z o‘qi atrofida aylana oladi. Platformada odam turibdi (masalaning shartiga ko‘ra uni moddiy nuqta deb qarash mumkin). Oldiniga odam ham plftorma ham tinch holatda turibdi. Keyin odam plftorma bo‘ylab yurib aylanib yana oldingi yeriga keladigan bo‘lsa, platforma qanday burchakka buriladi. Odamning massasi  $m = 75 \text{ kg}$  platformaning massasi esa  $M = 100 \text{ kg}$ .

**63.** Odam Jukovskiy skameykasini o‘rtasida turibdi. U bilan birgalikda inertsiya bo‘yicha  $v_I=0,5 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Aylanish o‘qiga nisbatan odamning inertsiya momenti  $I = 1,6 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . Odam ikkala qo‘lini ikki tomonga uzatgan va qo‘llarida  $m = 2 \text{ kg}$  dan bo‘lgan tosh bor. Toshlar orasidagi masofa  $\ell_1 = 1,6 \text{ m}$ . Agarda odam qo‘llarini tushirsa, toshlar orasidagi masofa  $\ell_2 = 0,4 \text{ m}$ . Bu holda odam bilan skameyka sekundiga necha marta aylanadi? Skameykani inertsiya momenti hisobga olinmasin.

**64.** Massasi  $m = 300 \text{ kg}$  va uzunligi  $l = 50 \text{ cm}$  ingichka sterjen markazidan o‘tuvchi, vertikal o‘q atrofida gorizontal tekislik bo‘yicha  $\omega = 10 \text{ ayl/s}$  burchakli tezlik bilan aylanmoqda. Aylanma harakatini ilgarigi tekislikda davom ettirib sterjen shundaiy siljiydiki, bunda

aylanish o‘qi sterjen uchiga mos kelib qoladi. Shu ikkinchi holdagi burchakli tezlik topilsin.

**65.** Odam Jukovskiy stolini o‘rtasida qo‘llarini yoygan holda va qo‘llarida  $5 \text{ kg}$  dan tosh ushlab turibdi. Toshlar orasidagi masofa  $l_1 = 1,5 \text{ m}$ . Qo‘llarini simmetrik ravishda yiqqanda toshlar bilan aylanish o‘qi orasidagi masofa  $\ell_2 = 15 \text{ cm}$  ga qisqargan va stolning aylanish tezligi o‘zgargan. Qo‘llari yoyilgan odam, stol va toshlarni inertsiya momentlari birgalikda  $I = 10 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . Agar birinchi holda stol  $v_1 = 120 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylangan bo‘lsa, ikkinchi holdagi stolning aylanish tezligi topilsin.

**66.** Disk shaklidagi platforma inertsiya bo‘yicha vertikal o‘q atrofida  $v_1 = 14 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. Odam platformani chekkasidan markazigacha o‘tganda aylanish chastotasi  $v_2 = 25 \text{ ayl/min}$  ga o‘zgaradi. Odamning massasi  $m = 70 \text{ kg}$ . Platforma massasi  $M$  topilsin. Odamning inertsiya momenti moddiy nuqtaniki kabi deb olinsin.


**67.** Diametri  $d = 0,8 \text{ m}$  va massasi  $m_1 = 6 \text{ kg}$  bo‘lgan, tinch holatda turgan Jukovskiy stolini chekkasida massasi  $m_2 = 60 \text{ kg}$  bo‘lgan odam turibdi. Agar odam massasi  $m_3 = 0,5 \text{ kg}$  ga teng bo‘lgan va u tomonga uchib kelayotgan to‘jni ilib olsa, stol qanday burchakli tezlik bilan harakatlanadi? To‘jni trayektoriyasi gorizontal va aylanish o‘qidan  $r = 0,4 \text{ m}$  bo‘lgan masofadan o‘tadi. To‘ning tezligi  $v = 5 \text{ m/s}$ .

**68.** Odam Jukovskiy stolida turibdi. U qo‘lida aylanish o‘qiga nisbatan vertikal ravishda bo‘lgan sterjenni uchidan ushlab turibdi. Sterjen uning yuqorigi qismiga joylashgan g‘ildirakni o‘qi bo‘lib hizmat qiladi. Skameyka qo‘zg‘almasdan turibdi, gildirak esa  $v_1 = 15 \text{ l/s}$

chastota bilan aylanma harakat qilmoqda. Agarda odam sterjenni  $180^\circ$  ga o‘zgartirsa, ya’ni g‘ildirak sterjenni pastki uchida bo‘lsa, skameyka qanday burchakli tezlik bilan aylanadi? Odam bilan skameykani birgalikdagi inertsiya momenti  $I = 8 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . gildirakning radiusi  $R = 25 \text{ cm}$ , massasi  $m = 2,5 \text{ kg}$  va gardish bo‘yicha teng taqsimlangan. Odam bilan sterjenning og‘irlik markazi platforma o‘qida yotadi deb hisoblansin.

**69.** Jukovskiy stolida, qo‘lida aylanish o‘qiga vertikal ravishda sterjen ushlab odam turibdi. Odam stol bilan birgalikda  $\omega_1 = 4 \text{ 1/s}$  burchakli tezlik bilan aylanmoqda. Agarda sterjenni odam gorizontal holatga o‘zgartirsa, qanday  $\omega_2$  burchakli tezlik bilan aylanadi? Odam bilan stolni birgalikda inertsiya momenti  $I = 5 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . Sterjen massasi  $m = 6 \text{ kg}$ , uzunligi  $l = 1,8 \text{ m}$ . Odam bilan sterjenni og‘irlik markazi plftormani markaziy o‘qi bilan mos keladi.

**70.** Diametri  $d = 3 \text{ m}$  va massasi  $180 \text{ kg}$  disksimon platforma vertikal o‘q atrofida aylanmoqda(36-rasm). Agarda platforma chekkasidan massasi  $70 \text{ kg}$  bo‘lgan odam platformaga nisbatan  $1,6 \text{ m/s}$  tezlik bilan yursa, platforma qanday burchakli tezlik bilan aylanadi?




36-rasm.

**71.** Disksimon platforma vertikal o‘q atrofidia aylana oladi. Platformani chekkasida odam turibdi(36-rasm). Agarda odam platforma gardishi bo‘yicha yurib yana oldingi yeriga kelsa, platforma qanday

burchakka buriladi? Platformaning massasi  $280 \text{ kg}$ , odamniki  $80 \text{ kg}$ . Odamning inertsiya momenti moddiy nuqtaniki kabi deb olinsin.

**72.** Jukovskiy skameykasida (o‘z o‘qi atrofida aylana oladigan stul) odam o‘tiribdi(37-rasm). U qo‘lida boshi uzra sterjenni ushlab olgan. Sterjenni gorizontal ravishda shunday ushlab olganki, uning aylanish o‘qi stul o‘qi bilan mos keladi. Boshlang‘ich holatda odam va skameyka tinch holatda turibdi. Skameykaning o‘qidagi ishqalanish va havoning qarshiligi hisobga olinmasin. Sterjen o‘rtasidan o‘tadigan vertikal o‘q atrofida odam sterjenni o‘ziga nisbatan  $180^\circ$  ga burilsa, skameyka odam bilan birgalikda qanday burchakka buriladi?. Bu holda odam bilan skameykani birgalikda inertsiya momenti  $3,6 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . Sterjenning uzunligi  $1,6 \text{ m}$  va uning massasi  $2,5 \text{ kg}$ .



37-rasm.

**73.** Jukovskiy skameykasida qo‘llarini yozgan holda har bir qo‘lida massasi  $m = 5 \text{ kg}$  dan bo‘lgan toshlarni ushlab olgan holda odam o‘tiribdi(37-rasm). Toshlar orasidagi masofa  $l_1=1,5 \text{ m}$ . Agar odam qo‘llarini tushirib olsa toshlardan aylanish o‘qigacha bo‘lgan masofa  $l_2=15 \text{ cm}$  bo‘ladi. Natijada aylanish tezligi o‘zgaradi. Odam bilan toshlarning va skameykaning birinchi holdagi inertsiya momentlari  $J_1=10 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . Agar birinchi holatdagi skameykaning aylanish chastotasi  $n_1=120 \text{ ayl/min}$  bo‘lgan bo‘lsa, uning aylanish tezligi qanday o‘zgarganligini aniqlang.

**74.** Gorizontal joylashgan disksimon platforma markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida aylanma harakat qila oladi. Platformada odam turibdi(36-rasm), masala shartiga ko‘ra uni moddiy nuqta deb olish mumkin. Ishqalanish kuchlari e’tiborga olinmasin. Chekkasida odam turgan platforma minutiga 3 marta aylanib aylanma harakat qilmoqda. Odamni yerga nisbatan tezligi nolga teng bo‘lishi uchun u platforma chekkasidan qaysi tomonga va qanday chiziqli tezlik bilan yurishi lozim? Odamning massasi  $75\ kg$ , platforma massasi esa  $100\ kg$ , radiusi  $R=2\ m$ .

**75.** Chekkasida odam turgan platform(36-rasm) o‘z o‘qi atrofida  $2\ ayl/min$  burchakli tezlik bilan tekis aylanmoqda. Agar odam chekkadan markazga o‘tsa, platforma minutiga necha marta aylanadi? Odamning massi  $60\ kg$ , platformani massasi esa  $80\ kg$ , radiusi  $3\ m$ . Odamni moddiy nuqta deb olish mumkin, ishqalanish kuchlari e’tiborga olinmasin.

**76.** Boshlang‘ich holda platforma chekkasida turgan odam tinch turibdi. Keyin odam platformani aylanib chiqadi va boshlang‘ich holatiga keladi. Bunda platforma qanday burchakka buriladi? Odamning massasi  $75\ kg$ , platformaniki esa  $100\ kg$ , radiusi  $3\ m$ . Odamni moddiy nuqta deb olish mumkin, ishqalanish kuchlari e’tiborga olinmasin.

**77.** Boshlang‘ich holatda platforma uning chekkasida turgan odam bilan tinch turibdi. Keyin odam platforma chekkasidan yurib yerga nisbatan aylana hosil qilgan. Platformaga nisbatan odam necha marta aylangan. Odamning massasi  $75\ kg$ , platformaniki  $200\ kg$ . radiusi  $3\ m$ . Odamni moddiy nuqta deb olish mumkin, ishqalanish kuchlari e’tiborga olinmasin.

**78.** Gorizontal disk ko‘rinishidagi plftorma markazdan o‘tuvchi vertikal o‘q atrofida aylanma harakat qila oladi. Platforma ustida odam turibdi. Masala shartiga binoan uni moddiy nuqta deb olish mumkin. Ishqalanish kuchini yengish uchun sarf bo‘ladigan energiyani e’tiborga olinmasin. Massasi  $60 \text{ kg}$  bo‘lgan odam platforma chekkasida  $2,5 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakat qiladi. Agar odam to‘xtab qolsa, platforma qanday davr bilan aylanma harakat qiladi, platformaning massasi  $80 \text{ kg}$ , radiusi esa  $3 \text{ m}$ .

**79.** Chekkasida odam turgan gorizontal disk ko‘rinishidagi platforma avval tinch turgan edi. Keyin odam platforma chekkasi bo‘ylab yuradi va platforma bir to‘la aylangandan so‘ng to‘xtaydi. Odam platformaga nisbatan qanday burilish burchagini o‘tgan? Odam va platforma massalari teng. Odamni moddiy nuqta deb olish mumkin. Ishqalanish kuchini yengish uchun sarf bo‘lgan energiyani e’tiborga olinmasin, platformaning massasi  $80 \text{ kg}$ , radiusi esa  $3 \text{ m}$ .

**80.**  $2 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayotgan jismga tezlik yo‘nalishida  $2 \text{ N}$  kuch ta’sir etadi va  $10 \text{ s}$  dan keyin jismning kinetik energiyasi  $100 \text{ J}$  bo‘lgan. Jism massasi topilsin.

**81.** Pushka stvolining massasi  $600 \text{ kg}$ , snaryadning massasi  $10 \text{ kg}$ . O‘q otilganda snarad  $1,8 \text{ MJ}$  kinetik energiya oladi. Pushkaning stvoli qanday kinetik energiya olishi hisoblansin.

**82.** Massasi  $200 \text{ g}$  pistoletdan massasi  $10 \text{ g}$  bo‘lgan o‘q  $300 \text{ m/s}$  tezlik bilan otildi. Pistoletning tepkisi qattiqligi  $15 \text{ kN/m}$  bo‘lgan prujina bilan stvolga yopishdi. Zatvor o‘q otilgandan keyin qancha masofaga suriladi? Pistolet qattiq (mahkamlangan) o‘rnatilgan.

- 83.** Qiyaligi  $14^\circ$  bo‘lgan tog‘dan massasi  $m=120\ kg$  yuk bilan chana sirpanib tushmoqda. Tushish uzunlig  $S=60\ m$ . Ishqalanish koeffetsiyenti  $1,4$ . Tushish oxirida chana kinetik energiyasi topilsin.
- 84.** Massasi  $10\ kg$  bo‘lgan jism gorizontal tekislikda  $39,2\ N$  kuch bilan tortilmoqda. Agarda kuch jismga  $60^\circ$  burchak ostida ta’sir etsa jism tekis harakat qiladi. Agarda kuch  $30^\circ$  burchak ostida ta’sir etsa jism qanday tezlanish bilan harakat qiladi?
- 85.** Avtomobilning tortish kuchi yo‘lga nisbatan quyidagi qonun bo‘yicha o‘zgaradi  $F = D + BS$ . Kuchning ( $S_1:S_2$ ) oraliqda bajargan ishi topilsin.
- 86.** Ikkita jism bir-biriga qarab harakatlanib noelastik urilish hosil qildi. Birinchi jism to‘qnashguncha tezligi  $2\ m/s$ , ikkinchisiniki esa  $4\ m/s$  ga teng. To‘qnashgandan keyin ikkala jismni birgalikdagi harakat tezligi  $u = 1\ m/s$  ga teng va yo‘nalishi birinchi jism tezligini yonalishi bilan mos tushadi. Birinchi jismning kinetik energiyasi ikkinchisinikidan necha marta katta?
- 87.** Massasi  $5000\ kg$  quroldan massasi  $100\ kg$  snaryad uchib chiqdi. Uchib chiqishdagi snaryadning kinetik energiyasi  $7.5\ MJ$ . Bu snaryad uchib chiqishda qurol qanday “silkinish” kinetik energiyasiga ega bo‘ladi?
- 88.**  $15\ m/s$  tezlik bilan uchib kelayotgan koptopni raketka bilan urib  $20\ m/s$  tezlik bilan qaytarib yuboriladi. Bunda kinetik energiyaning o‘zgarishi  $8,75\ J$  ga teng bo‘lsa, koptokning impulsini o‘zgarishi topilsin.
- 89.** Massasi  $2000\ kg$  bo‘lgan temir yo‘l vagoni ulash temiri (bufer) ga  $0,2\ m/s$  tezlik bilan kelib uriladi. Bunda har ikkala ulash temirlarining

purjinalari  $4 \text{ cm}$  ga siqiladi. Har ikkala prujinaga ta'sir etuvchi maksimal kuch topilsin.

**90.** Massasi  $m$  bo'lgan parusli kema shamol yordamida to'gri chiziqli harakat qilmoqda. Yo'lning vaqtga bog'liq funksiyasi  $S = At^2 + Bt + C$  ko'rinishda berilgan. Shamol kuchini  $O$  dan  $t$  gacha vaqt oralig'ida bajargan ishi topilsin.

**91.** Massasi  $4 \cdot 10^4 \text{ kg}$  vagon  $2 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanib yo'lning oxirida prujinali amortizatorga urilib to'xtaydi. Agarda prujinaning bikrlik koeffitsiyenti  $2,25 \cdot 10^5 \text{ N/m}$  bo'lsa, prujina necha cm ga siqiladi?

**92.** Massasi  $m=10^3 \text{ kg}$  samolyot  $1200 \text{ m}$  balandlikda gorizontal  $50 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchmoqda. Motori o'chirilgandan keyin u planli uchishga o'tib yerga qo'nganda tezligi  $25 \text{ m/s}$  ga teng bo'ladi. Bosib o'tilgan yo'lni  $8 \text{ km}$  deb olib samolyotni qo'nishdagi qarshilik kuchi topilsin.

**93.** Massasi  $10 \text{ g}$  va  $600 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchib kelayotgan o'q  $4 \text{ cm}$  yog'och taxtaga tegib teshib o'tib, harakatni  $400 \text{ m/s}$  tezlik bilan davom ettiradi. Taxtani o'rtacha qarshilik kuchi topilsin.

**94.** Massasi  $2 \text{ kg}$ , tezligi  $5 \text{ m/s}$  shar ro'parasidan kelayotgan massasi  $3 \text{ kg}$  va tezligi  $10 \text{ m/s}$  shar tomon uchib bormoqda. Sharlaning to'g'ri chiziq bo'yicha noelastik urilishidan keyingi kinetik energiya o'zgarishini toping.

**95.** Massasi  $1 \text{ kg}$  jism boshlang'ich tezligi  $2 \text{ m/s}$  bilan stol ustida harakatlanmoqda. Stol chetiga borib u stoldan tushib ketadi. Stolning yerdan balabdligi  $1 \text{ m}$ . Jismning stolga ishqalanish koeffisiyenti  $0.1$  ga teng. Stol ustida jismning bosib o'tgan yo'li  $2 \text{ m}$ . Jism yerga kelib urilganda ajralib chiqqan issiqlik miqdori topilsin.

**96.** Atom massalari  $10^{-25} \text{ kg}$  va  $3 \cdot 10^{-25} \text{ kg}$  bo‘lgan ikki qismga bo‘linib ketdi. Agarda ularning bo‘linishdan keyingi umumiy kinetik energiyasi  $32 \text{ pJ}$  bo‘lsa, alohida bo‘laklarning kinetik energiyasi topilsin. Atomni bo‘linishgacha bo‘lgan impulsi va kinetik energiyasi e’tiborga olinmasin.

**97.** Prujinasining bikirligi  $150 \text{ N/m}$  bo‘lgan purjinali pistoletdan massasi  $8 \text{ g}$  bo‘lgan o‘q otilgan. Agarda purjina  $4 \text{ cm}$  siqilgan bo‘lsa, o‘qni pistoletdan chiqib ketishidagi tezligi topilsin.

**98.** Atom yadrosi massalari  $1,6 \cdot 10^{-25} \text{ kg}$  va  $2,4 \cdot 10^{-25} \text{ kg}$  bo‘lgan ikki bo‘lakka bo‘linib ketdi. Agarda birinchi bo‘lakning kinetik energiyasi  $18 \text{ nJ}$  bo‘lsa, ikkinchi bo‘lakning kinetik energiyasi topilsin. Yemirilish sodir bo‘lgunga qadar atomning Impulsi va kinetik energiyasi hisobga olinmasin.

**99.** Massasi  $50 \text{ g}$  mixni massasi  $1 \text{ kg}$  bolg‘a bilan devorga qoqayapti. Shunday sharoitda bolg‘ani mixga urishdagi F.I.K. topilsin.

**100.** Massasi  $2 \text{ kg}$  bo‘lgan moddiy nuqta biror kuch ta’sirida  $x = 10 - 2t + t^2 - 0,2t^3$  (m) tenglamaga bo‘ysungan holda harakatlanmoqda. Vaqtning  $5 \text{ s}$  mometiga mos kelgan nuqtaning harakati uchun sarf bo‘layotgan quvvat topilsin.

**101.** Massasi  $5 \text{ kg}$  bo‘lgan ballistik mayatnikka  $10 \text{ g}$  bo‘lgan o‘q tegdi va ichida qolib ketdi. Agarda mayatnik  $10 \text{ cm}$  ga siljigan bo‘lsa o‘qning uchish tezligi topilsin.

**102.** Massalari  $10 \text{ kg}$  va  $15 \text{ kg}$  bo‘lgan ikkita yuk uzunligi  $2 \text{ m}$  ipga bir-biriga tegib turadigan qilib osib qo‘yilgan. Massasi kichik yukni  $30^\circ$  burchakka ko‘tarib qo‘yib yuborilganda ikkala yuk to‘qnashib noelastik urilish hosil qiladi. Bu holda birgalikda qanday balanlikka ko‘tariladi?

**103.** Massasi  $10 \text{ g}$ , tezligi  $600 \text{ m/s}$  bo‘lgan o‘q gorizontal ravishda uchib borib, osib qo‘yilgan yo‘g‘och  $g$  o‘laga urilib, unga  $10 \text{ cm}$  kirib ichida qolib ketdi. Yo‘g‘ochning o‘qqa bo‘lgan qarshilik kuchi topilsin.

**104.** Massasi  $1000 \text{ kg}$  bo‘lgan avtomobil motori o‘chirilgan holda tog‘dan o‘zgarmas  $54 \text{ km/h}$  tezlik bilan tushmoqda. Tog‘ning qiyaligi har  $100 \text{ m}$  ga  $4 \text{ m}$  ni tashkil qiladi. Avtomobil shunday o‘zgarmas tezlik bilan yuqoriga ko‘tarilishi uchun qanday quvvatga ega bo‘lishi kerak.

**105.** Konkichi tezligini  $v$  ga yetkazib, muzli qiyalikka ko‘tarilmoqda. Agar konkini muz bilan ishqalanish koeffitsiyenti  $\mu$  bo‘lsa va qiyalik gorizont bilan  $\alpha$  burchakni tashkil qilsa, konkichi qanday  $h$  balandlikka ko‘tariladi?

**106.** Massasi  $5 \text{ kg}$  bo‘lgan bolg‘a bilan temir bo‘lagi temir taglikda pachoqlanmoqda. Temir taglikning ustidagi temir bo‘lagi bilan birgalikdagi massasi  $100 \text{ kg}$ . Urilish noelastik. Bolg‘ani yuqoridagi shartlar bajarilganda F.I.K. hisoblansin.

**107.** Massasi  $2 \text{ kg}$  yukni tik yuqoriga  $1 \text{ m}$  masofaga o‘zgarmas kuch bilan ko‘tarilganda  $78,5 \text{ J}$  ish bajarilgan. Yuk qanday tezlanish bilan ko‘tariladi?

**108.** Massasi  $0,5 \text{ kg}$  bo‘lgan jism massasi  $1 \text{ kg}$  bo‘lgan, lekin bikrligi  $980 \text{ N/m}$  prujina bilan mahkamlangan taglikka  $5 \text{ m/s}$  tezlik bilan tushsa, prujinani eng ko‘p siqilishi qanday miqdorda bo‘ladi? Urilish noelastik deb olinsin.

**109.** Massasi  $50 \text{ kg}$  bo‘lgan konkichi to‘xtagunga qadar  $25 \text{ s}$  da  $60 \text{ m}$  masofani o‘tdi. Harakat tekis sekinlanuvchan bo‘lgan bo‘lsa konkichi sarflagan quvvat topilsin.

**110.** Uzunligi  $1,5\text{ m}$ , massasi  $10\text{ kg}$  bo‘lgan sterjen uchidan o‘tuvchi qo‘zgalmas o‘q atrofida aylana oladi. Sterjen o‘rtasiga massasi  $10\text{ g}$  oq’ gorizontal yo‘nalishda  $500\text{ m/s}$  tezlik bilan uchib kelib tegadi va unda qolib ketadi. O‘q tekkandan keyin sterjen qandaiy burchakka buriladi?

**111.**  $10\text{ cm}$  balandlikdan  $1\text{ kg}$  massali yuk tarozi pallasiga qanday tezlanish bilan tushadi? Tarozi pallasi muvozanatga kelganida  $0,5\text{ cm}$  pasayadi.

**112.**  $20\text{ t}$  massali po‘lat sharcha  $1\text{ m}$  balandlikdan po‘lat taglik ustiga tushib yana  $81\text{ cm}$  balandlikka sakradi. Urilish sodir bo‘lganda ajralib chiqqan issiqlik miqdori topilsin.

**113.** Massasi  $5\text{ kg}$  bo‘lgan jism massasi  $2,5\text{ kg}$  bo‘lgan jismga kelib urilganda u  $5\text{ J}$  kinetik energiya bilan harakatga keladi. Urilishni markaziy va elastik hisoblab birinchi jismning oldin va keyingi kinetik energiyasi topilsin.

**114.** Gorizont bilan  $60^\circ$  qiladigan qilib yuqoriga tosh otilgan. Boshlang‘ich payitdagi toshning kinetik energiyasi  $20\text{ J}$ . Tosh trayektoriyasining eng yuqori nuqtasida potensial va kinetik energiyalar topilsin Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

**115.**  $m_1$  massali jism  $m_2$  massali jism bilan absolut noelastik to‘qnashganda yo‘qotilgan kinetik energiya qismi topilsin.

**116.** Massasi  $m_1$  neytron  $m_2$  massali tinch turgan proton bilab elastik to‘qnashganda neytron o‘z kinetik energiyasini qanday qismini protonga beradi?

**117.** Massasi  $2\text{ kg}$  bo‘lgan tosh noma’lum balandlikdan  $1,43\text{ s}$  davomida yerga tushdi. Yo‘lning o‘rtasida kinenik va potensial energiyalarni toping. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

- 118.**  $500\text{ g}$  massali, tezligi  $10\text{ cm/s}$  qo‘rg‘oshin shar massasi  $200\text{ g}$  li tinch turgan smola shar bilan to‘qnashgandan keyin birgalikda harakat qiladi Sharlarning to‘qnashuvdan keyingi kinetik energiyalari topilsin.
- 119.** Massasi  $m_1 = 3\text{ kg}$  va tezligi  $4\text{ m/s}$  bo‘lgan jism xuddi shunday massali tinch turgan jism bilan markaziy va noelastik to‘qnashganda ajralib chiqadigan issiqlik miqdori topilsin.
- 120.** Balandligi  $h = 0,5\text{ m}$  bo‘lgan qiya tekislikdan massasi  $m = 3\text{ kg}$  li jism sirpanib tushmoqda. Oxirgi tezligi  $v= 2\text{ m/s}$ . Ishqalanish natijasida ajralgan issiqlik miqdori topilsin, boshlang‘ich tezlik  $v=0\text{ m/s}$ .
- 121.** Massasi  $10\text{ g}$  bo‘lgan o‘q  $1000\text{ m/s}$  tezlik bilan yuqoriga tik otilgan. Yerga qaytib tushishdagi tezligi  $50\text{ m/s}$  bo‘lgan bo‘lsa havoning qarshilik kuchi qanday ish bajargan?.
- 122.** Lokomotiv o‘zgarmas quvvat bilan ishlab, massasi  $m = 2 \cdot 10^6\text{ kg}$  li poyezdni yuqoriga qiyaligi  $tga=0,005$  bo‘lgan qiya tekislikda  $v_l = 30\text{ km/h}$  tezlik bilan va qiyaligi  $tga=0,0025$  bo‘lgan qiya tekislikda esa  $40\text{ km/h}$  tezlik bilan torta oladi. Qarshilik kuchini o‘zgarmas deb hisoblab uning qiymatini toping.
- 123.** Rogatka rezina shnuri  $10\text{ cm}$  cho‘zilgan. Agar  $1\text{ cm}$  cho‘zish uchun  $10\text{ N}$  kuch kerak bo‘lsa massasi  $20\text{ g}$  bo‘lgan tosh qanday tezlik bilan otilgan? Havoning qarshiliqi hisobga olinmasin.
- 124.** Muz ustida turgan konkichi massasi  $5\text{ kg}$  bo‘lgan toshni gorizontal yo‘nalishda otdi va natijada o‘zi orqaga qarab  $1\text{ m/s}$  tezlikda sirpanib ketdi. Konkichini massasini  $60\text{ kg}$  deb olib uning toshni otishdagi bajargan ishini toping.

- 125.** Massasi  $m = 5 \cdot 10^5 \text{ kg}$  poyezd  $30 \text{ km/h}$  tezlik bilan qiyaligi  $h = 10 \text{ m}$  uzunlikda  $l = 1 \text{ km}$ . balandlikli tekislikda ko‘tarilmoqda. Ishqalanish koeffisiynti  $0.002$  bo‘lsa, teplovozning quvvati topilsin.
- 126.** Balandligi  $25 \text{ m}$  bo‘lgan minoradan gorizontal ravishda  $15 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan toshning harakat boshlangandan keyin bir sekund o‘tgach kinetik va potensial energiyasini aniqlang. Toshning massasi  $0,2 \text{ kg}$ . Havoning qarshiligi e’tiborga olinmasin.
- 127.** Jism  $49 \text{ m/s}$  tezlik bilan yuqoriga tik otilgan. Qanday balandlikda uning kinetik energiyasi potensial energiyaga teng bo‘ladi?
- 128.** Katta bo‘lмаган jism sferaning eng yuqori nuqtasidan pastga tomon sirpanmoqda. Qanday balandlikda jism sfera sirtidan ajraladi? Sferaning radiusi  $R$ . Ishqalanish hisobga olinmasin.
- 129.** Massasi  $10 \text{ g}$  o‘q  $600 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchib borib ballistik mayatnikka tegadi va uning ichida qolib ketadi. Mayatnikning massasi  $5 \text{ kg}$ . Mayatnik qo‘zg‘alib qanday balandlikka ko‘tarilgan?
- 130.** Massasi  $80 \text{ kg}$  va radiusi  $30 \text{ cm}$  disksimon maxovik tinch holatda turibdi. Maxovikni  $v = 10 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylantirish uchun qanday ish bajarish kerak?
- 131.** Kinetik energiyasi  $W = 8000 \text{ J}$  bo‘lgan maxovik o‘zgarmas  $v = 10 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Maxovikka qo‘yilgan kuch momenti  $50 \text{ N}\cdot\text{m}$ , qancha vaqtda maxovik tezligini ikki marta oshira oladi?
- 132.** Maxovikning aylanish qonuni  $\varphi = A + Bt + Ct^2$  ko‘rinishda berilgan. Bunda  $A = 2 \text{ rad}$ ,  $B = 32 \text{ rad/s}$ ,  $C = -4 \text{ rad/s}^2$ . Agarda maxovikni inertsiya momenti  $J = 100 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$  bo‘lsa, maxovikni aylanishida ta’sir etuvchi kuchlar hosil qilgan o‘rtacha quvvat topilsin.

**133.** Massasi  $280 \text{ kg}$ , radiusi  $R = 1 \text{ m}$  disksimon platforma berilgan. Uning chekkasida massasi  $60 \text{ kg}$  odam turibdi. Agar  $t = 30 \text{ s}$  da platforma  $v = 1,2 \text{ ayl/s}$  chastotaga erishsa, platformani aylantiruvchi dvigateli foydali quvvati topilsin.

**134.** Inertsiya momenti  $40 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$  bo‘lgan maxovik tinch holatidan boshlab kuch momenti  $M = 20 \text{ N}\cdot\text{m}$  ta’sirida tekis tezlanuvchan harakat qiladi. Tekis tezlanuvchan harakat  $10 \text{ s}$  davom etgan. Maxovikni erishgan kinetik energiyasi topilsin.

**135.** Velosiped haydovchining velosiped bilan birgalikdagi massasi  $78 \text{ kg}$ , bunda g‘ildiraklarning massasi  $3 \text{ kg}$ . G‘ildirakni gardish deb oling. Shu velosipedchining tezligi  $9 \text{ km/h}$  bo‘lganda, uning kinetik energiyasini topilsin.

**136.** Massasi  $80 \text{ kg}$  va radiusi  $40 \text{ cm}$  bo‘lgan disksimon maxovik tinch holatda turibdi. Maxovikni  $v = 10 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylantirish uchun qanday ish bajarish kerak?

**137.** Massasi  $10 \text{ g}$  va tezligi  $800 \text{ m/s}$  bo‘lgan o‘q o‘z o‘qi atrofida  $v = 3000 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanib uchib bormoqda. O‘jni diametri  $8 \text{ mm}$  bo‘lgan silindr deb hisoblab, uning to‘la kinetik energiyasi topilsin.

**138.** Maxovik  $20 \text{ N}\cdot\text{m}$  kuch momenti ta’sirida tinch holatdan tekis tezlanuvchan harakat qila boshladi. O‘ninchi sekundning oxirida  $W = 500 \text{ J}$  kinetik energiyaga ega bo‘ldi. Maxovikning inertsiya momenti nimaga teng?

**139.** Massasi  $1000 \text{ kg}$ , radiusi  $1 \text{ m}$  disksimon stabillashtiruvchi giroskopni  $1 \text{ min}$  oraliqda burchakli tezligi  $30 \text{ s}^{-1}$  bo‘lsa, uni harakatga keltiruvchi motoring quvvati qanday bo‘lishi kerak? Havoning qarshiligi va ishqalanish hisobga olinmasin.

- 140.** Massasi  $1 \text{ kg}$ , diametri  $60 \text{ cm}$  disk (disk yuzasiga perpenendikular va markazdan o‘tuvchi) o‘q atrofida  $20 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanmoqda. Diskni to‘xtatish uchun qanday ish bajarish kerak?
- 141.** Massasi  $5 \text{ kg}$  va radiusi  $5 \text{ cm}$  disk  $v = 10 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanma harakat qilib turganda, qo‘zgalmas turgan massasi  $10 \text{ kg}$ , lekin radiusi yuqoridagidek bo‘lgan diskka tekkizilgan. Agarda ular tekkizilganda sirpanish yo‘q bo‘lsa, disklarni qizdirish uchun sarf bo‘ladigan energiya qismi topilsin.
- 142.** G‘ildirak o‘zgarmas  $\varepsilon = 0.5 \text{ rad/s}^2$  burchakli tezlanish bilan aylanmoqda. Harakat boshlangandan  $15 \text{ s}$  vaqt o‘tgach  $73.5 \text{ kg}\cdot\text{m}^2/\text{s}$  impuls momentiga ega bo‘lgan. Harakat boshlangandan keyin  $20 \text{ s}$  o‘tgach uning kinetik energiyasi qanday bo‘ladi?
- 143.** Massasi  $100 \text{ kg}$  va radiusi  $0.4 \text{ m}$  tinch turgan disksimon maxovikni  $v = 10 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylantirish uchun qancha ish bajarish kerak?
- 144.** Aylanma harakat qilayotgan maxovikka  $M = 1.99 \text{ N}\cdot\text{m}$  tormozlovchi o‘zgarmas kuch momenti ta’sir etsa, u tekis sekinlanuvchan harakat qilib  $N = 80$  aylanib to‘xtagan. Tormozlanish boshlangan payitda maxovikning kinetik energiyasi qanday bo‘lgan?
- 145.** Massasi  $100 \text{ kg}$  va radiusi  $2 \text{ m}$  gorizontal platforma, uning markazidan o‘tuvchi vertikal o‘q atrofida  $v = 10 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. Massasi  $60 \text{ kg}$  odam platformani chekkasida turibdi. Agarda odam chekkadan markazga o‘tsa, u qanday ish bajaradi?
- 146.** Inertsiya momenti  $20 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$  bo‘lgan maxovik  $10 \text{ N}\cdot\text{m}$  kuch momenti ta’sirida tinch holatdan tekis tezlanuvchan harakat qila boshlagan. Bu harakat  $10 \text{ s}$  davom etgan. Kinetik energiyasi topilsin.

**147.**  $v = 10 \text{ ayl/s}$  chastota bilan aylanayotgan maxovikni kinetik energiyasi  $W = 8 \cdot 10^3 \text{ J}$ . Agarda  $5 \text{ s}$  vaqtda maxovikni burchakli tezligi ikki marta oshsa, maxovikka qo'yilgan kuch momenti nimaga teng?

**148.** Uzunligi  $1,5 \text{ m}$  va massasi  $10 \text{ kg}$  sterjen yuqori uchidan o'tuvchi qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakat qila oladi. Sterjenni o'rtasiga massasi  $10 \text{ g}$  o'q gorizontal yo'nalishda  $v_o = 500 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchib kelib tegdi va sterjenda qolib ketdi. Sterjen o'q tekkandan keyin qanday burchakka ( $\varphi$ ) burildi?

**149.** Maxovik o'zgarmas  $v = 900 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. Tormozlanish boshlangandan keyin u tekis sekinlanuvchan harakat qilib  $N = 75 \text{ aylanib}$  to'xtadi. To'xtatishda sarf bo'lган ish  $A = 44.4 \text{ J}$ . Maxovikning inertsiya momenti va tormozlanish kuch momenti topilsin.

**150.** Uzunligi  $1 \text{ m}$  bo'lган ingichka sterjen uchi bilan gorizontal o'qqa mahkamlangan. Sterjenni muvozanat holatdan  $60^\circ$  burchakka burib qo'yib yubordi. Muvozanat holatdan o'tayotgan paytda sterjenning ikkinchi uchini chiziqli tezligi topilsin.

**151.** Motorning yakori  $v=1500 \text{ ayl/min}$  chastota bilan aylanmoqda. Agar motor  $N=500 \text{ W}$  quvvatga erishsa, aylantiruvchi kuch momenti  $M$  topilsin.

**152.** Maxovik  $\varphi = A + Bt + Ct^2$  tenglamaga bo'ysungan holda aylanmoqda. Bunda  $A = 2 \text{ rad}$ ,  $B = 16 \text{ rad/s}$ ,  $C = -2 \text{ rad/s}^2$ . Maxovikning inertsiya momenti  $J = 50 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ . Vaqt  $6 \text{ s}$  ga teng bo'lganda quvvat qancha bo'ladi?

**153.** Massasi  $280 \text{ kg}$ , radiusi  $1 \text{ m}$  platforma chekkasida massasi  $60 \text{ kg}$  odam turibdi. Platormani harakatga keltiruvchi dvigateli foydali

quvvati  $190 \text{ W}$ . Platformani chastotasi  $v = 1,2 \text{ ayl/s}$  bo‘lishi uchun qancha vaqt ketadi?

**154.** Remenli uzatish  $N=9 \text{ kW}$  quvvatni uzatayapti. Uzatish shkivining diametri  $0,48 \text{ m}$  va u  $v=240 \text{ ayl/min}$  bilan ailanmoqda. Remen tortiladigan qismining tarangligi qaytib keladigan tomonning tarangligidan ikki barobar kattadir. Remenning har ikala tomonining tarangligi topilsin.

**155.** Uzunligi  $15 \text{ cm}$  qalam stol ustida tik turg‘azib qo‘yilgan. Qalam qulab tushganda uning uchi qanday chiziqli tezlikka erishadi?

**156.** Disk gorizontal tekislikda  $8 \text{ m/s}$  tezlik bilan dumalab borayapti. U o‘z holicha harakatni davom ettirsa, u qancha masofani bosib o‘tadi? Ishqalanish koeffitsiyenti  $\mu=0,26$ .

**157.** Obruch uzunligi  $3 \text{ m}$  va balandligi  $10 \text{ cm}$  qiya tekislikdan sirpanishsiz dumalab tushsa, qancha vaqt ketadi?

**158.** Shar sirpanishsiz gorizontal tekislikda dumalab ketayapti. Sharning to‘la kinetik energiyasi  $W = 14 \text{ J}$ . Ilgarilanma va aylanma harkat kinetik energiyalarini toping.

**159.** Disk yassi gorizontal tekislikdan  $8 \text{ m/s}$  tezlik bilan dumalab ketayapti. Disk harakatni o‘z holicha davom ettirsa, u  $18 \text{ m}$  masofani bosib o‘tib to‘xtaydi. Qarshilik koeffitsiyentini qiymati nimaga teng?

**160.** Yupqa sirtli va to‘la bo‘lgan silindrлar gorizontal tekislikda dumalab ketayapti. Ularning yo‘lida ma’lum balandlikka ega bo‘lgan kichik qiyalik bor. Silindrлarning tezliklarini minimal qiymatlarining nisbatlari qanday bo‘lganda, ular to‘siqdan o‘tib ketadi?

**161.** Tezligi  $1,4 \text{ m/s}$  bo‘lgan to‘liq shar qiya tekislikdan yuqoriga ko‘tarilayapti. Ishqalanishni e’tiborga olmasdan, sharning maksimal ko‘tarilish balandligi topilsin.

**162.** Yupqa sirtli va to‘liq silindrлar qiya tekislikdan sirpanishsiz bir xil balandlikdan dumalab tushmoqda. Qiya tekislikning oxirida silindrning tezliklari nisbatlari topilsin. Ishqalanish e’tiborga olinmasin.

**163.** Massasi  $2 \text{ kg}$  va  $2 \text{ m/s}$  tezlik bilan sirpanishsiz gorizontal tekislikda dumalab ketayotgan diskni kinetik energiyasi hisoblansin.

**164.** Bir xil  $5 \text{ m/s}$  tezlik bilan sirpanmasdan dumalab ketayotgan massalari bir xil  $2 \text{ kg}$  li g‘ildirak va to‘liq silindr kinetik energiyalarini toping.

**165.** Qiya tekislikdan g‘ildirak ishqalanish bor bo‘lganda dumalab, ishqalanish yo‘q bo‘lsa sirpanib tushadi. Qiya tekislikning oxirida, g‘ildirakning tezligi qaysi holda va necha marta katta bo‘ladi?

**166.** Qiyalik burchagi  $30^\circ$  bo‘lgan tekislikdan shar dumalab tushayapti. Agarda boshlang‘ich tezligi nolga teng bo‘lsa,  $1,5 \text{ s}$  dan keyin qiya tekislikka nisbatan shar markazining tezligi qanday bo‘ladi?

**167.** G‘ildirak va to‘liq shar gorizontal tekislikdan dumalab ketayapti. Bularning yo‘lida ma’lum balandlikka ega bo‘lgan do‘nglik bor. Bu jismlarning do‘nglikdan o‘tishi zarur bo‘lgan eng kichik tezliklari topilsin.

**168.** Uzunligi  $2 \text{ m}$  va balandligi  $10 \text{ cm}$  qiya tekislikdan g‘ildirak ishqalanishsiz qancha vaqt dumalab tushadi?

**169.** Sirpanishsiz dumalab ketayotgan disk, qiyalik burchagi  $30^\circ$  qiya tekislikka parallel  $v = 7 \text{ m/s}$  boshlang‘ich tezlikka ega bo‘lsa, u qancha masofani o‘tadi?

- 170.** Bir jinsli to‘liq disk gorizontal tekislikdan  $10 \text{ m/s}$  tezlik bilan dumalab ketayapti. Disk o‘z holicha dumalasa, to‘xtaguncha qancha yo‘l bosadi? Ishqalanish koeffitsiyenti  $0,02$ .
- 171.** Agarda dumalab ketayotgan diskni aylanma harakatini e’tiborga olmasa, kinetik energiyani hisoblashda qanday nisbiy hatolikka yo‘l qo‘yamiz?
- 172.** Massalari bir xil bo‘lgan va sirpanishsiz dumalab ketayotgan g‘ildirak va diskni chiziqli tezliklari bir xildir. G‘ildirakning kinetik energiyasi  $W = 40 \text{ J}$ . Diskning kinetik energiyasi topilsin.
- 173.** Balandligi  $1 \text{ m}$  bo‘lgan qiya tekislikdan sirpanishsiz dumalab ketayotgan sharning markazi qanday chiziqli tezlikka ega bo‘ladi?
- 174.** Har xil balandlikda qiya tekislikdan sirpanishsiz dumalab ketayotgan sharning markazi qanday chiziqli tezlikka ega bo‘ladi?
- 175.** Uzunligi  $175 \text{ cm}$  qiya tekislikdan g‘ildirak sirpanishsiz dumalab tushmoqda. Qiya tekislikning yuqorigi nuqtasi pastki qismiga nisbatan  $20 \text{ cm}$  baland. Bu nuqtada g‘ildirak tezligi nolga teng. G‘ildirakning tushish vaqtini hisoblansin. Ishqalanish kuchini yengish uchun sarf bo‘lgan energiyani kamayishi e’tiborga olinmasin.
- 176.** Sirpanishsiz dumalab ketayotgan silindr  $0,081 \text{ N}$  kuch bilan to‘xtatildi. Silindr massasi  $2 \text{ kg}$ , tormozlanish masofasi  $0,5 \text{ m}$ . silindrning tormozlangunga qadar bo‘lgan tezligi topilsin.
- 177.** Massasi  $2 \text{ kg}$  va tashqi radiusi  $5 \text{ cm}$  halqa, uzunligi  $2 \text{ m}$  va qiyalik burchagi  $30^\circ$  qiya tekislikdan dumalab tushayapti. Agarda qiya tekislik oxirida halqaning tezligi  $3,3 \text{ m/s}$  bo‘lsa, aylanish o‘qiga nisbatan inertsiya momenti topilsin.

- 178.** Uzunligi  $1\ m$  bo‘lgan ipni uchiga bog‘langan massasi  $0,1\ kg$  sharcha gorizontal tekislikka tayanib,  $1\ s^{-1}$  chastota bilan aylanmoqda. Ip aylanish jarayonida qisqara borib aylanish o‘qidan  $0,5\ m$  gacha yaqinlashadi. Tashqi kuch ipni qisqartira borib qanday ish bajaradi? Sharchaning tekislikdagi ishqalanishi hisobga olinmasin.
- 179.** Radiusi  $0,1\ m$  bo‘lgan shar misdan iborat. U markazdan o‘tuvchi o‘q atrofida  $v = 2\ s^{-1}$  chastota bilan aylanmoqda. Sharning burchakli tezligini ikki marta oshirish uchun qanday ish bajarish kerak?
- 180.** Uzunligi  $L$  va massasi  $M$  bo‘lgan taxta uchida massasi  $m$  ga teng bo‘lgan qurbaqa turibdi. Gorizontga nisbatan  $\alpha$  burchakni tashkil qilgan holda qurbaqa taxta bo‘yicha sakradi. Qurbaqa sakrab taxtani ikkinchi uchida bo‘lishi uchun qanday boshlang‘ich  $v_o$  tezlikka ega bo‘lishi kerak?
- 181.** Ko‘lning sirtida qayiq turibdi. Qayiq qirg‘oqqa nisbatan perpendikular, ya’ni uchi qirg‘oqqa tomon yo‘nalgan. Qayiqning uchi bilan qirg‘oq orasidagi masofa  $0,75\ m$  ga teng. Boshlang‘ich paytda qayiq tinch holatda turibdi. Odam qayiqni uchidan oxiriga o‘tadi. Agar qayiqning uzunligi  $2\ m$  bo‘lsa, u qirgoqqa suzib keladimi? Qayiqning massasi  $140\ kg$ , odamniki esa  $60\ kg$ .
- 182.** O‘z o‘qi atrofida ishqalanishsiz aylana oladigan yengil blokdan ip o‘tkazilib, ipni ikki uchiga massasi  $M$  ga teng bo‘lgan yuklar osilgan. Yuklarning biri yukdan  $h$  masofada turgan teshik halqadan o‘tkazib qo‘yilgan. Ma’lum vaqtadan keyin halqa yuk ustiga tushib ketadi. Yuklarning orasidagi masofa  $2\ h$  ga teng bo‘lguncha ketgan vaqt topilsin. Halqaning massasi m.

**183.** Massasi  $M$  raketadan tezligi  $3 \nu$  bo‘lgan qancha massali yonilg‘ini chiqarib raketaning tezligini  $\nu$  dan  $1,1 \nu$  gacha etkazish mumkin?

**184.** Massasi  $1 \text{ kg}$  va uzunligi  $1,4 \text{ m}$  bo‘lgan zanjir bir uchi stolga tegib turadigan qilib, ip bilan osib qo‘yilgan. Ipni yoqib yuborsak zanjir stol ustiga tushadi. Bunda zanjirni stolga bergen impulsi topilsin.

**185.** Gorizont bilan  $\alpha$  burchakni tashkil qilgan qiya tekislikdan sirpanishsiz massasi  $m$  va radiusi  $R$  bo‘lgan bir jinsli shar dumalab tushmoqda. Sharning boshlang‘ich momentdagi yerga tegib turgan nuqtasiga nisbatan impuls momentini vaqtga bog‘lanishi topilsin.

**186.** Radiusi  $R$  bo‘lgan, og‘ir qo‘zg‘almas blokka cho‘zilmaydigan ip o‘ralgan va uning bir uchiga massasi  $m$  bo‘lgan jism osilgan.  $t = 0$  bo‘lgan vaqtda sistemani o‘z holicha qo‘yib yuborishgan, natijada u harakatga kelgan. Blokning o‘qiga nisbatan impuls momentini vaqt  $t$  ga bog‘liqligi topilsin.

**187.** Massasi  $m$  bo‘lgan sharchani boshlang‘ich  $v_o$  tezlik bilan gorizontga nisbatan  $\alpha$  burchak ostida otilgan. Otilgan nuqtaga nisbatan sharchani impuls momenti vektori modulning vaqtiga bog‘lanishi topilsin. Agarda  $m = 100 \text{ g}$ ,  $\alpha = 45^\circ$ ,  $\vartheta = 25 \text{ m/s}$  bo‘lsa, trayektoriyaning cho‘qqisida sharchaning impuls momenti vektorining moduli topilsin. Havoning qarshiligi e’tiborga olinmasin.

**188.** Uzunligi  $l$  bo‘lgan, uncha katta bo‘lмаган  $m$  massali sharcha biror  $O$  nuqtaga osib qo‘yilgan va gorizontal aylanalar chizib o‘zgarmas burchakli tezlik bilan aylanmoqda. Sharchaning  $O$  nuqtaga nisbatan yarim aylanish impuls momenti vektorining moduli topilsin.

**189.** Gorizontal silliq disk o‘zgarmas  $\omega$  burchakli tezlik bilan markazidan o‘tuvchi  $O$  nuqta vertikal o‘q atrofida aylanma harakat

qilmoqda. Vaqt  $t = 0$  da O nuqtaga boshlang‘ich tezligi  $v_o$  bo‘lgan shayba qo‘yildi. Shaybani disk bilan bog‘langan sanoq sistemasida O nuqtaga nisbatan impuls momenti topilsin.

**190.** Uncha katta bo‘lman jism sferik sirti cho‘qqisidan pastga sirpanib tushmoqda. Agarda sferaning radiusi  $R$  bo‘lsa, jism sfera cho‘qqisidan qanday  $h$  balandlikda undan ajraydi?

**191.** Markazlaridan bir to‘gri chiziqda yotgan beshta shar bir-biridan uncha uzoq bo‘lman masofada turibdi. Sharlarning chekkasidagi tezligi  $10 \text{ m/s}$  bo‘lgan sharlarning markazlarini tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq bo‘ylab xuddi shunday shar kelib urildi. Urilishni absolut elastik deb oxirgi sharning tezligi topilsin.

**192.** Massasi  $0,5 \text{ kg}$  yuk biror balandlikdan bikirlik koeffisiyenti  $k=980 \text{ N/m}$  bo‘lgan purjinaga mahkamlangan massasi  $1 \text{ kg}$  bo‘lgan temir taglikni ustiga tushdi. Agar yukning tushish paytidagi tezligi  $5 \text{ m/s}$  bo‘lsa, purjinani eng ko‘p siqilish masofasi topilsin. Urilishni noelastik deb oling.

**193.** Tezligi  $108 \text{ km/h}$  bo‘lgan samolyot kemani palubasiga qo‘nmoqda. U to‘xtatuvchi elastik arqonga ilinib to‘xtaguncha  $30 \text{ m}$  masofani o‘tadi. To‘xtatish faqat arqonni elastiklik kuchi ta’siri natijasida deb uchuvchining qo‘nish paytidagi maksimal og‘irligi topilsin. Uchuvchining massasi  $70 \text{ kg}$ .

**194.** Uzunligi  $L$  bo‘lgan bir jinsli arqon stol ustidan ishqalanishsiz sirpanib tushmoqda. Boshlang‘ich paytda, arqon harakatni boshlamagan vaqtda, uni osilib turgan qismining uzunligi  $L_o$ . Arqonning hammasi stol ustidan tushganda uni erishgan tezligi topilsin. Arqonning uzunligi stolning balandligidan kichik deb olinsin.

**195.** Radiusi  $R$  bo‘lgan yupqa halqani uning o‘z o‘qi atrofida  $\omega$  burchakli tezlikda aylantirib gorizontal stol ustiga qo‘yildi. Agarda stol bilan halqa orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti  $\mu$  bo‘lsa, halqa qancha vaqtdan keyin to‘xtaydi? Halqa necha marta aylandi?

**196.**  $R$  radiusli harakatlanayotgan zarrachani kinetik energiyasi bosib o‘tilgan yo‘l  $S$  ga  $T = AS^2$  qonun bo‘yicha bog‘langan. Bu yerda,  $A$  – o‘zgarmas kattalik. Zarrachaga ta’sir etuvchi kuchni  $S$  ga bog‘lanishi topilsin.

**197.** Uzunligi  $1,5\text{ m}$ , massasi  $10\text{ kg}$  bo‘lgan sterjen uchidan o‘tuvchi qo‘zgalmas o‘q atrofida aylana oladi. Sterjen o‘rtasiga massasi  $10\text{ g}$  o‘q gorizontal yo‘nalishda  $500\text{ m/s}$  tezlik bilan uchib kelib tegadi va unda qolib ketadi. O‘q tekkandan keyin sterjen qandaiy burchakka buriladi?

**198.** Massasi  $m$  va radiusi  $R$  bo‘lgan g‘ildirak shaklidagi maxovik  $\omega$  burchakli tezlikka aylantirilib o‘z holiga qo‘yib yuborilgan. Ishqalanish kuchi ta’sirida u ma’lum bir vaqtdan keyin to‘xtaydi. Agarda maxovik to‘xtaguncha  $N$  ta aylangan bo‘lsa, ishqalanish kuch momentini o‘zgarmas deb olib, uning qiymati topilsin.

## **ADABIYOTLAR**

1. Q.P. Abduraxmanov, V.S.Xamidov, N.A. Axmedova. “FIZIKA” Darslik. Toshkent. 2018.
2. И.И.Савельев. Курс общей физики. Том 1. Москва 2018.
3. Physics: Principles with Applications 6th Edition by Douglas C.Giancoli, 2014.
4. Сивухин Д. В. Общий курс физики, т. I Механика, М.: Наука, 2005.
5. П.А.Типлер, Р.А.Ллуэллин Современная физика (Лучший зарубежный учебник в двух томах). (1том). М.: Мир, 2007.
6. П.А.Типлер, Р.А.Ллуэллин Современная физика (Лучший зарубежный учебник в двух томах). (2том).М.: Мир, 2007.
7. Трофимова Т.И. Физика (справочник с примерами решения задач). Учебное пособие. М.Высшее образование. 2008. с.447.
8. Трофимова Т.И. Сборник задач по курсу физики для вузов. М.: Высшая школа, 2005.
9. Трофимова Т. И. Физика в таблицах и формулах, Издательство: Академия, с. 448, 2010 г.
10. Абдурахманов К.П., Тигай О.Э., Хамидов В.С. Курс мультимедийных лекций по физике, 2012.

# I L O V A

## 1. Ayrim astronomik kattaliklar

Yer radiusi	$6,37 \cdot 10^6$ m
Yer massasi	$5,98 \cdot 10^{24}$ kg
Quyosh radiusi	$6,95 \cdot 10^8$ m
Quyosh massasi	$1,98 \cdot 10^{30}$ kg
Oy radiusi	$1,74 \cdot 10^6$ m
Oy massasi	$7,33 \cdot 10^{22}$ kg
Yer va Quyosh markazlari orasidagi masofa	$1,49 \cdot 10^{11}$ m
Yer va Oy markazlari orasidagi masofa	$3,84 \cdot 10^8$ m
Oyning Yer atrofida aylanish davri	27 sut 7 soat 43 min
Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri	23 soat 56 min 4,09 s
Yer sirtida erkin tushish tezlanishi	$9,81 \text{ m/s}^2$
Oy sirtida erkin tushish tezlanishi	$1,62 \text{ m/s}^2$

## 2. Karrali va ulushli birliklar old qo‘shimchaları

Karrali			Ulushli		
Old qo‘shimcha	Belgisi	Ko‘paytma	Old qo‘shimcha	Belgisi	Ko‘paytma
tera	T	$10^{12}$	piiko	p	$10^{-12}$
giga	G	$10^9$	nano	n	$10^{-9}$
mega	M	$10^6$	mikro	mk	$10^{-6}$
kilo	K	$10^3$	milli	m	$10^{-3}$
gekto	g	$10^3$	santi	s	$10^{-2}$

### 3.Moddalarning zichliklari

Qattiq jism		Suyuqliklar		Gazlar(normal sharoitda)	
Modda	$\rho, 10^3 \text{kg/m}^3$	Modda	$\rho, 10^3 \text{kg/m}^3$	Modda	$\rho, \text{kg/m}^3$
Alyuminiy	2,7	Benzin	0,70	Vodorod	0,09
Muz	0,9	Suv	1,0	Geliy	0,18
Mis	8,9	Kerosin	0,80	Azot	1,25
Nixrom	8,4	Neft	0,80	Kislorod	1,43
Rux	7,3	Simob	13,6	Havo	1,29
Qo‘rg’oshin	11,3	Spirt	0,79		
Kumush	10,5				
Po‘lat	7,8				
Xrom	7,2				

### 4.Cho‘zilishdagi mustahkamlik chegarasi va elastiklik moduli

Modda	$\sigma_m, \text{MPa}$	E , GPa
Alyuminiy	100	70
Qalay	50	100
Qo‘rg’oshin	15	17
Kumush	140	80
Po‘lat	500	210

## 5. Mexanik kattaliklar

Kattalik	Belgisi	Birligi
Og'irlilik	P	$N = kg \cdot m/s^2$
Vaqt	t, $\tau$	s
Bosim	p	$Pa = N/m^2$
Impuls	p	$kg \cdot m/s$
Bikrlik	k	$N/m$
Foydali ish koeffisienti	$\eta$	-
ishqalanish koeffisienti	$\mu$	-
Massa	m, M	kg
Mexanik kuchlanish	$\sigma$	$Pa = N/m^2$
Kuch momenti	M	$N \cdot m$
Quvvat	N, P	$W = J/s$
Hajm	V	$m^3$
Ko'chish	s	m
Davr (aylanish, tebranish)	T	s
Zichlik	$\rho$	$kg/m^3$
Yuza	S	$m^2$
Yo'l	S	m
Ish	A	$J = N \cdot m$
Kuch	F, N, T	$N = kg \cdot m/s^2$
Tezlik	v, u, V	$m/s$
Burchak tezlik	$\omega$	$rad/s$
Tezlanish	a	$m/s^2$
Aylanish chastotasi	n	$s^{-1}$
Energiya	E, W	$J = N \cdot m$

## 6.Trigonometrik funksiyalar jadvali

<b><math>\alpha</math></b>	<b>Sin <math>\alpha</math></b>	<b>Cos <math>\alpha</math></b>	<b><math>\alpha</math></b>	<b>Sin <math>\alpha</math></b>	<b>Cos <math>\alpha</math></b>	<b><math>\alpha</math></b>	<b>Sin <math>\alpha</math></b>	<b>Cos <math>\alpha</math></b>
<b>0°</b>	0	1						
<b>1°</b>	0.017452	0.999848	<b>31°</b>	0.515038	0.857167	<b>61°</b>	0.87462	0.48481
<b>2°</b>	0.034899	0.999391	<b>32°</b>	0.529919	0.848048	<b>62°</b>	0.882948	0.469472
<b>3°</b>	0.052336	0.99863	<b>33°</b>	0.544639	0.838671	<b>63°</b>	0.891007	0.45399
<b>4°</b>	0.069756	0.997564	<b>34°</b>	0.559193	0.829038	<b>64°</b>	0.898794	0.438371
<b>5°</b>	0.087156	0.996195	<b>35°</b>	0.573576	0.819152	<b>65°</b>	0.906308	0.422618
<b>6°</b>	0.104528	0.994522	<b>36°</b>	0.587785	0.809017	<b>66°</b>	0.913545	0.406737
<b>7°</b>	0.121869	0.992546	<b>37°</b>	0.601815	0.798636	<b>67°</b>	0.920505	0.390731
<b>8°</b>	0.139173	0.990268	<b>38°</b>	0.615661	0.788011	<b>68°</b>	0.927184	0.374607
<b>9°</b>	0.156434	0.987688	<b>39°</b>	0.62932	0.777146	<b>69°</b>	0.93358	0.358368
<b>10°</b>	0.173648	0.984808	<b>40°</b>	0.642788	0.766044	<b>70°</b>	0.939693	0.34202
<b>11°</b>	0.190809	0.981627	<b>41°</b>	0.656059	0.75471	<b>71°</b>	0.945519	0.325568
<b>12°</b>	0.207912	0.978148	<b>42°</b>	0.669131	0.743145	<b>72°</b>	0.951057	0.309017
<b>13°</b>	0.224951	0.97437	<b>43°</b>	0.681998	0.731354	<b>73°</b>	0.956305	0.292372
<b>14°</b>	0.241922	0.970296	<b>44°</b>	0.694658	0.71934	<b>74°</b>	0.961262	0.275637
<b>15°</b>	0.258819	0.965926	<b>45°</b>	0.707107	0.707107	<b>75°</b>	0.965926	0.258819
<b>16°</b>	0.275637	0.961262	<b>46°</b>	0.71934	0.694658	<b>76°</b>	0.970296	0.241922
<b>17°</b>	0.292372	0.956305	<b>47°</b>	0.731354	0.681998	<b>77°</b>	0.97437	0.224951
<b>18°</b>	0.309017	0.951057	<b>48°</b>	0.743145	0.669131	<b>78°</b>	0.978148	0.207912
<b>19°</b>	0.325568	0.945519	<b>49°</b>	0.75471	0.656059	<b>79°</b>	0.981627	0.190809
<b>20°</b>	0.34202	0.939693	<b>50°</b>	0.766044	0.642788	<b>80°</b>	0.984808	0.173648
<b>21°</b>	0.358368	0.93358	<b>51°</b>	0.777146	0.62932	<b>81°</b>	0.987688	0.156434
<b>22°</b>	0.374607	0.927184	<b>52°</b>	0.788011	0.615661	<b>82°</b>	0.990268	0.139173
<b>23°</b>	0.390731	0.920505	<b>53°</b>	0.798636	0.601815	<b>83°</b>	0.992546	0.121869
<b>24°</b>	0.406737	0.913545	<b>54°</b>	0.809017	0.587785	<b>84°</b>	0.994522	0.104528
<b>25°</b>	0.422618	0.906308	<b>55°</b>	0.819152	0.573576	<b>85°</b>	0.996195	0.087156
<b>26°</b>	0.438371	0.898794	<b>56°</b>	0.829038	0.559193	<b>86°</b>	0.997564	0.069756
<b>27°</b>	0.45399	0.891007	<b>57°</b>	0.838671	0.544639	<b>87°</b>	0.99863	0.052336
<b>28°</b>	0.469472	0.882948	<b>58°</b>	0.848048	0.529919	<b>88°</b>	0.999391	0.034899
<b>29°</b>	0.48481	0.87462	<b>59°</b>	0.857167	0.515038	<b>89°</b>	0.999848	0.017452
<b>30°</b>	0.5	0.866025	<b>60°</b>	0.866025	0.5	<b>90°</b>	1	0

## **MUNDARIJA**

Kirish .....	3
1- MAVZU. Ilgarilanma harakat kinematikasi va dinamikasi .....	5
Asosiy formulalar.....	7
Masalalar yechish namunalari.....	11
Variantlar jadvali .....	24
Mustaqil yechish uchun masalalar.....	25
2- MAVZU. Qattiq jismning harakat kinematikasi va dinamikasi	56
Asosiy formulalar.....	58
Masalalar yechish namunalari.....	62
Variantlar jadvali .....	69
Mustaqil yechish uchun masalalar.....	70
3- MAVZU. Mexanikada saqlanish qonunlari .....	99
Asosiy formulalar.....	100
Masalalar yechish namunalari.....	102
Variantlar jadvali .....	112
Mustaqil yechish uchun masalalar.....	113
Adabiyotlar.....	147
Ilova.....	148

“Fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma” I – qism, MEXANIKA.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriatura talabalari uchun.

Fizika kafedrasining majlisida muhokama etildi va nashrga ruxsat etildi (17.04.2019. 35 –sonli bayonnomma)

Televizion texnologiyalari fakulteti ilmiy uslubiy kengashining majlisida ko‘rib chiqildi nashr qilishga tavsiya etildi (23.04.2019. 8-bayonnomma).

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU ilmiy-uslubiy kengashi majlisida ko‘rib chiqildi va nashr qilishga ruxsat etildi (23.05.2019. 11(123)-bayonnomma).

### **Tuzuvchilar:**

f.-m.f.n., dots. H.M. Xolmedov,

f.-m.f.n., dots. B. Ibragimov,

ass. X.N. Karimov.

### **Taqrizchilar:**

dots. A.Karimxodjayev

prof. M.Abduqodirov

### **Ma’sul muharrir:**

dots. H.M. Xolmedov